

Baxromjon Inatullayev

**MADANIYAT VA ISTIROHAT
BOG'LARI HAMDA
AHOLI DAM OLİSH
MARKAZLARI ISHI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

BAXROMJON INATULLAYEV

**MADANIYAT VA ISTIROHAT
BOG'LARI HAMDA
AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI
ISHI**

o'quv qo'llanma

Тошкент-2017

УДК: 372/7.094

ББК: 94:85.33/85.37(5У)

B. B. Inatullayev. Madaniyat va istirohat bog'lari hamda aholi dam olish markazlari ishi. O'quv qo'llanma, 2017, 120-bet.

Madaniyat va istirohat bog'lari hamda aholi dam olish markazlari ishi fani 5610400-Ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga ish beruvchilarning buyurtmasiga ko'ra qo'shimcha fan sifatida kiritilgan bo'lib, mazkur o'quv qo'llanma fanning asosiy o'rganish ob'yekti bo'lgan madaniyat va istirohat bog'lari hamda madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati bilan bog'liq masalalarni yoritadi.

* * *

This source was written because of the requirement of the personnel department and added as an extra subject for 5610400 social-cultural activity education blocks. In this source, the problems, activity of cultural parks and resting areas were discussed.

* * *

Наука о парках культуры и отдыха а также центров отдыха была включена в учебную программу, как дополнительная наука, для студентов направления 5610400-социально-культурной деятельности, и это пособие раскрывает основные изучаемые объекты науки, то есть вопросы связанные с деятельностью парков культуры и отдыха, а также центров отдыха для населения.

Mas'ul muharrir:

Mansur Bekmurodov - sotsiologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Abdusalom Umarov - sotsiologiya fanlari doktori, professor

Zaxriddinbobir Xaydarov - tarix fanlari nomzodi

Mazkur o'quv qo'llanma Namangan davlat universitetining "17" iyul 2017-yildagi kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.



©Baxromjon Inatullayev
© “LESSON PRESS” nashriyoti, 2017

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida barcha sohada tub islohotlar amalga oshirilib uning asosida jamiyat a’zolarining ijtimoiy faolligi va turmush darajasi ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29 dekabrdagi “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 322-sonli qarori, 2013-yil 25-iyundagi “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-sonli qarorini qabul qilinishi bilan madaniyat sohasida olib borilgan ishlar natijasida tizimda yangi tuzilmalar paydo bo‘ldi. Jumladan, madaniyat va aholi dam olish markazlari ana shunday tuzilmalardan biridir. Shuningdek, madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatini tashkil etishni nazariy jihatdan o‘rganish bugungi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasi bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlarning oldida turgan dolzarb vazifadir.

Mazkur qo‘llamma madaniyat va istirohat bog‘lari hamda aholi dam olish markazlari ishi fani o‘quv dasturiga asoslangan holda yaratilgan bo‘lib, madaniyat va istirohat bog‘lari tarixi, madaniyat va istirohat bog‘lari ish uslubiyati, O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati, madaniyat va istirohat bog‘larini takomillashtirish choralar, madaniyat va aholi dam olish markazlarining tashkil topishi va uning huquqiy asoslari, madaniyat va aholi dam olish markazlarida kadrlar bilan ishlash, madaniyat va aholi dam olish markazlarini bezash ishlari va madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, madaniyat va aholi dam olish markazida to‘garak ishini tashkil etish, madaniyat va aholi dam olish markazida ish yuritish va hujjatlar bilan ishlash tizimi kabi masalalar izchil ravishda, muayyan tartib asosida yoritilgan. Shuningdek, nazariy va amaliy materiallar nisbati maqsadga muvofiq taqsimlangan bo‘lib, nazariya bilan amaliyot birligi tamoyiliga to‘la rioya qilingan.

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARINING TARIXIY TARAQQIYOTI

1. Madaniyat va istirohat bog'larining rivojlanishi
2. Temuriylar davrida bunyod etilgan bog'lar
3. O'zbekistonda madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati

Tayanch so'z va iboralar: *Madaniyat va istirohat bog'lari, Bobil osma bog'lari, Navuxodonosor, Midiyä, Bog'i Behisht, Bog'i Baland, Bog'i Dilkusho, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Maydon, Bog'i Nav, Bog'i Chinor, Bog'i Shamol*

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab madaniyat muassasalari jamiyat a'zolarining yangilangan jamiyatga moslashishlari uchun muhim vosita bo'lib xisoblandi. Xususan, madaniyat va istirohat bog'lari aholining madaniy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Biroq ularning tarixiy taraqqiyoti uzoq o'tmishga borib taqaladi. Madaniyat va istirohat bog'lari-aholi madaniy hordiq chiqaradigan, turli manzarali daraxt va gulzorlar bilan jihozlangan, ko'kalamzorlashtirilgan maskandir.

Madaniyat va istirohat bog'lariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning tarixiy taraqqiyoti uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jumladan, dunyoning yetti mo'jizasini biri sifatida e'tirof etilgan osma bog'lar ham alohida ajralib turadi. Bu qadimgi osma bog' tuprog'dan qurilgan, ulug'vor lekin mo'rt bo'lgan Bobil bilan birga yo'qolgan. Bog'ga yaqinlashgandagina uni qavat-qavat ekanligni ko'rish mumkin. Unda ulkan daraxtlar bo'lgan. Daryodan kelayotgan suvni maxsus moslamalar tepaga eltil bergan. Unda nabototlar bilan birga turli hayvonot ham bor bo'lgan. Hatto u yerda sun'iy sharsharalar ham barpo etilgan. Bobildagi samoviy bog'lar haqida xalq orasida mashhur bir afsona bor. Afsonaga ko'ra Navuxodonosor Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'iga joylashgan Midya degan mamlakat malikasiga oshiqu beqaror bo'lib qolgan. U malikaning roziliginini olgach, el-yurtga katta to'y qilib bergen va yosh xotinini

olib markazga, Bobilga jo'nagan. Malika Bobilga kelgach, bu yerning ob havosidan, ya'ni issiqdan qiyngalgan, yuragi siqilib ma'yus yurgan. Shunda Navuxodonosor Midyaning yam-yashil dalalarini va go'zal bog'larini eslatib turadigan bir bog'i eram bunyod etishga qaror qiladi. Uning buyrug'i bilan dunyodagi eng mashhur binokor ustalar, mohir me'morlar to'planib ishga kirishadilar. G'oyat katta minora bunyod etiladi. Inshootga ulkan qoya toshlar ishlataladi. Minora to'rt qavatli edi. Har bir qavat aylana-qubba shaklida ishlanib, ularni baland tosh ustun tutib turardi. Ayvonlarning usti qamish bilan yopilib, asfalt qoplangan edi. Keyin ustidan g'isht terilib, ayvonlarga suv o'tib ketmasligi uchun qo'rg'oshin plastinkalar yotqizilgan edi. So'ng yuqoriga juda ko'p miqdorda soz tuproq chiqarilib, butun tom bo'ylab qalin qilib solinadi. Tuproq shunchalik qalin ediki, unda xatto ko'p yillik daraxtlarni ham o'stirish mumkin edi. U yerda o'sgan noyob gullar va manzarali daraxtlar malikaning vatanidan keltirilgan edi. Bu bog'ni sug'orish uchun suvni Frot daryosidan olganlar. Suvni tepaga ko'tarib beradigan charm idishlar o'matilgan ulkan charxpalakni yuzlab qullar kechayu kunduz aylantirib turganlar. Malika inshootning u qavatidan-bu qavatiga pushti va oq marmar yotqizilgan keng zinalardan yurib o'tgan. Dunyoning bu mo'jizasi hozirgi Iroq daylati hududida joylashgan. Bobilga kelgan juda ko'p sayohatchilar butun dunyoga dong'i ketgan Mesopotamiya mo'jizalarini qurishga oshiqadilar. Podsho Navuxodonosor zamonida bunyod etilgan bunday bog' dunyodagi hech bir mamlakatda yo'q edi. Shuning uchun ham bu bog' dunyoning yetti mo'jizasidan biri sifatida tilga olina boshlangan. Hozirgi zamon turistlari va sayohatchilari Geradot tasvirlab ketganday go'zal bog'larni ko'ra olmaydilar. Hozir u bog'lar o'mida minora va ayvonlarning vayronalari qolgan, xolos. Osma bog'ning vayrona qoldiqlarini olmoniyalik arxeolog Robert Koldevoy topgan va bu bog'ning qanday sug'orilganligiga hayron bo'lgan. Turli jangu jadallar va xususan fors qiroli Kayxusravning Bobilni zabit qilish chorida bu bog' vayron etilib, vaqt o'tishi bilan ulkan qumliklar ostiga ko'milib ketgan.

Temuriylar davrida bog'lar muhim ahamiyatga ega tuzilma

bo'lib, u nafaqat madaniyat muassasasi, balki siyosiy vazifalarni bajarib, elchilarni kutib olish kabi vazifalarni ham bajargan. Amir Temur bog'lari xususidagi dastlabki ma'lumotlar o'tmish tarixchilar, shoirlari, sayyoohlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, Amir Temur bog'lari O'rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan.

Amir Temur bog'lari tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'lingan: 1) chorbog'lar — geometrik (to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak) shaklda bo'lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan. Sahnidan o'tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo'lган. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog'larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan; 2) tuzilishi geometrik shaklda bo'lмаган, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag'rida barpo etilgan bog'lar. Bunday bog'lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy qismi tabiiy, qo'l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy, ko'shk va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o'rnatilgan. Bu turdag'i bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lган.

Amir Temur bunyod etgan bog'lar juda mashhur bo'lган. Ulardan biri bu Bog'i Baland bo'lib, Amir Temur Samarqandning shimolidagi Cho'ponota maqbarasi yaqinida nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog'chilik san'ati ustalari hamda me'morlari qatnashgan. Bog' o'rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo'lib, uning atrofidagi uzumzor, anjirzor va olmazorlar boqqa go'zal bir tarovat baxsh etib turgan. Bog'i Behisht bo'gi esa Amir Temur Samarqandning g'arbida suyukli xotini Tuman og'a (Xayrunnisoga)ga atab 1378-yilda qurdirgan. Yozma manbalarda "Bog'i Jannat" nomi bilan ataladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog' o'rtasidagi atrofi xandak bilan muhofaza etilgan sun'iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo'lган. Saroyga bir necha ko'tarma ko'priklar orqali kirilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot

bog‘chasi ham bo‘lgan.

Bog‘i Davlatobod bog‘i esa 1399 yilda Amir Temurga Hindiston yurishidan qaytgan kuni hadya qilingan. Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, u Samarqanddan 13 km janubda, Katta O‘zbekiston traktining chap tomonida bo‘lgan. Amir Temur bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, tantanali marosimlar o‘tkazgan, elchilarni qabul qilgan. Arxeologik qazishlar natijasida bog‘ning 1350x900 m maydonini egallagani, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgani va unda ariqlar, 4 hovuz (biri 62x28 m, ikkitasi 25X25 m, yana biri 32x32 m) hamda saroy (poydevori 70x70 m) bo‘lgani aniqlandi. Saroy balandligi 12 metr bolgan sun‘iy tepa ustiga qurilgan, atrofi xandaq (eni 20 m) bilan o‘ralgan. Unga 2 ta ko‘tarma ko‘prik orqali kirilgan. Bog‘i Dilkusho (Ko‘ngil ochuvchi bog‘) nomi bilan mashxur bog‘ Amir Temur xotinlaridan biri-To‘qalxonim sharafiga 1397-yilda qudirgan. Samarqanddan 5 km sharqda, Panjakent yo‘lining o‘ng tomonida (qadimiy Hinduvon qishlog‘i o‘rnida) joylashgan. Har tarafi 900 m uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, 4 darvozasi, markazida hashamatli saroy bo‘lgan. Saroy uch qavatli bo‘lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Amir Temur olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo‘yilgan. Amir Temur Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoni ana shu bog‘da qabul qilgan. Bu bog‘ o‘rnida hozir Dilkusho qishlog‘i joylashgan. Bog‘i Shamol nomi bilan mashxur bolgan bog‘ni Amir Temur 1397-yilda nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qudirgan. Samarqandning g‘arbida bo‘lgan. Undagi saroy to‘rburchak shaklda bo‘lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qora yog‘och va fil suyagidan ishlangan. Bu bog joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham "Bog‘i Shamol" deb ataladi. Bog‘i Jahonnamo (Jahon ko‘zgusi) bog‘ini Amir Temur Samarqanddan 7 farsax (42 km) narida, Zarafshon tog‘i etagida 1398-yilda qudirgan. Unda saroy va qal‘a bo‘lgan. "Zafarnoma"da yozilishicha, bu bog‘ning hududi benihoyat katta bo‘lib, yo‘qolib qolgan ot 6 oydan so‘ng topilgan ekan. Bog‘i Maydon nomi bilan mashxur bog‘ni Amir Temur Samarqandning shimolida, Cho‘ponota tepaligi etagida qudirgan.

Tarixiy manbalarga qaraganda, bog'da hashamatli bir ayvon (ko'shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo'lgan. Mirzo Ulug'bek bu bog'ni yanada obod qilgan. Bobur shu haqda bunday deb yozadi: "Bu bog'ning o'rtaida (Ulug'bek) bir oliv imorat qilibdur. Chil(qirq) sutun derlar, du (ikki) oshyona (qavat), sutunlari tamomi toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjlar qo'poribturlarkim, yuqorig'a chiqar yo'llar bu to'rt burjdindur. O'zga tamom yerdarda toshdin sutunlardir. Ba'zini morpech xiyora (burama, ko'pqirrali) qilibturlar. Yuqorig'i oshyonaning to'rt tarafi avvondir, sutunlari toshdan. O'rtasi chordora uydir. Imorat kursisini tamom toshdan farsh qilibdirlar". Bu bog' o'rni hozir ham Bog'i Maydon deb ataladi. Bog'i Nav (Yangi bog') nomi bilan atalgan bog'ni Amir Temur Samarqandning janubida 1404-yilda qurdirgan. Lolazor qishlog'i o'rnida joylashgan. Bu bog' to'rtburchak shaklda bo'lib, atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan, har burchagida minora qad ko'tarib turgan. Markazida boshqa bog'lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida hovuz bo'lgan. Bog'i Chinor bog'ini Amir Temur Samarqandning sharqida (Konigilning janubiy-g'arb tarafida, hozirgi "Qo'sh tamg'alik" tepaligi o'rnida) 1404-yilda barpo qildirgan. Unda chinorlar ko'p bo'lgan. Markazida xochsimon tarxli saroy joylashgan.

Samarqand atrofida bulardan tashqari yana bir qancha bog'lar bo'lgan. Chunonchi, Bog'i Bo'ldu, Bog'i Zog'on, Bog'i Naqshi Jahon, Bog'i Amirkzoda Shohrux, Bog'cha, Bog'i Dilafro'z, Bog'i Sheron, Gulbog', Lolazor, Bedana qo'rug'i, Chumchuqlik, G'ozzona va boshqa shular jumlasidandir. Amir Temurning bog' qurish an'anasi temuriylardan Shohrux, Ulug'bek, Bobur va boshqa ham davom ettireshgan.

Madaniyat va istirohat bog'larining tarixiy taraqqiyotida temuriylar davrida bunyod etilgan bog'lar alohida ahamiyat kasb etib, u bugungi kunda rivojlangan bog'larning asosini tashkil etadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida faoliyat yuritayotgan madaniyat va istirohat bog'lari haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak ularning ichida bugungi kunda eng yirik va milliy maqomga ega madaniyat va istirohat bog'i bu

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog' idir. U Toshkentning markaziy qismida joylashgan. Umumiy maydoni 45 hektar. Bog'ning bir qismi 1938 yilda yoshlardan tashabbusi bilan, asosan, hashar usulida qurilgan va yoshlarga bog'liq nomlar bilan atalib kelingan. 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanalari munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan bog' obod qilindi va hozirgi nom bilan atala boshlandi. Keyinchalik kengaytirilib, butunlay yangi qiyofadagi bog' bunyod etildi. Milliy bog' Alisher Navoiy memorial majmui, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi binosi, Madaniyat va san'at ko'rgazmasi saroyi, "Istiqlol" san'at saroyi, Abdulqosim madrasasi, "Navro'z" restorani, favvorali aylana hovuz, aylana shaklidagi sahna va amfiteatr bilan yaxlit uyg'unlik kasb etgan. Bog'dagi tabiiy past-balandoqliklardan oqilona foydalaniib, so'lim maskan, ajoyib manzara yaratilgan. Ko'kalamzor (chinor, qarag'ay, terak, akatsiya, archa, tol, kashtan va boshqalar, maysazor va gulzorlar) xushmanzara ko'rinishga ega. Bog' hududidan oqib o'tuvchi kanal unga 2 ta charxpalak o'rnatilgan) sun'iy ko'lni (sathi 9 hektar) suv bilan ta'minlaydi. Ko'lda 2 ta orolcha bor, ularga o'tish uchun 2 ta yoysimon ko'prik qurilgan, sohilida cho'milish oromgohi, qayiq bazasi joylashgan. Milliy bog'da shahar aholisi va mehmonlari dam olishi, hordiq chiqarishi uchun qulayliklar yatilgan: o'rindiqli 2 ta ochiq tomoshagoh, 10 ta attraksion, shaxmat -shashka pavillioni, bolalar temir yo'li, kutubxona, ovqatlanish va salqin ichimliklar savdo shoxobchalari bor. Bog'da Navro'z (2000 yildan) va Mustaqillik (2005 yildan) bayramlarning bosh tantanalari hamda xalq sayllari o'tkaziladi, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar uyushtiriladi. O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarni mustahkamlash va tinchliksevar tashqi siyosatni amalgalash oshirishda madaniyat va istirohat bog'larining alohida o'rni bor. Buni Toshkent shahridagi Yapon bog'i misolida ko'rish mumkin. U poytaxtning Yunusobod tumani Amir Temur shox ko'chasi, 107-uyda joylashgan. "O'zekspomarkaz" tarkibida. 2001 yil 25 avgustda ochilgan. Maydoni 4 hektar. O'zbekiston tashqi iqtisadiy aloqalar,

investitsiya va savdo vazirligi va Yaponiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan tashkil etilgan. Bog‘ qurilishi 1997 yil sentabrda Toshkent markazidagi ko‘l sohilida boshlangan. Yapon bog‘i 2 qism: “Karesansui”- dzen-buddizm falsafasi asosida maxsus o‘rnatilgan toshlar va daraxtlardan hamda “Chesenkaiyu”. Yapon sintoizmi quvnoqlik dunyosini aks ettiruvchi hovuz, jilg‘a va gullardan tashkil topgan. Bog‘da choy pavilioni turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, yaponiyalik san’atkorlar ishtirokida konsertlar o‘tkaziladi.

Mustaqillikning keyingi yillarda qator yangi qiyofadagi madaniyat va istirohat bog‘lari bapro etilmoqda. Jumladan, Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumanida 2014-yil 21 mart kuni «Lokomotiv» madaniyat va istirohat bog‘» ishga tushdi. Yangi bog‘ sobiq Zafar Diyor nomli bog‘ o‘rnida tashkil etildi. Avvalroq, Toshkent shahar hokimligining 2012 yil 5 dekabrdagi qarori bilan Zafar Diyor nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i «Lokomotiv istirohat bogi» MChJga ijaraga berilgan edi. Shu o‘rinda bir ma’lumot, hozirgi kunda Toshkent shahrida 12 ta madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyat olib bormoqda. Ulardan sakkiztasi Toshkent shahar hokimligining Madaniyat va boshqarmasi nazoratida. Abdulla Qodiriy nomidagi va «Toshkentlend» bog‘lari mos ravishda Ichki ishlar vazirligi va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi ixtiyorida bo‘lsa, Zafar Diyor va Furqat nomidagi bog‘lar turli tijoriy tashkilotlarga uzoq muddatli ijaraga berilgan.

Toshkent shahrida 2016-yil 8-avgust kuni yangi «Anhor-Lokomotiv» madaniyat va istirohat bog‘i ochildi. 8 gektar maydonga ega bog‘ «Anhor» kanali bo‘yida, Shayxontohur tumanining Labzak va Zulfiyaxonim ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Uning hududida restoran, bir necha tamaddixona, musiqali va yoritqichli fontanlar, bolalar o‘yin maydonchalari, shuningdek, 320 kishiga mo‘ljallangan yozgi kinoteatr mayjud. Unda, shaharda yagona bo‘lgan alohida attraksionlar ham o‘rnatilgan. Uning yopiq hududida, shuningdek, MDH mamlakatlarda yagona bo‘lgan eng uzun kartodrom va o‘yinlar markazi ham barpo etilgan. Shu bilan birga, bog‘ mehmonlari

O'zbekistonning 7 ta diqqatga sazovor joylarining mitti maketlarini ham ko'ra olishadi: Xivaning Kalta-minori, Samarqanddagi Sherdor madrasasi, Buxoradagi Minora-i Kalon, Andijonning Bobur yodgorlik majmuasi, Temuriylar muzeyi, Toshkent kurantlari va Toshkent TV minorasi. «Anhor» sohiliga uzunligi 40 metrlik yirik musiqali fontan qurilgan bo'lib, u suvni 50 metr balandlikkacha purkay oladi. Shuningdek barcha viloyatlarda madaniyat va istirohat bog'lari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Namangan viloyati markazi Namangan shahridagi "Z.M.Bobur" nomli madaniyat va istirohat bog'iga 1884-yil asos solingan. 1990-yilgacha A.S. Pushkin nomi bilan atab keltingan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Namangan shahriga tashriflari va undan so'ng 2009 yil qabul qilingan 1170-sonli qarorlari asosida bog' davlat dasturiga kiritilib, 2009 yilda qayta loyixalashtirildi va o'sha yilning oktabr oyida rekonstruktsiya ishlari boshlab yuborildi. Bog'dagi 26-ta talabga javob bermaydigan xizmat ko'rsatish obe'ktlari buzib tashlandi. Loyixa qiymati 4 mlrd. 800 mln so'mdan, 3 mlrd 300 mln so'mlik qurilish montaj va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Bugun bog'da 6 ta choyxona va oshxonalar, 9 ta muzqaymoq pavilonlari, shaxmat-shashka klubi, 27 ta zamonaviy attraktsionlar va boshqa ko'plab ko'ngilochar ob'yektlar xizmat qilmoqda. Bog' hududida 1 hektarlik 1,5 km irrigatsiya tarmoqlari, 1 ta zamonaviy favvora ishlab turibdi. Bog'da ochiq Estrada maydoni, 400 tomoshabinga mo'ljallangan amfiteatr buniyod etilgan. Hududda aholining madaniy dam olish uchun 175 ta o'rindiqlar, 160 ta tungi yoritish chiroqlari o'rnatilgan. Gavjum va sokin hududlar tashkil etilgan. Bog' moliyaviy jihatdan to'la o'z xarajatlarini qoplaydi. Birgina 2011-yilda 95007 mln.so'm daromad rejalanigan bo'lib, 96000 mln so'm qilib bajarildi. Shundan bog' balansidagi attraktsion va o'yin qurilmalaridan 64 000 mln.so'm, ijara va boshqa tushumlar xisobidan 32000 mln.so'm daromad olindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi «2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning

faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi” ijrosini ta’minlash bo‘yicha Nazorat rejasи ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat hokimligining 2011-yil 8-fevraldagи nazorat rejasи ishlab chiqilib tasdiqlangan hamda ijro uchun joylarga yetkazilgan. Jumladan, viloyatdagi madaniyat va istirohat bog‘larini kapital rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash hamda zamonaviy attraksionlar bilan jihozlash bo‘yicha shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan manzilli hududiy dasturlar ishlab chiqilib tasdiqlangan. Qarorning 2-ilovasida belgilangan vazifalar bo‘yicha Namangan viloyatida jami 13 ta madaniyat va istirohat bog‘i 2011-2015 yillarda dasturga ko‘ra rekonstruksiya qilindi. Jumladan, 2011 yilda Namangan shahar Z.M. Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i, Namangan shahar «Kamolot» yoshlar bog‘i hamda Yangiqo‘rg‘on tumanidagi madaniyat va istirohat bog‘i kapital rekonstruksiya qilindi. 2012 yilda Mingbuloq tumani “Do‘slik” bog‘i hamda Chortoq tumani Furqat nomidagi madaniyat va istirohat bog‘lari kapital rekonstruksiya qilish bo‘yicha dasturga kiritildi va amalgamashirildi. 2013 yilda Uychi tuman “Mustaqillik” bog‘i va Namangan tumani “Yettibuloq” nomli bog‘ dastur bo‘yicha rekonstruksiya qilindi. 2014 yilda To‘raqo‘rg‘on, Kosonsoy va Uchqo‘rg‘on tumanlaridagi madaniyat va istirohat bog‘larini dastur doirasida kapital rekonstruksiya qilindi. Madaniyat va istirohat bog‘lari bog‘ tuzish sanatining o‘ziga xos uslublari asosida barpo - etiladi. O‘zbekistonda madaniyat va istirohat bog‘lari shahar hududining hajmi, memoriy qiyofasi va tabiiy sharoitiga qarab tashkil qilinadi. Kichik shaharlarda bitta, katta shaharlarda bir necha, aholisi 500 mingdan ortiq shaharlarda esa umumshahar ahamiyatiga ega bo‘lgan bog‘lardan tashqari, shahar hududidagi har bir tumanning madaniyat va istirohat bog‘i bo‘lishi mumkin. Unda aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish katta o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrdagi “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini

tasdiqlash to'g'risida”gi 322-sonli qarori qabul qilingan.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va istirohat bog'lari tarixiy taraqqiyotining qaysi davri bo'lmasin, u madaniy dam olish orqali insoniyatning ong-tafakkurini rivojlantirishga xiznat qilib kelgan. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davri esa bu vazifani yangi davr talablari darajasida ado etilishi bilan madaniyat va istirohat bog'larining o'zgacha mazmun va qiyofa kasb etishiga olib keldi.

Nazorat uchun savollari:

- 1. Madaniyat va istirohat bog'lari tarixiy taraqqiyoti qanday yuz berdi?*
- 2. Bobil osma bog'lari qanday ehtiyoj tufayli bunyod bo'ldi?*
- 3. A.Temur va temuriylar davrida bog'lar qanday funksiyalarni bajargan?*
- 4. Temuriylar davri bog'lari qanday turlarga ajratilgan?*
- 5. Mustaqil O'zbekistonda madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati qanday amalga oshirilmoqda?*

ZAMONAVIY MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI STRUKTURALARI

1. Zamonaviy madaniyat va istirohat bog'larining strukturasи
2. Madaniyat va istirohat bog'larining tiplari va uning mezonlari
3. Zamonaviy madaniyat va istirohat bog'lariga qo'yiladigan talablar

Tayanch so'z va iboralar: *zamonaviy madaniyat va istirohat bog'lari strukturasi, asosiy obyektlar, qo'shimcha obyektlar, madaniyat va istirohat bog'lari tiplari, sokin hudud, gavjum hudud*

Madaniyat va istirohat bog'lari har bir davrda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, o'sha davr madaniyatining yuksak yutuqlarini o'zida mujassam etgan. Jumladan Mustaqillik davriga kelib, madaniyat va istirohat bog'lari ham jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari kabi xalqning ong-tafakkuriga mutanosib tarzda o'zgarib bordi. Bu jarayon bevosita madaniyat va istirohat bog'larining strukturasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bugungi kunda madaniyat va istirohat bog'lari hududi va ularda joylashtiriladigan obyektlar bo'yicha qator talablar ishlab chiqilgan.

Madaniyat va istirohat bog'ida quyidagilar asosiy obyekt sifatida bo'lishi shart:

1. Daraxtzor.
2. Obodonlashtirilgan hudud.
3. Yurish yo'lkalari.
4. Hordiq uchun o'rindiqlar.
5. Chiqindi tashlash qutilari.
6. Hojatxona.
7. Daraxtlarni sug'orish tizimi.
8. Attraksionlar, kichik va katta o'yin qurilmalari.
9. Salqin ichimliklar, muzqaymoq savdosi.
10. Ma'muriy bino.

11. Xo'jalik hovlisi.

12. Qulflanadigan kirish-chiqish darvozasi va eshiklar.

13. Bog' hududini o'rab turuvchi to'siq (devor yoki panjara)

14. Yozgi estrada yoki amfiteatr.

15. Yoritish tizimi.

16. Ichimlik suvi.

Qo'shimcha tavsiya etiladigan ob'yektlar:

**1. Suv hayzasi va uning faoliyati bilan bog'liq plyaj,
yechinish xonalari, qayiq, katamaran va boshqalar.**

2. Favvoralar.

3. Savdo shaxobchalar.

4. Umumiy ovqatlanish shaxobchalar.

**5. Juda katta bo'lmagan sport maydonlari (mini futbol,
voleybol, tennis, badminton, yengil atletika, shaxmat-shashka va
boshqa).**

**6. Statuya, haykal, byust va boshqa mahobatli tasviriy san'at
asarlari.**

7. Ko'chma sirk faoliyati uchun maydon.

8. Bolalar maydonchalar.

9. Bolalar shaharchalari.

10. Shahar va boshqa ob'yektlarning mini maketlari.

11. Jonli burchak.

12. To'garak va jamoalarning mashg'ulot xonalari.

13. Issiqxona.

14. Ko'chatxona.

15. Gulxona.

**16. Bog' faoliyati bilan bog'liq ishlab-chiqarish sexlari,
ustaxonalar.**

17. Raqs maydonchalar.

18. Ko'rgazmali targ'ibot va tashviqot vositalari.

19. Transport vositalari.

20. Ko'ngil ochar maskanlar.

21. Suratxonalar, foto-video xizmati.

**22. O'yinchoq va kichik harakatlanish vositalari (bolalar
velosipedi, mashinalari va h.k.) ijarasи.**

23. Qiroatxona.

24. Bog‘ hududida obodonlashtirish ishlarida foydalaniladigan texnika va asbob-anjomlar.

25. Kompyuter o‘yinxonalari.

26. Internetkafe

Har bitta madaniyat va istirohat bog‘ining maydoni ikkita hududga bo‘linishi shart:

1. Aholining tinch tabiat qo‘ynida dam olishi va hordiq chiqarishiga xizmat qiluvchi sokin hudud.

2. Aholining faol dam olishi uchun xizmat qiladigan gavjum hudud.

Sokin hududda faqat quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. Daraxtzor.

2. Obodonlashtirilgan maydon.

3. Harakatlanish yo‘lkalari.

4. O‘rindiq va skameykalar.

5. Muzqaymoq va salqin ichimliklar savdosi.

6. Gulxona, issiqxona, ko‘chatxona.

7. Ahlat qutilari, hojatxona.

8. Ma’muriy bino.

9. Xo‘jalik hovlisi

10. To‘garak va jamoalarning mashg‘ulot xonalar.

11. Passiv sport (shaxmat, shashka, domino, loto va boshqa) anjomlari.

12. Statuya, haykal, byust va boshqa mahobatli tasviriy san’at asarlari.

13. Bog‘ faoliyati bilan bog‘liq ishlab-chiqarish sexlari, ustaxonalar.


14. Kutubxona.

Sokin hudud egallagan maydonning eng kamida 65 foizi daraxtzor, harakatlanish yo‘lklari, hordiq uchun o‘rindiqlar, shuningdek obodonlashtirilgan yerlarga to‘g‘ri kelishi kerak. Qolgan 35 foiz maydonga boshqa ob‘yektlarni joylashtirishga ruxsat etiladi.

Gavjum hududda quyidagi ob‘yektlar joylashtirilishiga ruxsat etiladi:

1. Daraxtzor.

2. Obodonlashtirilgan maydonchalar.
 3. Yurish yo'lkalari.
 4. Skameyka va o'rindiqlar.
 5. Ahlat qutilari.
 6. Hojatxonan.
 7. Attraksionlar, kichik va katta o'yin qurilmalari.
 8. Salqin ichimliklar, muzqaymoq savdosi.
 9. Yozgi estrada yoki amfiteatr.
 10. Suv havzasi va uning faoliyati bilan bog'liq plyaj, yechinish xonalari, qayiq, katamaran va boshqalar.
 11. Savdo shaxobchalari.
 12. Umumiy ovqatlanish shaxobchalari.
 13. Juda katta bo'limgan sport maydonlari (mini futbol, voleybol, tennis, badminton, yengil atletika va boshqa).
 14. Statuya, haykal, byust va boshqa mahobatli tasviriy san'at asarlari.
 15. Ko'chma sirk faoliyati uchun maydon.
 16. Bolalar maydonchalar.
 17. Bolalar shaharchalari.
 18. Shahar va boshqa obyektlarning mini maketlari.
 19. Jonli burchak.
 20. Raqs maydonchalar.
 21. Ko'ngil ochar maskanlar.
 22. Suratxonalar, foto-video xizmati.
 23. O'yinchoq va kichik harakatlanish vositalari (bolalar velosipedi, mashinalari va h.k.) ijerasi.
 24. Kompyuter o'yinxonalari.
 25. Internetkafe
 26. Ko'rgazmali targ'ibot va tashviqot vositalari.
- Gavjum hududdagi obyektlar quyida ko'rsatilgan maydondan ortig'ini egallashiga yo'l qo'yilmaydi (gavjum hudud maydoniga nisbatan):
1. Savdo shaxobchalar - 3 %
 2. Umumiy ovqatlanish shaxobchalari - 3 %.
 3. Juda katta bo'limgan sport maydonlari (mini futbol, voleybol, tennis, badminton, yengil atletika va boshqa) - 5 %.



4. Ko'chma sirk faoliyati uchun maydon - 2 %.
 5. Bolalar maydonchalari - 1,5 %.
 6. Bolalar shaharchalari - 2 %.
 7. Jonli burchak - 1 %.
 8. Raqs maydonchalari - 2,5 %.
 9. Ko'ngil ochar maskanlar - 3 %.
 10. Suratxonalar, foto-video xizmati - 1 %.
 11. O'yinchoq va kichik harakatlanish vositalari (bolalar velosipedi, mashinalari va h.k.) ijaras - 1 %.
- Jami ob'yeqtalar egallagan maydon gavjum hudud maydonining 25% dan ortig'ini tashkil etishi mumkin emas.
- Bugungi kunda madaniyat va istirohat bog'lari strukturasi va xizmat ko'rsatish ko'lamiga ko'ra 3 ta tipga ajratiladi.

- I. Tipdag'i madaniyat va istirohat bog'i mezonlari:
1. Daraxtzor-bog' umumiylar maydonining 50-60%
 2. Ko'kalamzorlashtirilgan maydon-bog' umumiylar maydonining 10-15%
 3. Yurish yo'lkalari-bog' umumiylar maydonining 5-7%
 4. Hordiq uchun o'rindiqlar-200-250 ta
 5. Chiqindi tashlash qutilari-100-120 ta
 6. Hojatxona-4-6 ta
 7. Attraksionlar, kichik va katta o'yin qurilmalari-30-35 ta
 8. Salqin ichimliklar, muzqaymoq savdosi-5-10 ta
 9. Yozgi estrada yoki amfiteatr-3-4 ta
 10. Suv havzasi-2 ta
 11. Savdo shaxobchalari-bog' umumiylar maydonining 2%
 12. Umumiylar ovqatlanish shaxobchalari-bog' umumiylar maydonining 2%
 13. Juda katta bo'limgan sport maydonlari (mini futbol, voleybol, tennis, badminton, yengil atletika va boshqa)-bog' umumiylar maydonining 3,5%
 14. Ko'chma sirk faoliyati uchun maydon-bog' umumiylar maydonining 1,5%
 15. Bolalar maydonchalari-bog' umumiylar maydonining 1%

16. Bolalar shaharchalari-bog' umumiy maydonining 1,5%
17. Jonli burchak-bog' umumiy maydonining 0,75%
18. Raqs maydonchalari-bog' umumiy maydonining 2%
19. Suratxonalar, foto-video xizmati-bog' umumiy maydonining 0,5%
20. Prokat (ijara) punktlari-bog' umumiy maydonining 0,5%
21. Xo'jalik hovlisi
22. Ma'muriy bino
23. Medpunkt
24. Qorovulkona
25. Panjara va darvozalar
26. Ko'rgazma zali
27. Bog' maydoni yoritqichlari

II. Tipdag'i madaniyat va istirohat bog'i mezonlari:

1. Daraxtzor-bog' umumiy maydonining 50-60%
2. Ko'kalamzorlashtirilgan maydon-bog' umumiy maydonining
3. Yurish yo'lkalari-bog' umumiy maydonining 5-7%
4. Hordiq uchun o'rindiqlar -80-100 ta
5. Chiqindi tashlash qutilari -40-60 ta
6. Hojatxona-2-3 ta
7. Attraksionlar, kichik va katta o'yin qurilmalari-20-25 ta
8. Salqin ichimliklar, muzqaymoq savdosi-5-7 ta
9. Yozgi estrada yoki amfiteatr-2 ta
10. Suv havzasi-1 ta
11. Savdo shaxobchalari-bog' umumiy maydonining 2%
12. Umumiyl ovqatlanish shaxobchalari-bog' umumiy maydonining 2%
13. Juda katta bo'limgan sport maydonlari (mini futbol, voleybol, tennis, badminton, yengil atletika va boshqa)-bog' umumiy maydonining 3,5%
14. Ko'chma sirk faoliyati uchun maydon-bog' umumiy maydonining 1,5%
15. Bolalar maydonchalari-bog' umumiy maydonining 1%
16. Bolalar shaharchalari-bog' umumiy maydonining 1,5%

17. Jonli burchak-bog' umumiy maydonining 0,75%
18. Raqs maydonchalari-bog' umumiy maydonining 2%
19. Suratxonalar, foto-video xizmati-bog' umumiy maydonining 0,5%
20. Prokat (ijara) punktlari-bog' umumiy maydonining 0,5%
21. Xo'jalik hovlisi
22. Ma'muriy bino
23. Medpunkt
24. Qorovulkona
25. Panjara va darvozalar
26. Ko'rgazma zali
27. Bog' maydoni yoritqichlari

III. Tipdag'i madaniyat va istirohat bog'i mezonlari:

1. Daraxtzor – bog' umumiy maydonining 50-60 %
2. Ko'kalamzorlashtirilgan maydon – bog' umumiy maydonining 10-15%
3. Yurish yo'laklari – bog' umumiy maydonining 5-7%
4. Hordiq uchun o'rindiqlar – 40-60 ta
5. Chiqindi tashlash qutilari – 30-40 ta
6. Hojatxona – 2 ta
7. Attraksionlar, kichik va katta o'yin qurilmalari – 15-20 ta
8. Salqin ichimliklar, muzqaymoq savdosi – 3-5 ta
9. Yozgi estrada yoki amfiteatr – 1 ta
10. Suv havzasasi – 1 ta
11. Savdo shaxobchalari – bog' umumiy maydonining 2%
12. Umumiy ovqatlanish shaxobchalari – bog' umumiy maydonining 2%
13. Juda katta bo'limgan sport maydonlari (mini futbol, voleybol, tennis, badminton, yengil atletika va boshqa) – bog' umumiy maydonining 3,5%
14. Ko'chma sirk faoliyati uchun maydon-bog' umumiy maydonining 1,5%
15. Bolalar maydonchalari – bog' umumiy maydonining 1%
16. Bolalar shaharchalari – bog' umumiy maydonining 1,5%
17. Jonli burchak - bog' umumiy maydonining 0,75%

- 18. Raqs maydonchalari - bog' umumiy maydonining 2%
- 19. Suratxonalar, foto-video xizmati-bog' umumiy maydonining 0,5%
- 20. Prokat – bog' umumiy maydonining 0,5%
- 21. Xo'jalik hovlisi
- 22. Ma'muriy bino
- 23. Medpunkt
- 24. Qorovulkxona
- 25. Panjara va darvozalar
- 26. Ko'rgazma zali
- 27. Bog' maydoni yoritqichlari

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va istirohat bog'larining bu kabi turkumlanishi ularning aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishi bilan bir qatorda hudud infratuzilmasi va arxitekturasiga salmoqli ta'sir o'tkazadi. O'z navbatida hudud iqtisodiyotini mustahkamlovchi omil bo'lib ham xizmat qildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyat va istirohat bog'larining zamonaviy strukturasi qanday bo'ladi?
2. Madaniyat va istirohat bog'larining asosiy obyektlariga nimalar kiradi?
3. Madaniyat va istirohat bog'larining qo'shimcha ob'yektlariga nimalar kiradi?
4. Madaniyat va istirohat bog'larining necha tipga ajratiladi?
5. Madaniyat va istirohat bog'larini tiplarga ajratishda qaysi mezonlarga tayaniladi?

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARIDA MADANIY- MA'RIFIY ISHLAR USLUBIYATI

1. Madaniyat istirohat bog'larida madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish
2. Madaniyat va istirohat bog'larida "Ma'naviyat xonasi"ni tashkil etish va jihozlash
3. Madaniyat va istirohat bog'larida o'zbek xalq milliy o'yinlarini tashkil etish

Tayanch so'z va iboralar: *madaniy-ma'rifiy ishlar, bo'sh vaqt, madaniyat va istirohat bog'larining ijtimoiy funksiyalari, Navro'z umumxalq bayrami, xalq o'yinlari*

Madaniyat ya istirohat bog'i nafaqat dam olish maskani, u yerda o'tkazilayotgan tadbirlar aholini ma'naviy kamol toptiruvchi, madaniy tafakkurini oshiruvchi, bilimini o'stiruvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi maskandir.

Bo'sh vaqt dam olish, charchoqni chiqarish, ma'naviy va jismoniy ravnaq topish uchun sarflanadigan vaqtdir. Undan qanday foydalanish har kimning o'z ixtiyorida bo'ladi. Bo'sh vaqtida bilim va malaka oshirish, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, sport va havaskorlik ijodi bilan shug'ullanish, madaniy dam olish, sayr qilish kabi ko'plab faoliyatlar bilan shug'ullanish mumkin.

Bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish masalalariga to'xtar ekanmiz, eng avvalo, bo'sh vaqtning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur omillar qatorida turadigan bebafo manba ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki bo'sh vaqt ijtimoiy boylik hisoblanib, shaxs va ma'naviyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Pirovard natijada bo'sh vaqt mehnat unumdorligini orttirishda muhimligi ma'lum. "Yaxshi dam-mehnatga hamdam", deydi xalqimiz. Agar inson qanchalik yaxshi va unumli mehnat qilsa, shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi. Shunday ekan, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish

kishilarning mehnat jarayonida sarf bo‘lgan kuch-quvvatlarini tiklash, sog‘liqlarini mustahkamlash, ruhiyatlarini tetiklashtirish demakdir.

Madaniyat va istirohat bog‘larida bo‘sh vaqt ni mazmunli tashkil qilish, odamlarning ko‘ngilli hordiq chiqarishlarini yo‘lga qo‘yishning xilma - xil shakl va uslublaridan foydalanilmoqda, bu sohadagi ishlar takomillashtirilmoqda.

Madaniyat va istirohat bog‘larining old tomonini panno, shiorlar, bayroqlar, o‘rim-o‘rim qilib o‘stirilgan gullar, gullardan ishlangan naqshlar, ko‘cha fonarlari, agarda imkoniyat bo‘lsa, har xil rangdagi elektr chiroqlardan ishlangan girlyandalar bilan bezatish lozim. Barcha madaniyat va istirohat bog‘lari o‘z ish mavsumlarini “Navro‘z” umumxalq bayrami arafasida boshlaydilar.

Dam oluvchilarga barcha sharoitlar yaratish uchun madaniyat va istirohat bog‘laridagi barcha attraksionlarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish, sport maydonchalarini tozalash va tayyorlash, sug‘orish inshootlarida ta’mirlash ishlарini amalga oshirish, ko‘plab manzarali va igna bargli ko‘chatlar, bir yillik gul ko‘chatlar va atirgul ko‘chatlari o‘tqazish hamda daraxtlarni oqlash, mavjud ariqlarni tozalash, yo‘lkalarga asfaltlar yotqizish, maishiy xizmat shaxobchalarini ko‘paytirish, madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladigan maydoncha va sahnalarini tartibga keltirish kerak.

Madaniyat istirohat bog‘larida madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish muhim masaladir. Hozirda madaniy-ma’rifiy ishlarda keng tarqalgan shakllar bu birinchi turkumlashdagi ommaviy va kompleks shakllardir. Ular birlashib “Ommaviy tadbirlar”ni yujudga keltiradi. Tadbirlar qiziqarli, ta’sirchan, maroqli bo‘lishi uchun ko‘proq badiiy vositalardan foydalaniladi. Shuning uchun ommaviy tadbirlar tushunchasiga badiiy degan so‘z ham qo‘shiladi. Natijada bu “Badiiy-ommaviy tadbirlar” tushunchasiga aylanadi. Ular madaniy-ma’rifiy muassasalarning badiiy faoliyatini yaxshiroq ochishga yordam beradi. Tadbirlarda keng qamrovli ishlarning olib borilishi kishilarning ishdan bo‘sh vaqtida, ularga kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishgaga jalb qilish, ommani mazmunli

hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi.

Joylarda madaniyat va istirohat bog‘lari ommaviy tadbirlarni uyuştirish borasida asosiy markaz bo‘lib xizmat qiladi. Ular mahalla ahliga, ishlab chiqarish jamoalariga turli tadbirlarni tashkil qilishga ko‘makdosh.

Shuni ta’kidlash kerakki, madaniyat va istirohat bog‘lari o‘z vazifalarini samarali bajargandagina tadbirlarni hayotda tutgan o‘rnini yanada oshadi.

Madaniy-omnaviy tadbirlar yirik ijtimoiy sanalarga, mahalliy hayotdagagi muhim voqealarga bag‘ishlanib o‘tkazilsa, ulardagi o‘zgarishlar va yutuqlar mohiyati ochiladi, turmushning muhim haqiqatlarini badiiy-estetik bezaydi.

Madaniy-omnaviy tadbirlar negizida kishilarning erishgan samarali mehnati yutuqlari o‘z aksini topadi. Ularning asosiy vazifalaridan biri, har bir mehnatkashning ulug‘vor ishining mohiyatini oshib berish, ularning xizmatidan umumiyl davlat ishi vujudga kelishini anglatishdir. Madaniy tadbirlar umumxalq masalalari bilan birga mahalliy hayotdagagi yutuqlarni va muammolarni aks ettiradi, har bir jamoaning mehnati natijasidan kerakli xulosalar chiqarishga va kelajak ishlarni rejalashtirishga yordam beradi. Shuning uchun tadbirlar jamiyatimizning barcha muassasalari, korxonalari, o‘quv yurtlari va tashkilotlarida umumiyl ishning bir qismi, ma’naviy-tarbiyaviy faoliyatning asosi sifatida uyushtiriladi. Xalqning ma’naviy ehtiyojlari qanchalik oshib borsa, tadbirlarning ham hayotdagagi roli shunchalik oshib boradi. Chunki hayotimizning hozirgi taraqqiyoti bosqichida xalqimizning oshib borayotgan ma’naviy ehtiyoji-birinchidan, mehnat qilishga sarflangan jismoniy va ruhiy kuchni qayta tiklaydigan, ikkinchidan – muloqot uyushtiradigan, uchinchidan – ijodiy sharoit yaratadigan, to‘rtinchidan – g‘oyaviy-badiiy emotsiyonal ta’sir etadigan axborotlarga boy va qiziqarli dam olish tadbirlarni talab qilmoqda. Kishilarda bunday ehtiyojlar oshib bormoqda va bu o‘z navbatida tadbirlarning ham samarasini oshirishga imkon yaratmoqda.

Madaniyat va istirohat bog‘lari madaniy-ma’rifiy muassasalari, “Mahalla”, “Nuroniy”, “Oltin meros”, Ma’naviyat

va ma'rifat, Kamolot, hududiy va xalq ta'limi tashkilotlari shahar va tuman bo'limlari bilan hamkorlikda madaniy tadbirlarni tashkil etishlari maqsadga muvofiqdir.

Madaniyat va istirohat bog'i aholining ma'lum qismi uchun tayyorlangan tadbirlarni bir marta namoyish qilishi yetarlidir. Masalan, o'qituvchilar kuniga bag'ishlangan tadbirni asosan murabbiylar uchun bir marta 1-oktabr kuni yoki shu kun arafasida o'tkazish mumkin.

Madaniyat va istirohat bog'larida faoliyatning asosini dam olish kunlari madaniy xizmat ko'rsatish tashkil etadi.

Madaniyat va istirohat bog'lari o'z faoliyatining mazmunida insonparvarlik, axloqiylik, imon-e'tiqodlilik, farosatlilik, ma'rifatparvarlik, halollik va odillik, vataparvarlik va millatsevarlik, birodarparvarlik, baynalminallik, mehnatsevarlik, hurfikrlilik, taraqqiyatparvarlik kabi insoniy fazilatlarni kamol toptirishga intiladi va kishilarning ishdan bo'sh vaqtida o'tkazish rejalashtiriladi. Bu kabi tadbirlar aholini hordiq chiqarishiga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan.

Madaniyat va istirohat bog'lari asosan quyidagi ijtimoiy funksiyalarini bajaradi:

-aholi o'rtasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;

-yoshlar va mehnatkashlarning mazmunli dan olishini tashkil qilish.

Madaniyat va istirohat bog'larida dan olish kunlari, ya'ni haftaning shanba yoki yakshanba kunlari mahalla fuqarolar yig'inlari kunlari (ushbu tadbirda mahalla hududidagi maktab, bog'cha, korxona, tashkilotlar, madaniy-ma'rifiy muassasalar qatnashadilar. Tadbirda korxona, tashkilot, muassasalar mahsulotlarining hamda tasviriy san'at ijodkorlari mahalla chevarlarining ko'rgazmalari, madaniy-ma'rifiy muassasalarining madaniy tadbirlari)ni tashkil etish.

Professional va havaskor xonandalar ijrosida konsertlar uyushtiriladi, har xil attraksion o'yinlar ishlab turadi.

Yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun tennis, shaxmat-shashka, turli xil attraksionlar, o'yin qurilmalari,

muzqaymoq, salqin ichimliklar va yemaklar pavilionlarini tashkil etish lozim.

Madaniyat va istirohat bog‘larida “Navro‘z” umumxalq bayrami sayllarini tashkil etish va o‘tkazish

“Navro‘z” umumxalq bayrami madaniyat va istirohat bog‘larida sayl tarzida o‘tkaziladi. Bog‘ hududi, maydonlar bayramona bayroqchalar va “Assalom bahor, yoshlik va go‘zallik bayrami!”, “Salom bahor!”, “Navro‘z ayyomingiz qutlug‘ bo‘lsin, aziz do‘sstar!”, “Xush kelibsiz!”, “Sport tinchlik elchisi!” kabi shiorlar bilan bezatiladi.

Bayram kuni har bir maydonga texnik vositalar va ovoz kuchaytirgichlar hozirlab qo‘yiladi.

Saylga tashrif buyurgan aholi uchun qulaylik yaratish maqsadida ko‘proq muzqaymoq shirinliklar, ichimlik suvlari sotiladigan savdo yarmarkasi tashkil etiladi. Bayram dasturxoniga bahoriy taomlar sumalak, gijda nonlar, ko‘kat somsalar, shirinlik ya boshqa taomlar qo‘yiladi.

Tadbir boshlanishidan oldin har bir maydonda karnay-surnay sadolari yangrab, xalqni bayram sayliga chorlaydi.

Shodiyonalarda joylarda faoliyat ko‘rsatayotgan badiiy jamoalar, bolalar musiqa maktabi o‘quvchilari, taniqli xonanda, sozanda va askiyachilar navbatli bilan har bir sahnada xizmat ko‘rsatadilar. Bayram o‘tkaziladigan joyning kattaroq maydonchalarida, stadionlarida xalq o‘yinlarining ko‘rki hisoblangan “Yong‘oq o‘yini”, “Toy o‘yini”, “Oq terakmi ko‘k terak”, “Xo‘roz urishtirish”, “Qo‘chqor urishtirish”, arqon tortish, kurash, akrobatika, karate, taekvando, yugurish marafoni, badiiy gimnastika sportchilarining ko‘rgazmali chiqishlari uyuşhtiriladi. Joylarda mavjud bo‘lgan sport turlari bo‘yicha sportchilarni jalb qilgan, milliy sport turlari turon yakkakurashi, boks bo‘yicha mussabaqlar o‘tkazishlari tashkil etish maqsadga muvofiq.

Maydonga dor tikilib dorbozlar va masxarabozlar o‘z san‘atlarini namoyish etadilar.

Madaniyat va istirohat bog‘larida hunarmandlar qo‘llari bilan yaratilgan xalq amaliy san‘ati va hunarmandchilik buyumlarining

ko'rgazmalar tashkil qilinadi.

Attraksionlar nogiron, yetim bolalarga va kam ta'minlangan oila farzandariga bepul xizmat ko'rsatadi.

Navro'z bayramini xalqimizning ajdodiy tajribalari, xususan, mustaqillik yillarida bu bayramni o'tkazishda to'plangan tajribalar asosida umumxalq shodiyonasi tarzida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bayramning asosiy tadbiri sayl tomoshani dam olish kuni (bayram kuni) sifatida belgilangan 21-mart yoki bahorning kelishi (ob-havo)ga qarab bir oy mobaynida o'tkazish mumkin. Chunki qadimdan ushbu bayram haftalab, hatto butun hamal oyi davomida o'tkazib kelingan.

Madaniyat va istirohat bog'larida xalq saylini tashkil etish-sayllarni uyushtirish uchun teatrlashtirilgan tomoshalar oldindan tayyorlangan dasturlar asosida tabiat qo'ynda, ochiq maydonlarda, mavjud saylgohlarda o'tkazilgan. Dasturda ajdodlarimizning tabiat, jamiyat va koinot haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlari, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, xalqimizning maishiy turmush tarzi badiiy-estetik shakllarda o'z ifodasini topishi kerak. Bundan quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- Bog'larni har bir tuman, shahar, qishloq, mahallalarning o'ziga xosligini ko'rsata oladigan belgi va timsollar bilan bezash;
- Navro'z qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodiyoti, an'anaviy qo'shiqchilik va estrada san'ati yutuqlari asosida teatrlashtirilgan tomoshalar hamda konsertlar tashkil etish;
- turli xarakterdagи musobaqalar va tanlovlар o'tkazish;
- xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchi yoshlar ijodiga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil etish;
- dor, kurash, uloq, xo'roz, bedana, qo'chqor urishtirish kabi xalq o'yinlarini uyushtirish;
- baxshilar, masxarabozlar, askiyachilar, kulgi ustalari, qo'g'irchoqbozlarning chiqishlarini tashkil etish;
- she'rxonlik, mushoiralar uyushtirish;
- doshqozonlar atrofida o'lan va laparlar aytishni tashkil etish;
- sumalak, halim va boshqa bahoriy taomlar, pishiriqlar savdosini tashkil etish va hakozolar.

Madaniyat va istirohat bog‘larida “Ma’naviyat xonasi”ni tashkil etish va jihozlash bo‘yicha tavsiyalar

“Ma’naviyat xonasini”ni tashkil etish va jihozlash keng qamrovli va murakkab ish ekanligini nazarda tutib quyidagilarni tavsiya qilinadi:

- * O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portreti.
- * O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzları (bayroq, gerb, madhiya) va ularni to‘liq tasnifi.
- * Ma’naviy-ma’rifiy islohatlarga oid farmonlar, farmoyishlar, qonunlar va qarorlar jamlanmasi.
- * Milliy ma’naviyatimizning zabardast vakillari buyuk qomusiy olimlar, shoirlar, ma’rifatparvarlar siymolari aks ettirilgan suratlar hamda ularning fikrlaridan namunalar.

* Xalqimizning madaniy merosi, an’analari, udumlarini aks ettiruvchi plakatlar.

“Ma’naviyat va ma’rifat” chop etilgan asarlar.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti” deb nomlangan bo‘limda Respublikamiz Prezidentining tarjimai holi, sur’ati, jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, amalga oshirgan islohotlari, ma’naviyatga daxldor asarlari, farmon, farmoyishlari, qarorlari joy olmog‘i shart. Shuningdek yig‘inlarda so‘zlagan nutqlari ham bo‘lishi lozim.

Xullas, “Ma’naviyat xonasi”ni qay darajada bezatish va boyitish ma’naviyat bo‘lim xodimlarining mahoratiga bog‘liq.

Turli mavzularda tadbirlar va suhbatlarni o‘tkazishning taxminiy ro‘yxati.

“Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir”

“Yaxshilik, yomonlik nima”

“Ma’naviyatimiz yulduzlari”

“O‘zbekiston, yagona Vatan”

“Yoshlarimiz – yurt tayanchi”

“Donishmandlar bisotidan”

“Biz tabiatni sevamiz”

“Yangi avlod orzulari”

“O‘zbek kurashining jahondagi mavqeyi”

“Sportimiz yulduzları”

“Hunarli kishi xor bo ‘lmas”
“O‘z huquqingizni bilasizmi?”
“Konstitutsiya - baxtimiz qomusi”
“Siz tarixni bilasizmi?”
“Siz qonunni bilasizmi?”
“Taniqli ijodkorlardan kimlarni bilasiz?”
“Ularning ijodiy asarlarini bilasizmi”
“Adabiyotimiz namoyondalari”

Madaniyat va istirohat bog‘larida o‘zbek xalq milliy o‘yinlarini tashkil etish.

O‘zbek milliy o‘yinlari hayotiyligi bilan, xalq tomonidan yaratilganligi hamda yoshidan qat’iy nazar, katta-kichik bolalar sevib o‘ynashi bilan ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ham farzandlarini qiyinchiliklar oldida dovdiramasliklari, qo‘rqmasliklari hamda dovyurak bo‘lishlariga ko‘mak berish uchun milliy o‘yinlarni tarbiya vositasi sifatida qo‘llashgan.

O‘zbek xalq o‘yinlari insoniyat madaniyatining xazinasidir. Hayotda sog‘lom bola ota-onaning quvonchidir. Farzandining sog‘u-salomat, tetik, baquvvat, chidamli, chiniqqan bo‘lishini orzu qilmaydigan ota-onha bo‘lmasa kerak. Shu bois madaniyat va istirohat bog‘larida ham bolalarni ko‘proq turli o‘yinlarga jalb etish imkonini yaratish lozim. Bola hamma faslda, har qanday sharoitda ham o‘ynay olsin, o‘yinni sevsin.

O‘zbek milliy xalq o‘yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, rasm-rusumlarda va urf-odatlarda o‘z aksini topgan. Ular ming yillar davomida rivojlanib, sayqallahib, takomillashib eng saralari bizgacha yetib kelgan. Jumladan “Dor o‘yini”, “Kamondan o‘q otish”, “Uloq”, “Chovgon”, “Ot ustida kurash”, “Belbog‘li kurash”, “Qopqon”, “Kim chaqqon”, “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Quloq cho‘zma”, “Bekinmachoq”, “To‘ptosh”, “Qirqtosh”, “Arqon tortish”, “Ko‘z boylagich”, “Chillak”, “Koptok” va hokazo o‘yinlari bolalarni chaqqonlikka, epchillikka, muvozanat saqlashga o‘rgatish bilan birga ularning qaddi-qomatini chiroyli, go‘zal bo‘lib shakllanishiga hamda sog‘lom baquvvat bo‘lishiga yordam

bergan.

O'zbek xalqi orasida hayvonlar va qushlar mavzusida juda ko'p qiziqarli o'yinlar, raqslar "Kaptar o'yini", "Chag'alak", "Yumronqoziq", "Ot o'yin" va hokazolar keng rasm bo'lgan.

Shuningdek, o'zbeklar orasida "Karnaymi, surnaymi", "Nina, ip va tuguncha", "Qoch bolam, qush keldi", "Xo'roz va tovuq" kabi o'yinlar ham mashhur bo'lgan.

Narsalar ishtirokidagi o'yinlar "Qochar to'p", "To'p devor", "To'p o'yini", "Besh tosh", "To'p tosh", "Lanka", "Chillak", "Dastak", "Qadama tayoq", (toshchalar), "Do'lki", "Toq-juft", "Oqsuyak", "Oshiq o'yin", "Belbog' tortish".

Jonivorlar va parrandalar ishtirokidagi o'yinlar: "Qo'chqor urishtirish", "It urishtirish", "Bedana, xo'roz, kaptar urishtirish", "Eshak ko'pkar", "Ot poyga", "Chovgon", "Uloq", "Ag'darish".

O'yinchoq va qo'g'irchoqlar bilan bog'liq: "Xolakam-xolakam", "Kelin-kuyov". "Quvlashmachoq", "Bekinmachoq", "Qo'g'irchoq" va hakozolar.

Ko'pgina xalq o'yinlari otalar va bobolardan bolalar va nabiralarga o'tgan. Farzandlarimizning nutqini o'stirishda, savodxonlik darajasini ko'tarish, so'z boyligini oshirish, talaffuzini ravon etishda ham o'zbek xalq o'yinlarining ta'limiy ahamiyati beqiyosdir. Katta kishilar hayotida mehnat qanday ahamiyat kasb etsa, bolalar hayotida ham o'yin shunday ahamiyat kasb etadi. Ularning o'yinga qiziqishlari, fikrlash doirasini kengaytiradi, charxlaydi. Urf-odatlar, milliy qadriyatlar va madaniyatni o'rganishda o'zbek milliy o'yinlari muhim manba hisoblanadi.

Harakatli o'yinlar turli qiyinchiliklarni yengish va har-xil fazilat va qobiliyatlarni ko'rsatishga doir jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, bolalarga quvonch bag'ishlaydigan musobaqalar ham harakatli o'yinlar jumlasiga kiradi. Harakatli o'yinlar yurish, yugurish, sakrash, biror narsalarni irg'itish yoki uloqtirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o'z ichiga oladi va bolaning harakatlarini takomillashtiradi. Harakatlar bilan birga bolaning jismoniy qobiliyati ham

rivojlanadi, yurak va nafas olish organlarining faoliyati yaxshilanadi. Harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy kamolotida muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularda o'z hatti-harakatlari uchun ham mas'uliyatni sezishdek olijanob fazilatni tarbiyalaydi. Bog'larda va oromgohlarda o'yinlar to'g'ri tanlanishi, bolalarda do'stlik, jamoatchilik, vatanparvarlik hislarini singdirishga xizmat qilishi lozim. Shu bois quyidagi o'zbek xalq milliy o'yinlaridan foydalanishni tavsiya etiladi.

"Oddiy qalam" o'yini

Oddiy tayoqchaning uchiga oddiy qalam bog'lanadi. Hamda tayoqchani tepa qismiga og'irligi 1,5 kg keladigan to'ldirma to'p yoki kaltakcha osib qo'yiladi. Ma'lum belgilangan joyga stul ustiga qog'oz qo'yiladi. Tarbiyachining signalidan keyin o'yin ishtirokchisi yugurib borib, o'sha tayyorlangan qalam bilan qog'ozga yog'ochni yelkasiga qo'ymasdan shakl chizishi kerak. Qaysi guruh shakllarni ko'p chizsa, o'sha guruh g'olib deb topiladi.

"Tugilgan ro'mol" o'yini haqida

O'yinning tavsifi: onaboshi bolalarni yoniga yig'ib olib, qo'lidagi ro'molni bittasiga ushlatadi. U "ikki" "uch" deb baqirganida, o'yinchilar har tomonga qochib ketadilar. Onaboshi quvib yetib olgan vaqtida u qo'lidagi ro'molni boshqa bir bolaga uloqtirishi kerak. Ro'molni ilib olgan bola onaboshiga yetmasligi kerak. Ushlagan bola o'ynovchilarining qo'ygan shartini bajaradi. U onaboshini almashtiradi. Keyin o'yin davom etaveradi. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati: bolalarni chaqqonlikka, ko'z bilan to'g'ri mo'ljallahsga o'rgatadi.

"Topar bo'lsang, topa qol" o'yini haqida

O'yinning tavsifi: O'yinni ko'pchilik bo'lib o'ynaladi. Bolalar doira bo'lib turadilar. Topuvchi o'rtada bo'ladi. Bolaclar tugmaga o'xshagan biror narsani qo'lma-qo'l orqadan uzatadilar va ulardan biri o'zida olib qoladi (berkitadi). O'rtadagi, bolalarni kuzatib turib, biror boladan gumon qiladi.

- Tugma Valida! – deydi. U to shu so'zni aytguncha bolalar xor bo'lib:

- Topar – bo'lsang, topa qol

- Topar – bo'lsang, topa qol

- Topolmasang qola qol - deb aytib turadilar. Tugma haligi bolada bo'lsa, ko'rsatishi kerak. Demak, u o'rtaga tushadi, topolmasa, biror vazifani bajarib berishi kerak.

O'yining tarbiyaviy ahamiyati: O'yin bolalarni kuzatuvchan, ziyrak bo'lishga o'rgatadi.

"Choponko'l" o'yini haqida

O'yinga tayyorlanish: O'yinda ishtirok etuvchi hamma bolalar doira bo'lib chordona qurib o'tiradilar. Bu o'yin uchun doira ichida qo'ldan-qo'lga o'tkaziladigan, taxlangan (buklangan) chupon yoki rangli to'p kerak bo'ladi. O'yining tavsifi: Onaboshi doiraning tashqarisida yugurib yuradi va chupon qo'shniga uzatilayotgan paytda ushlab olishga yoki qo'l tekkizishga intiladi. Chupon ushlab olinishi yoki unga qo'l tegishi bilan aybdor o'yinchni Onaboshining o'rniiga borib turadi. Onaboshi esa doiradagilar qatoriga borib turadi va o'yin davom etadi. Aybdorni tarbiyachi aniqlaydi.

O'yining tarbiyaviy ahamiyati: Bu o'yin bolalarni chaqqonlikka, ziyraklikka, tez harakat qilishga o'rgatadi.

Tafakkurni o'stiruvchi, aqliy-psixologik o'yinlar

1. Shunday so'zlar toppingki o'ng tomondan o'qilganda bir ma'noni, chap tomondan o'qilganda boshqa bir ma'noni anglatсин. (yo'q-qo'y, mis-sim, mol-lom, mot-tom, son-nos, fol-lof, chek-kech, shom-mosh, sho'x-xo'sh va hakozo)

2. Tovuq bir oyog'ida turganda 2 kg bo'lsa, ikkala oyoqda turganda necha kg. bo'ladi?

3. Qanday qilib 5 ta olmani 5 nafar qizga likopchada qoldirib taqsimlash mumkin? (oxirgi olmani likopcha bilan berish kerak)

4. Yomg'ir ikki kun ketma-ket yog'ishi mumkinmi? (yo'q ular orasida tun bor)

5. Uch akaning bor bittadan singlisi, oilada ular nechta hammasi? (4 ta)

6. 7 yoshdan o'tgan qarg'a bilan nima voqeа sodir bo'ladi? (qarg'a 8 yoshga to'ladi)

7. Ikki ota va ikki o'g'il quyon tutishib, bittadan bo'lib olishdi. Shunday bo'lishi mumkinmi? (ular bobo, uning o'g'li va

nevarasi)

8. Bir uyning 4 ta burchagida bittadan mushuk o'tiribdi, har bir mushukning qarshisida 3 tadan mushuk o'tiribdi. Uyda nechta mushuk bor? (4 ta)

9. Sen va men, sen bilan biz, hammamiz nechtamiz? (2 ta)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, madaniyat va istirohat bog'larida olib borilayotgan har qanday madaniy-ma'rifiy faoliyat tub joy aholisini ijtimoiy hayotining tarkibiy qismiga aylanishi shart. O'z navbatida uning samaradorligi aholining tafakkur tarzini o'zgarishi bilan harakterlanadi. Bu soha mutaxassislaridan katta mahorati talab etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyat va istirohat bog'larida madaniy-ma'rifiy ishlar uslubiyati qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

2. Madaniyat va istirohat bog'larining qanday ijtimoiy funksiyalari bor?

3. Madaniyat va istirohat bog'larida ma'naviyat xonasini qanday jihozlash mumkin?

4. Madaniyat va istirohat bog'larida Navro'z umumxalq bayramini nishonlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

5. Madaniyat va istirohat bog'larida qanday milliy o'yinlardan foydalanish mumkin?

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI

1. Madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish konsepsiysi
2. Madaniyat va istirohat bog'lari tadbirkorlik subyekti sifatida
3. Madaniyat va istirohat bog'larini faoliyatining istiqbollari

Tayanch so'z va iboralar: *ma'rifat va madaniyat, davlat dasturi, tarmoq dastur, moliyaviy ta'minot, tadbirkorlik subyekti, istiqbol rejalar*

Biz odamlarning ma'naviy tarbiyasini o'ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko'zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz. Masalaning boshqa tomoni - ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to'laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo'lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o'choqlarini ko'paytirish, ularning sharoitini yaxshilashdir.

Bog' – insonning tabiat bilan yaqin munosabatni o'rnatishi, tabiiy sharoitda madaniy dam olishi va ruhiy zavq olishi uchun xizmat qiladigan madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanadi. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda bog' barpo etish juda buyuk savob ishlardan biri bo'lib hisoblangan va qadimdan ajdodlarimiz tomonidan yurtimizning turli hududlarida bog'lar yaratilgan.

Buyuk bobomiz Amir Temur o'z tuzuklarida "Xon bo'lsang ham bog' yarat, gado bo'lsang ham bog' yarat", - deb bejiz yozib qoldirmagan. U o'z so'zlariga amal qilgan holda Samarqand shahri va uning atrofida 12 ta bog'ning bunyod etilishiga boshchilik qilganligi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar mavjud.

Yurtimizning Samarqand, Buxoro, Xorazm, Andijon, Namangan, Farg'ona va boshqa hududlari qadimdan o'zining ajoyib bog'-rog'lari va oromgohlari bilan mashhur bo'lgan. Bog'larning barpo etilishida yurtimizdag'i tabiiy sharoit ham

muhim o'rincini tutadi. Ya'ni, bahorning dastlabki kunlaridanoq ob-havoning isishi va to kech kuzgacha shunday holatning saqlanib qolishi aholining va xorijiy mehmonlarning tabiat bag'rida yayrab hordiq chiqarishi uchun sharoit yaratilishini talab etgan. Yurtimiz bog'larida xalq sayllari, ommaviy tomoshalar uyushtirilib, bu tadbirlar nomoddiy madaniy merosimizning ajoyib namunalari bo'lgan dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik, xalq o'yinlari bilan boyitilgan, askiya kechalari, mushoiralar uyushtirilgan. Hozirda esa bog'lar umumxalq bayramlarini nishonlash maskanlaridan hisoblanadi. Har yili qabul qilingan Davlat dasturida yurtimizning har bir tuman va shaharida kamida bittadan zamonaviy madaniyat va istirohat bog'ining faoliyat yuritishiga erishish, ularning barchasini zamonaviy attraksionlar va o'yin qurilmalari bilan jihozlash orqali aholi, ayniqsa, yoshlarning madaniy dam olishlari uchun sharoit yaratish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, bog'larni zamonaviy talablarga javob beradigan, turli yosh va aholi guruhlarining dam olish maskaniga aylantirish asosiy maqsad etib belgilanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda madaniyat va istirohat bog'larini zamonaviy attraksion va o'yin qurilmalari bilan jihozlash, ularda zamonaviy ko'ngilochar ob'yektlarni barpo etish qatorida istirohat bog'lari bilan bog'liq azaliy an'analarimizni ham saqlab qolish va ulardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanishni tashkil etish ham zarur. Bu ishlarni amalga oshirish uchun:

madaniyat va istirohat bog'larini bilan bog'liq huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, bog'lar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimini yaratish;

madaniyat va istirohat bog'larida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlanishini maqsadli tashkil etish, u yerda ishlayotgan xodimlarning malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

madaniyat va istirohat bog'larida o'tkaziladigan madaniy tadbirlar ko'lamini oshirish, yangi shakl va uslubdagi madaniy va sport tadbirlarining o'tkazilishiga erishish;

madaniyat va istirohat bog'larida aholining barcha qatlamlari uchun, ayniqsa, oilaviy dam olishga xizmat qiladigan sharoit

yaratish, xususan:

sokin hududda aholining tabiat qo'ynida xotirjam dam olishini tashkil etish, bolalarda tabiatni asrash tuyg'usini shakllantirish;

bolalar maydonchalarida kichik yoshdagi bolalarning zavqli o'yinlar bilan mashq'ul bo'lishiga sharoit yaratish, ko'rgazma zallarida turli tasviriy san'at va hunarmandchilik mahsulotlarining ko'rgazmalarini o'tkazish orqali yoshlarda estetik didni tarbiyalash;

estrada maydonlari va amfiteatrлarda mumtoz, estrada, folklor yo'nalishlaridagi konserт dasturlarining namoyishini tashkil etish, aholiga ko'rsatiladigan servis xizmatining turlarini ko'paytirish orqali yangi ish o'rinalarini yaratish zarur.

Ushbu vazifalarning to'liq amalga oshirilishi uchun madaniyat va istirohat bog'lari hududi va ularda joylashtiriladigan obyektlarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va shu asosda uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog'larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish, namunaviy loyihalarning joylardagi mavjud bog'larni rekonstruksiya qilish loyihalriga moslashtirish lozim bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi markaziy madaniyat va istirohat bog'lari - bиринчи tipda, yirik (aholi soni va bog' maydoni e'tiborga olinadi) shahar va tumanlardagi madaniyat va istirohat bog'lari – иккинчи tipda, hududlardagi kichik hajmdagi bog'lar uchinchi tipda bo'lishi hisobga olinib, uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog'larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Madaniyat va istirohat bog'lariga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda aholining mazmunli dam olishini tashkil etish uchun hozirgi kunda juda kam bog'lardagina faoliyat ko'rsatayotgan ko'ngilochar maskanlarning yangi turlarini barpo etish vazifasini ham amalga oshirish zarur. Yozgi estrada maydonchalari, sun'iy suv havzalari, ko'chma sirk tomoshalarini namoyish etish maydonchalari, bolalar shaharchalari, raqs maydonchalari, xalq amaliy san'ati namunalarining namoyishi va

savdosi uchun xizmat qiladigan ob'yecktlar shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida:

barcha madaniyat va istirohat bog'lari zamonaviy ko'rinishga keltirilib, attraksionlar va kichik o'yin qurilmalari bilan jihozlanadi;

madaniyat va istirohat bog'larining hududiga va ularda bo'lishi lozim bo'lgan obyektlarning tarkibiga qo'yiladigan talablar asosida barcha bog'lar tartibga keltiriladi;

madaniyat va istirohat bog'larining yuridik maqomi, ularning mulkchilik shakli, boshqaruv va boshqa tashkiliy jihatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar takomillashtiriladi;

madaniyat va istirohat bog'lari malakali kadrlar bilan ta'minlandi;

bog'larda tashkil etiladigan madaniy-ommaviy, sport tadbirlarining ko'lami va sifat darajasi ortadi;

bog'larga tashrif buyuruvchilarining soni ortadi;

madaniyat va istirohat bog'lari yagona andoza asosida pasportlashtirildi, har bitta bog'ning faoliyatini o'rganish imkoniyatini yaratish uchun ularga guvohnomalar beriladi, buning natijasida barcha bog'larning tayyorgarlik darajasi nazorat ostiga olindi;

servis xizmatining yangi turlari tashkil etiladi;

yangi ish o'rinnari ochiladi;

voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtleri mazmunli o'tkazilishiga erishiladi.

Madaniyat va istirohat bog'larining tashkiliy-huquqiy shakli, qaysi tashkilot yoki muassasaga bo'ysunishidan qat'iy nazar, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, uslubiy va amaliy yordamni tashkil etish, mavjud me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zimmasiga yuklanishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, bog'larda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish, bog'larning ushbu yo'nalishlardagi faoliyatini yo'naltirish maqsadida Vazirlik qoshida Respublika madaniyat va istirohat

bog‘lari direktorlarining jamoatchilik Kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, kelajakda ushbu Kengash faoliyatini yanada takomillashtirish orqali Madaniyat va istirohat bog‘lari uyushmasini tashkil etish ham rejalashtirilmoqda. Dasturni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining byudjetdan tashqari mablag‘lari, investorlar hamda homiylar mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi belgilangan. Shu maqsadda Dasturda belgilangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy manbalarni aniqlash va uzlusiz moliyalashtirishni tashkil etish ishlari mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklatilgan.

Madaniyat va istirohat bog‘larida barcha tegishli sharoitlar yaratilishi natijasida o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash imkoniyati yuzaga keladi va bu o‘z navbatida qo‘srimcha mablag‘larsiz faoliyat ko‘rsatish, zarur hollarda esa o‘z faoliyatini kengaytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Aholiga ko‘rsatiladigan servis xizmati turlarini kengaytirish, ularning sifatini oshirish orqali bog‘larga keluvchilarning soni muntazam ortib borishiga erishiladi.

Dasturga ko‘ra bitta bog‘ uchun zarur bo‘ladigan mablag‘ miqdori:

I- tip:

Yangi tashkil etiladigan 6 mlrd. 508,8 mln. so‘m

Kapital rekonstruksiya qilinadigan 4 mlrd. 881,6 mln. so‘m

Kapital ta‘mirlanadigan 3 mlrd. 254,4 mln. so‘m

Joriy ta‘mirlanadigan 1 mlrd. 627,2 mln. so‘m

II- tip:

Yangi tashkil etiladigan 4 mlrd. 543,9 mln. so‘m

Kapital rekonstruksiya qilinadigan 3 mlrd. 407,9 mln. so‘m

Kapital ta‘mirlanadigan 2 mlrd. 272,0 mln. so‘m

Joriy ta‘mirlanadigan 1 mlrd. 136,0 mln. so‘m

III- tip:

Yangi tashkil etiladigan 3 mlrd. 262,0 mln. so‘m

Kapital rekonstruksiya qilinadigan 2 mlrd. 446,5 mln. so‘m

Kapital ta'mirlanadigan 1 mlrd. 631,0 mln. so'm

Joriy ta'mirlanadigan 815,5 mln. so'm

Izoh: Attraksionlar, medpunkt va ko'rgazma zallar qo'shilgan holati

Dasturni amalga oshirishdan maqsad Respublikaning har bir tuman va shaharida kamida bittadan zamonaviy jihozlangan madaniyat va istirohat bog'larining faoliyat yuritishiga erishish va bog'larning sonini 225 taga etkazish. Madaniyat va istirohat bog'lari hajmi va jihozlanganlik darajasi, joylashishiga qarab uchta tipga bo'linib, ularni 37 tasi I-tip, 38 tasi II-tip 150 tasi III-tipdagi bog'lar bo'ldi. Hozirda faoliyat olib borayotgan badiiy havaskorlik va texnika ijodiyoti yo'nalishidagi jamoalar va to'garaklar, havaskorlik birlashmalari, maxsus kurslar, uyushmalar va qiziquvchilar klublari, o'z daromadi bilan ishlaydigan to'garaklar va jamoalar soni 179 tadan-1946 tani tashkil etadi. Ushbu to'garaklardagi ishtirokchilar soni 3297 nafardan 41545 nafarga yetdi va bu ko'rsatkich 12,6 barobarga oshdi. Bunga qo'shimcha ravishda bog'larda sirk tomoshalari uchun maydonchalar, jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish markazlari tashkil etiladi. Madaniyat va istirohat bog'lari egallagan yer maydoni hozirda 1788,8 hektarga teng bo'lsa, keljakda 2930,0 ga yetadi. Hozirda mavjud attraksionlar soni 696 ta bo'lsa, Dastur ijrosining yakuniga borib ular soni 5,8 barobarga ortib 4045 tani tashkil etishi rejalashtirilgan. Bog'larda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-madaniy va sport tadbirlarining ko'lami 4,2 barobarga ortib 7209 tadan 30610 taga etadi. O'tkazilayotgan mazkur tadbirlarga aholining jalb etilishi hozirda 4 mln. 511 ming nafarni tashkil etsa, keljakda ushbu ko'rsatkich 8 mln. nafarga yetadi. Bog'larda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmat turlari ortib, sifati yaxshilanadi. Xizmatlardan ishlab topilayotgan daromad 765,1 mln. so'mni tashkil etayotgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich salkam 15 barobarga ortib taxminan 10 mlrd. so'mga yetishi rejalashtirilgan. Attraksion chiptalari narxi tartibga keltiriladi va attraksionlarning har biridan bir kunda ishlab topiladigan mablag' miqdori o'rtacha 45-50 ming so'mdan to'g'ri

kelishiga erishish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda madaniyat va istirohat bog'larida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning umumiy soni 1623 nafarni tashkil etsa, dasturni amalga oshishi yakunida bu ko'rsatkich 12 000 nafardan ortdi. Bog'larning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, attraksionlar bilan jihozlash hamda qo'shimcha xizmat turlarini tashkil etish orqali 10500 taga yaqin yangi ish o'rnlari ochiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekistonda madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini takomilashtirishning qanday choralari ko'rilmogda?
2. Madaniyat va istirohat bog'lari tadbirkorlik subyekti bo'lishi mumkinmi?
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 322-sonli qarori qachon qabul qilindi?
4. Madaniyat va istirohat bog'larining takomillashuvida davlat, hududiy va tarmoq dasturlarining qanday o'rni bor?
5. Madaniyat va istirohat bog'lari jamiyat taraqqiyotiga qaysi jihatdan aloqador bo'ladi?

MADANIYAT VA AHOLOSH MARKAZLARINING TASHKIL TOPISHI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarining tashkil topishi va uning huquqiy asoslari.
2. Madaniyat va aholi dam olish markazlarining asosiy vazifalari
3. Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatini takomillashtirish shart -sharoitlari.

Tayanch so‘z va iboralar: *madaniyat va aholi dam olish markazi, markazning funksiyalari, faoliyatning huquqiy asoslari, markazning tiplari, hizmat ko‘rsatiladigan aholi, tomosha zali*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 martdagি PQ-1920-son qarori bilan tasdiqlangan «Obod turmush yili» Davlat dasturining 65-bandini bajarish yuzasidan hamda aholining, ayniqsa yosh avlodning o‘sib borayotgan madaniy-ma’risiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini samarali va mazmunli o‘tkazishini tashkil etishga ko‘maklashish maqsadida 2013 yil 25 iyunda “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 178-sonli qarorni qabul qildi. Unga ko‘ra ishchi guruh tuzilib, 2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo‘yicha tadbirlar kompleksi, Madaniyat va aholi dam olish markazlari to‘g‘risidagi Nizomi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari faoliyat ko‘rsatayotgan madaniyat uylari va klub muassasalarining o‘tkazilgan puxta xatlovi va ularning moddiy-texnika bazasini o‘rganish asosida madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan ko‘rsatilayotgan madaniy-ommaviy xizmatlar bilan aholining

keng qatlamlarini ta'minlashni hisobga olgan holda, ularning moddiy-texnika bazasi yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholi dam olish markazlarining vazifalariga muvofiqligiga, shu jumladan ko'p funksiyali zali mavjudligiga alohida e'tibor qaratgan holda har bir shahar va tuman bo'yicha madaniyat va aholi dam olish markazlarini joylashtirish sxemasini tasdiqlatish, O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birligida maqbul binolarni (ko'p funksiyali zali bo'lgan), shu jumladan qishloq kinoteatrлari hamda idoralar, tashkilotlar va korxonalarining, sobiq kolxozlar va sovxozlarning foydalanilmayotgan binolarini qidirib topish va ularni madaniyat va aholi dam olish markazlariga ajratish, madaniyat uylari va klub muassasalarini maqbullashtirish natijasida bo'shab qoladigan binolarni saqlashni va ulardan samarali foydalanishni, ularga zaruriyat bo'lмаган taqdirda esa ularni birja va birjadan tashqari savdolarda sotishni, shuningdek ulardagi mavjud, foydalanishga yaroqli musiqa asboblari va anjomlarning yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholining dam olish markazlari balansiga belgilangan tartibda berilishini ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari zamонавиy madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etilishi va ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, aholini bo'sh vaqtни samarali va mazmunli o'tkazishga jalb etish bo'yicha markazlar tomonidan idoraviy mansub hududda madaniy-ommaviy va dam olish ishlari o'tkazilishining holati uchun shaxsan javobgarligi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markazlarning joylashgan joyiga va xizmat ko'rsatiladigan aholi soniga qarab amaldagi shtatdagи xodimlar soni doirasida madaniyat va aholi dam olish markazlarining namunaviy shtat jadvallarini ishlab chiqdi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqladi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi buyurtmasi va taqdim etilgan texnik talablari asosida, tegishli loyiha institutini jalb etgan holda,

madaniyat va aholi dam olish markazlarining uchta namunaviy loyihasini ishlab chiqdi, markazlarning qiyofasi arxitektura-rejalashtirish yechimlari va intereriga yagona yordashuvlar ishlab chiqilishini ta'minlashi, loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minladi. Shuningdek, buyurtmachilar bilan pudratchilar o'rtasidagi shartnomalar majburiyatlar bajarilishi, shu jumladan tasdiqlangan namunaviy loyihalarga hamda amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalariiga muvofiq ob'yeqtarda bajariladigan loyiha va qurilish-montaj ishlari sifatiga qo'yiladigan talablarga qat'iy rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o'tkazish vazifasi yuklandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2013 yil 1 oktabrgacha madaniyat va aholi dam olish markazlarini joylashtirishning tasdiqlangan sxemasidan, o'tkazilgan xatlovdan, ular binolarining amaldagi holatidan kelib chiqib 2013 — 2018 yillar uchun mahalliy byudjetlar mablag'lari, shu jumladan madaniyat uylari va klub muassasalarining soni hamda ular xodimlarining soni maqbullashtirilishi munosabati bilan bo'shab qoladigan mablag'lar hisobiga, shuningdek jalb etiladigan homiylik mablag'lari va boshqa mablag'lar hisobiga madaniyat va aholi dam olish markazlarini bosqichma-bosqich mukammal ta'mirlashi va jihozlashning mintaqaviy manzilli ro'yxatlarini ishlab chiqishi va tasdiqlashi, madaniyat va aholi dam olish markazlari binolarini mukammal ta'mirlash, shuningdek, zaruriyat bo'lganda, rekonstruksiya qilish va ularni zamonaviy asbob-uskunalar va anjomlar bilan jihozlash uchun kelgusi yilga tasdiqlangan mintaqaviy manzilli ro'yxatlarni har yili belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga va Moliya vazirligiga kiritishi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda madaniyat uylari va klub muassasalarining rahbar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasini tuzadi va yangidan tashkil etilayotgan zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlariga yuklanayotgan asosiy

vazifalardan kelib chiqib ikki oy muddatda markazlar xodimlarining yuksak talabchanlik, qat'iyatlilik va xolisona baholash vaziyatida attestatsiyadan o'tkazilishini ta'minlashi, joylashgan joyidan (viloyat markazlari va boshqa tumanlar (shaharlar) va xizmat ko'rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib madaniyat va aholi dam olish markazlari pulli to'garaklarida qatnashish (borish) uchun oylik to'lovlar miqdorlarini Moliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlashi, madaniyat va aholi dam olish markazlarining pulli to'garaklar faoliyatidan hamda bo'sh xonalarni ijara berishdan tushadigan byudjetdan tashqari mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan, shuningdek qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflarni manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritishi lozim deb belgilandi. Unga ko'ra, birgina Namangan viloyatini o'zida 84 ta madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etiladigan bo'ldi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi "2013-2018 yillarda zamонавијадан олиш маказларини ташкил этиш чора-тадбірлари тоғ'г'рисіда" гі 178-сонлықтарынан билинган Nizom asosida faoliyat olib boradi.

Aholining madaniy ehtiyojlarini o'rganish hamda madaniyma'rifiy va ko'ngilochar xususiyatga ega bo'lgan xilma-xil xizmatlar ko'rsatish, havaskorlik, badiiy ijod va amaliy san'at bilan shug'ullanuvchilar uchun shart-sharoitlar yaratish Markazning asosiy faoliyatini hisoblanadi.

Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyruqlari va metodik ko'rsatmalariga hamda o'z Nizomiga amal qiladi.

Markaz davlat muassasasi shaklidagi, turli yo'nalishlar,

shakllar, turlar va janrlardagi madaniy-ijodiy, ma'rifiy va dam olish faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni ta'minlaydigan yuridik shaxs hisoblanadi.

Markaz mahalliy davlat hokimiyatining tegishli organlarida davlat ro'yxatidan o'tadi.

Markazlar:

I tipda — xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo'lgan va kamida 400 o'rindiqli tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tumanning ma'muriy markazlarida;

II tipda — xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda — xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Shaharlarda va tuman markazlarida xizmat ko'rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib I, II va III tipdag'i markazlar, qishloq joylarda esa — faqt II va III tipdag'i markazlar tashkil etilishi mumkin.

Markaz milliy an'anaviy madaniyatni saqlab qolish va o'rganishda jamoatchilik ehtiyojlarini o'rganish va qondirish, badiiy ijodni, boshqa havaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash, uning dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladi.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi obyektlarini saqlab qolish va ko'paytirish, zamonaviy studiyalar va to'garaklarni, shuningdek badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo'li bilan badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantirish;

- aholining barcha qatlamlari tomonidan talab qilingan zamonaviy madaniy-ma'rifiy xizmatlarni keng yoyish, Internet-studiyalar, elektron resurslar, shu jumladan, Internet vositasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari tashkil etiladigan ko'p funksiyali zallarda qiziqarli va maroqli tomoshalar, to'ylar va boshqa tantanali

tadbirlar, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o‘yinlar bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilishini tashkil etish;

- «O‘zbekiston iftixori» va «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» shiorlari ostida ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni, milliy adabiyot va san’atning taniqli arboblari, sportchilar bilan aholining, shu jumladan yoshlarning estetik va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan uchrashuvlarni tayyorlash va o‘tkazish, ushbu faoliyatga professional ijodiy guruhlarni va san’at arboblarni jalg etish;

- foto va amaliy san’atning doimiy va vaqtinchalik ko‘rgazmalarini, tanlovlari, xalq ijodiyoti va tomosha san’atining mini-festivallarini o‘tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash, shuningdek ularni ma’naviy qo’llab-quvvatlash va ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ‘ib qilish;

- havaskorlik badiiy va amaliy ijod jamoalari, studiyalari va to‘garaklari, xalq teatrлari, madaniy-bilish, tarix-o‘lkashunoslik, ilmiy-texnik, tabiat-ekologik, madaniy-maishiy, kolleksiya-toplash qiziqishlari va boshqa qiziqishlar bo‘yicha filarmoniyalar, havaskorlik birlashmalari va klublar tashkil etish hamda ular ishini tashkil etish;

- mahalliy urf-odatlar va an’analarga muvofiq ommaviy teatrlashtirilgan bayramlar va tomoshalar, xalq sayillari o‘tkazish;

- markazning imkoniyatlari doirasida, aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, unga ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan xilma-xil pulli xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan bolalarni to‘garaklarga jalg etish;

- ijtimoiy-ijodiy buyurtmalar, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan boshqa shartnomalar bo‘yicha turli madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishda maslahat, metodik va tashkiliy-ijodiy yordam ko‘rsatish, shuningdek qo’shimcha xizmatlar ko‘rsatish (musiqali asboblarni, rekvizitni ijaraga berish, repertuar-metodik materiallarni sotish va shu kabilar);

- madaniy-ijodiy, madaniy-bilish, dam olishning boshqa turlarini hamda Markazning asosiy vazifalariga muvofiq bo‘lgan boshqa faoliyatni amalgalash.

Quyidagilar Markazning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi obyektlarini saqlab qolish, havaskorlik san'atini rivojlantirish bo'yicha davlatning madaniyat sohasidagi siyosati natijalarini aks ettiruvchi badiiy loyihalar va dasturlarni ijodiy mujassamlashtirish;
- xalq ijodiyoti janrlari, nomoddiy madaniy meros bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va havaskorlik san'atini rivojlantirish;
- markaz mutaxassislarining malakasini oshirish, doimiy ishlovchi ko'rgazmalar, studiyalar, mahorat darslari, seminarlar tizimi orqali ko'nikmalarni hosil qilish.

Markaz qonun hujjalariiga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega. Markaz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ushbu faoliyatdan olingan daromadlarni va ushbu daromadlar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjalarda belgilangan tartibda tasarruf etadi.

Markaz:

intellektual faoliyat natijalaridan va unga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda foydalanish;

madaniyat va san'at sohasida davlat dasturlarini va boshqa maqsadli dasturlarni amalga oshirishda belgilangan tartibda qatnashish;

madaniy-ijodiy birlashmlar va uyushmalarga kirish, shuningdek qonun hujjalariiga muvofiq xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi. Markaz o'zi bevosita bo'ysunuvida bo'lgan madaniyat bo'yicha viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) bo'limi tomonidan boshqariladi. Madaniyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) bo'limi Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari bilan kelishgan holda Markaz ustavini tasdiqlaydi, Markaz direktorini lavozima tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, Markaz faoliyatining qonun hujjalariiga, Nizom talablariga hamda ustavda qayd etilgan maqsadlar va vazifalarga

muvofigligini nazorat qiladi. Markaz faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish direktor tomonidan amalga oshiriladi. Direktor bilan mehnat shartnomasini madaniyat bo'yicha tuman (shahar) bo'limi tuzadi. Markaz direktori ustavga muvofig va o'z vakolatlari doirasida Markaz nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi, muassasaning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi, Markaz faoliyati natijalari uchun javob beradi.

Markazda maslahat organlari: badiiy kengash, metodik kengash va shu kabilar tashkil etilishi mumkin.

I tipdag'i Markazlar:

- II va III tipdag'i markazlarning muassasalariga tashkiliy-metodik rahbarlik qiluvchi metodik markaz, madaniyat va san'atning tayanch muassasasi hisoblanadilar;

- o'zining xizmat ko'rsatish tegrasiga kiradigan tuman markazi va aholi punktlarida yashovchilar o'rtasida turli ommaviy va madaniy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

- abolinig, ayniqsa yoshlarning ehtiyojidan kelib chiqib to'garaklar, studiyalar, badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini hamda markazlar tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlarni tashkil etish yuzasidan II va III tipdag'i markazlarni metodik qo'llanmalar, shuningdek yangi repertuar to'plamlari bilan ta'minlaydilar;

- O'zbekiston Respublikasining milliy va kasb bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda II va III tipdag'i markazlar kengroq jalg etilishini ta'minlaydilar;

- II va III tipdag'i markazlar bilan birgalikda nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lgan har yilgi tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

- Markaz Nizomda va Markazning ustavida nazarda tutilgan maqsadlar va vazifalaridan kelib chiqib o'z faoliyatini rejalashtiradi va uni rivojlantirish istiqbollarini belgilaydi.

Quyidagilar Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

- budjet mablag'lari;
- Markaz tomonidan tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga chiptalar sotishdan, shu jumladan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishdan va o'zini o'zi qoplaydigan to'garaklar faoliyat ko'rsatishidan olinadigan daromadlar;
- davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan xizmatlar ko'rsatishga shartnomalar bo'yicha tushumlar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehsonlari, homiylik mablag'lari;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingen daromadlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Markazning asosiy faoliyatini amalga oshirish uchun ajratiladigan budjet mablag'laridan boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan byudjet mablag'larini Markaz tomonidan qo'shimcha daromad olish uchun kredit muassasalarining depozit hisob raqamlariga joylashtirish taqiqlanadi.

Tashkil etiladigan markazlar soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Markazni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va aholi dam olish markazi jamiyat a'zolarining badiiy estetik tarbiyasi, ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ijtimoiy subyekt hisoblanadi va mustaqillik sharofati bilan paydo bo'lgan mexanizmdir.

Nazorat uchun savollar:

1. *Madaniyat va aholi dam olish markazi qanday huquqiy asoslarga ega?*
2. *Madaniyat va aholi dam olish markazi qanday funksiyalarni bajaradi?*
3. *Madaniyat va aholi dam olish markazini tiplarga ajratishda qanday mezonlarga tayaniladi?*
4. *Madaniyat va aholi dam olish markazlarining huquqiy maqomi qanday bo'ladi?*
5. *Madaniyat va aholi dam olish markazi faoliyatining moliyaviy manbalari nimalardan iborat?*

MADANIYAT VA AHOI DAM OLİSH MARKAZLARIDA KADRLAR BILAN ISHLASH

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida kadrlar bilan ishslash
2. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida mehnat munosabatlari
3. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida mehnat intizomi va mehnat nizolarini hal etish choralari

Tayanch so‘z va iboralar: *mehnat munosabatlari, mehnat intizomi, Mehnat kodeksi, mehnat shartnomasi ish beruvchilar ish vaqtি o‘rindoshlik asosida ishslash mehnat daftarchasi, ariza, buyruqlar, xizmat safari, xodim, intizomiy jazo, tanaffus, dam olish, ta‘til, kompensatsiya, mehnat haqi, hayfsan*

Madaniyat va aholi dam olish markazida mehnat munosabatlari mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari va Jo‘qorg‘i Kenges qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Hukumatining qarorlari, davlat hokimiyatining boshqa vakillik va ijroiya organlari o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlaridan iboratdir. Mulkchilikning barcha shakldagi korxonalar, tashkilotlarda, shuningdek ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Markaz faoliyatida har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat

qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'rvuchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va uning hududiy organlari bajaradilar.

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjalariiga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilishni quyidagilar amalga oshiradi:

- shunga maxsus vakil qilingan davlat organlari va ularning inspeksiyalari;

- kasaba uyushmalari.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjalariiga rioya etilishini tekshirishni qonunda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat to'g'risidagi qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazorat olib borish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan yoshga yetgan hamda ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslar mehnatga oid munosabatlarning subyektlari bo'lishi mumkin.

Quyidagilar ish beruvchilar bo'lishi mumkin:

- korxonalar, shu jumladan, ularning alohida tarkibiy bo'linmalari o'z rahbarlari timsolida;

- mulkdorlarning o'zi ayni bir vaqtida rahbar bo'lgan xususiy korxonalar;

- 18 yoshga to'lgan ayrim shaxslar qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxs mehnat qilish, erkin ish tanlash, haqqoniy mehnat shartlari asosida ishlash va qonunda belgilangan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Yuqoridagilarga asosan, madaniyat va aholi dam olish markazi o'zining direktori (yoki uning o'rinosarlari) timsolida ish beruvchi bo'lib, ishchi-xodimlari esa xodim bo'lib

hisoblanadilar.

Hozirgi kunda shtatlar jadvali tasdiqlangan va unga ko'ra xodimlar ishga qabul qilingan O'zbekiston fuqarolari o'zlarining Konstitutsion huquqlaridan foydalanib, faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Bu xodimlarning barchasi mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinganlar.

Mehnat kodeksining 16-moddasiga binoan Markaz xodimlari quyidagi asosiy mehnat huquqlaridan foydalanmoqdalar:

- ularga o'z mehnati uchun qonun hujjalarda belgilangan eng kam oylik ish haqidan oz bo'limgan miqdorda maosh to'lanmoqda;
- kuniga 8 soat, haftasiga 40 soatdan iborat ish vaqt o'rnatilgan;
- har haftada 2 kun – shanba, yakshanba kunlari hamda bayram kunlarida dam olmoqdalar;
- har yili tasdiqlangan jadval asosida haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tiliga chiqmoqdalar;
- xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilmoqdalar;
- kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishi bo'yicha 3 ta xodim maxsus o'quv markazida kompyuterni o'rganish kursini tamomladilar;
- navbatdagi mehnat ta'tiliga chiqishlarida davolanib, sog'lig'ini va mehnat qobiliyatini tiklash uchun kasaba uyushmasi bilan tuzilgan jamoa shartnomasiga asosan eng kam ish haqining 2 baravaridan 6 baravarigacha miqdorida moddiy yordam ko'rsatilmoqda;
- ular o'zlarining manfaatlarini ifoda etuvchi kasaba uyushmasiga birlashganlar;
- qonun hujjalarda o'rnatilgan tartibda qariganda, mehnat qibiliyatini yo'qotganda va boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga egadirlar;
- o'zining mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olishga

huquqlari bor;

Ayni paytda esa Markaz rahbariyati ham ish beruvchi sifatida quyidagi asosiy huquqlariga ega:

- korxonani boshqarish va o‘z vakolatlari doirasida mustaqil qarorlar qabul qilish;
- qonun hujjatlariga muvofiq yakka tartibdagi mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;
- mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilgan ishni lozim darajada bajarishni xodimdan talab qilish;
- o‘z manfaatlarini himoyalash uchun boshqa ish beruvchilar bilan birga jamoat birlashmalari tuzish va bunday birlashmalarga a’zo bo‘lish.

Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug‘ullanish har kimning mutlaq huquqidir. Ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo‘lmaslik javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi.

Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo‘yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo‘ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo‘lib hisoblanadilar.

Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo‘sishma holatlar (tanlovdan o‘tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo‘lishi mumkin.

O‘zaro yaqin qarindosh yoki qudaanda bo‘lgan shaxslarning (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo‘ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo‘lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqланади.

Bu qoidadan istisnolar O‘zbekiston Respublikasi Hukumati

tomonidan belgilanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2-sentabrdagi Qonuniga muvofiq, respublikamizdagi barcha korxona, muassasa va tashkilotlarda (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) yozma ravishda mehnat shartnomasi tuzilib kelinmoqda. Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagি 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan mehnat shartnomasining namunasi asosida Markazning ish yurituvchi xodimlari tomonidan mehnat shartnomasi matni ishlab chiqilgan bo'lib, unda ishga qabul qilingan xodimning lavozimi, sinov muddati, tomonlarning majburiyatlari, ish kunining tartibi, mehnatga haq to'lash tartibi, yillik ta'til berish tartibi hamda tomonlarning manzillari aniq ko'rsatilgan holda kamida 2 nusxada tuziladi va tomonlarga saqlash uchun beriladi.

Shuningdek, xodim o'rindoshlik asosida ishslash to'g'risida (basharti bu qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan bo'lsa) mehnat shartnomalari tuzishi mumkin.

Ishga qabul qilish vaqtida talab qilinadigan hujjatlar. Ishga qabul qilishda quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- pasport yoki uning o'mini bosadigan boshqa hujjat, 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar esa – tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma va turar joyidan ma'lumotnomalar;

- mehnat daftarchasi (birinchi marotaba ishga kirayotgan shaxslar bundan mustasno). O'rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar esa mehnat daftarchasi o'miga asosiy ish joyidan olingan ma'lumotnomalar;

- harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar – tegishinchalik harbiy bilet yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma;

- qonun hujjatlariga muvofiq maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega shaxslargina bajarishi mumkin bo'lgan ishlarga kirayotganlar - oliv yoki o'rtalik maxsus o'quv yurtini tamomlaganligi to'g'risidagi diplom yohud mazkur ishni bajarish huquqini beradigan guvohnoma yoki boshqa tegishli hujjatni taqdim etadilar.

Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxsdan qonunda

ko'rsatilmagan hujjatlarni talab qilish ta'qiqlanadi.

Markaz amaliyotida ish beruvchi sifatida kadrlar bilan ishslash sohasida to'plangan tajribaga ko'ra ishga kiruvchi fuqarodan:

- ariza;
- to'ldirilgan so'rovnoma;
- pasporti, ma'lumoti haqidagi diplomi va harbiy biletini nusxalarini;
- yashash joyidan ma'lumotnoma;
- soliq inspeksiyasidan INN;
- 2-ta fotosurat;
- mehnat daftarchasi talab qilinadi.

O'rindoshlik asosida ishga kiruvchilardan mehnat daftarchasi talab qilinmaydi, faqat asosiy ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilishi shart.

Arizasi va mehnat shartnomasi rahbar tomonidan imzolangan kundan fuqaroni tegishli lavozimga ishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqariladi va u ishga qabul qilingan hisoblanadi. Shundan keyin mehnat daftarchasiga tegishli yozuv kiritiladi. Xodim tomonidan taqdim etilgan mazkur hujjatlar papkaga tikilib, uning shaxsiy yig'ma jildi shakllantiriladi.

Mehnat daftarchasi xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjatdir.

Ish beruvchi korxonada 5 kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasini tutishi shart. O'rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno.

Ish beruvchi mehnat daftarchasiga ishga qabul qilish, boshqa doimiy ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni yozishi shart. Xodimning iltimosiga ko'ra mehnat daftarchasiga o'rindoshlik asosida ishlagan va vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrlar haqida yozuvlar kiritiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (sabablari) mehnat daftarchasiga yozilmaydi.

Ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo'ladi.

Muassasa rahbarini ishga qabul qilish korxona mulki

egasining huquqi bo'lib, bu huquqni u bevosita, shuningdek o'zi vakil qilgan organlar orqali yoki korxonani boshqarish huquqi berilgan muassasa kengashi, boshqaruvi yoxud boshqa organlar orqali amalga oshiradi.

Muassasa rahbari korxona mulkdori unga bergan vakolatlar doirasida xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzadi.

Ishga qabul qilish haqidagi buyruq tuzilgan mehnat shartnomasining mazmuniga to'la muvofiq ravishda chiqariladi. Buyruq xodimga ma'lum qilinib, bu haqda buyruq ostiga uning imzosi olinadi.

Markaz tajribasida asosan quyidagi turdag'i buyruqlar chiqariladi:

- kadrlar bo'yicha buyruqlar - ishga qabul qilish, mehnat shartnomasini bekor qilish (ya'ni ishdan bo'shatish), bir lavozimdan boshqa lavozimga o'tkazish, navbatdagi mehnat ta'tili berish to'g'risida chiqariladi. Bunda buyruqning son raqamiga "k" indeksi qo'shib qo'yiladi – masalan, "25k-sonli buyruq";

- ichki buyruqlar – Markazning xizmat doirasiga tegishli ishlar yuzasidan, ya'ni turli tadbirlar o'tkazish, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va xokazo ishlar bo'yicha chiqariladi. Bunda buyruqning son raqamiga indeks qo'shilmaydi – masalan, "25-sonli buyruq";

- xizmat safari buyruqlari – xodimlarni xizmat zarurati bilan, masalan, biron-bir tadbir o'tkazish, joylardagi muassa-salarning faoliyatini o'rghanish, ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish va boshqa rahbariyat topshirig'iga asosan xizmat safariga yuborish to'g'risida chiqariladi. Bunda buyruqning son raqamiga "xs" indeksi qo'shib qo'yiladi – masalan, "25xs-sonli buyruq".

Buyruq blankasi devonxona kompyuterida qoliplangan bo'lib, chap tomonining tepa qismida ifodalangan davlat ramzi ostida "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi 2010 yil " _____" dagi buyruq" deb yozilgan. Har bir buyruq to'g'ridan-to'g'ri kompyuterdag'i qolipda yozib chiqariladi.

Xizmat safariga yuboriladigan xodimlar uchun Markazning

ish yurituvchi xodimlari tomonidan maxsus "Xizmat safari guvohnomasi" ishlab chiqilib, unda xizmat safari manzili, maqsadi, muddati, buyruq soni va sanasi, manzilga kelish va ketishni qayd etish aks ettirilgan bo'lib, alohida xizmat safari natijalari to'g'risidagi ma'lumot uchun ham joy ajratilgan. Bu bilan xizmat safarining samarasi, erishilgan natijalar nazorat qilinadi. Guvohnomaning chapki tepa qismiga burchak shtampi bosilib, chiqish raqami va sanasi qo'yilishi kerak. Rahbar imzosi ustiga korxonaning dumaloq muhri qo'yilib, tasdiqlanadi. Shuningdek, xizmat safari guvohnomasi maxsus jurnalda ro'yxatga olinadi va safarga ketuvchilarga qo'l qo'ydirib beriladi.

Ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan yoki uning ijozati bilan xodimga haqiqatda ishlashga ruxsat etilgan bo'lsa, ishga qabul qilish tegishli ravishda rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmaganligidan qat'iy nazar, ish boshlangan kundan e'tiboran mehnat shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi u imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi. Xodim shartnomada belgilab qo'yilgan kundan boshlab o'zining mehnat vazifalarini bajarishga kirishmog'i lozim.

Mehnat shartnomasi quyidagi maqsadda dastlabki sinov sharti bilan tuzilishi mumkin:

- xodimning topshirilayotgan ishga layoqatligrini tekshirib ko'rish;
- xodim mehnat shartnomasida shartlashilgan ishni davom ettirishning maqsadga muvofiqligi haqida bir qarorga kelishi.

Dastlabki sinovni o'tash haqida mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi lozim. Bunday shartlashuv bo'lmagan taqdirda xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Homilador ayollar, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar, korxona uchun belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga yuborilgan shaxslar ishga qabul qilinganda, shuningdek 6 oygacha muddatga ishga qabul qilish haqida xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzilganda dastlabki sinov belgilanmaydi.

Dastlabki sinov muddati 3 oydan oshib ketishi mumkin emas.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmanan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga kiritilmaydi.

Dastlabki sinov muddati tugagunga qadar har bir taraf ikkinchi tarafni 3 kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir.

Ish beruvchi esa mehnat shartnomasini sinov natijasi qoniqarsiz bo'lgandagina sinov muddatidan oldin bekor qilishi mumkin.

Agar dastlabki sinov muddati tugagunga qadar taraflardan birortasi ham mehnat shartnomasini bekor qilishni talab qilmagan bo'lsa, shartnomaning amal qilishi davom etadi va bundan keyin uni bekor qilishga umumiy asoslarda yo'l qo'yiladi.

Markaz tajribasida ishga kelgan yangi xodimlarga asosan 2 oydan iborat sinov muddati beriladi.

Agar bu muddat ichida tomonlardan hech qanday e'tiroz bildirilmasa, xodim sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan hisoblanadi va mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.

Lekin sinov davrida xodimning malakasi yetarli bo'lmanligi sababli u o'zining kasbiy vazifalarini bajara olmayotgan bo'lsa yoki uning tomonidan mehnat intizomi mutnazam ravishda buzilib kelayotgan bo'lsa va x.k.

-sinov muddati tugagunga qadar 3 kun oldin rabbariyat tomonidan yozma ogohlantirish beriladi va so'ng mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

Mehnat shartnomasi quyidagi sabablarga ko'ra bekor qilinishi mumkin:

1) taraflarning kelishuviga ko'ra. Ushbu asosga binoan mehnat shartnomasining barcha turlari istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin;

2) taraflardan birining tashabbusi bilan;

3) muddatning tugashi bilan;

4) taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmanan holatlarga ko'ra;

5) mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra.

6) yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Mehnatga oid munosabatlarni bekor qilish to'g'risidagi mehnat shartnomasida bu shartnomma ish beruvchi tomonidan korxona rabbari, uning o'rinnbosarlari, bosh buxgalter bilan, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo'limgan taqdirda esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilganda, shuningdek, qonunda yo'l qo'yiladigan hollarda ham nazarda tutilishi mumkin;

Xodim nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham, 2 hafta oldin ish beruvchini yozma ravishda ogohlantirib (ya'ni ishdan bo'shashi haqida ariza yozib berib), shartnomani bekor qilishga haqlidir. Ogohlantirish muddati tugagandan so'ng xodim ishni to'xtatishga haqli. Ish beruvchi esa xodimga mehnat daftarchasini berishi va u bilan hisob-kitob qilishi shart.

Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan mehnat shartnomasi ogohlantirish muddati tugamasdan oldin ham bekor qilinishi mumkin. Ushbu holatda yoki taraflar kelishuvi bo'yicha belgilangan ogohlantirish muddati davomida xodim bergen arizasini qaytarib olishga haqlidir.

Agar ogohlantirish muddati tugagandan keyin xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinmagan va mehnat munosabatlari davom etayotgan bo'lsa, xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi ariza o'z kuchini yo'qotadi, bunday holda mehnat shartnomasini shu arizaga muvofiq bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilish haqidagi ariza:

- u o'z ishini davom ettirishining imkonini yo'qligi bilan bog'liq bo'lsa (o'quv yurtiga qabul qilinganligi, pensiyaga chiqqanligi, saylab qo'yiladigan lavozimga saylanganligi va boshqa hollarda) ish beruvchi mehnat shartnomasini xodim iltimos qilgan muddatda bekor qilishi kerak.

Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham,

muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli bo'lishi shart.

Quyidagi sabablardan birining mavjudligi mehnat shartnomasini bekor qilishning asosli ekanligini bildiradi:

1) texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi;

2) xodimning malakasi yetarli bo'limganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishiga noloyiq bo'lib qolishi;

3) xodimning o'z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi. Avval mehnat vazifalarini buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralar qo'llanilgan kundan e'tiboran 1 yil mobaynida xodim tomonidan takroran intizomga xilof nojo'ya harakat sodir qilinishi mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzish deb hisoblanadi;

4) xodimning o'z mehnat vazifalarini 1 marta qo'pol ravishda buzganligi.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzishlarning ro'yxati:

- ichki mehnat tartibi qoidalari;

- korxona mulkdori bilan korxona rahbari o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi;

- ayrim toifadagi xodimlarga nisbatan qo'llaniladigan intizom haqidagi nizom va ustavlar bilan belgilanadi.

Mehnat vazifalarining buzilishi qo'pol tusda ekanligi yoki emasligi har bir muayyan holda sodir qilingan nojo'ya harakatning og'ir-yengilligiga hamda bunday buzish tufayli kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarga qarab hal etiladi;

5) o'rindoshlik asosida ishlamaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi munosabati bilan, shuningdek mehnat shartlariga ko'ra o'rindoshlik ishi cheklanishi sababli o'rindoshlar

bilan mehnat shartnomasining bekor qilinganligi;

6) korxona rahbari, uning o'rribbosarları, bosh buxgalter bilan, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo'lmagan taqdirda esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi mulkdorning almashishi sababli bekor qilinganligi. Mazkur asos bo'yicha mehnat shartnomasini korxona mulk qilib olingan kundan boshlab 3 oy mobaynida bekor qilishga yo'l qo'yiladi. Xodimning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri, mehnat to'g'risidagi qonunlar hamda boshqa normativ hujjalarda nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan vaqt, uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan boshqa davrlari bu muddatga kiritilmaydi.

Xodim vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik davrida va mehnat to'g'risidagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan davrida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi

Basharti jamoa kelishuvi yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organining oldindan roziligidini olish nazarda tutilgan bo'lsa, shartnomani bunday rozilikni olmay turib bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Mehnat shartnomasi:

- korxona tugatilishi munosabati bilan;
- korxona rahbari bilan tuzilgan shartnomani Mehnat Kodeksning 100-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra;
- ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilingan taqdirda kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining roziligidini olish talab etilmaydi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish masalasi bo'yicha qabul qilgan qarori haqida ish beruvchiga yozma ravishda xabar berishi kerak, bunday xabar mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning yozma taqdimnomasi olingan kun-dan boshlab 10 kunlik muddat ichida ma'lum

qilinadi.

Ish beruvchi kasaba uyushinasi qo'mitasining xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab 1 oydan kechiktirmay mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir.

Intizomiy jazolar ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi.

Intizomiy jazo qo'llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo'ya xatti-harakati uchun jazo qo'llashga to'siq bo'la olmaydi;

Intizomiy jazoni qo'llanishida sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning qay darajada og'ir ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat, xodimning oldingi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi;

Har bir nojo'ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanishi mumkin;

Intizomiy jazo bevosita nojo'ya xatti-harakat aniqlangandan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlangandan boshlab, xodimning kasal yoki ta'tilda bo'lган vaqtini hisobga olmasdan, uzog'i bilan 1 oy ichida qo'llaniladi;

Nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan kundan boshlab 6 oy o'tganidan, moliya xo'jalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijasida aniqlanganda esa — sodir etilgan kundan boshlab 2 yil o'tganidan keyin jazoni qo'llab bo'lmaydi. Jinoiy ish bo'yicha ish yuritilgan davr bu muddatga kirmaydi.

Intizomiy jazo berilgani to'g'risidagi buyruq (farmoyish) yoki qaror xodimiga ma'lum qilinib, tilxat olinadi.

Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq, o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lган vaqt ish vaqt hisoblanadi.

Xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga 40 soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

6 kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati 7 soatdan, 5 kunlik ish haftasida esa 8 soatdan ortib ketmasligi lozim.

Mehnat kodeksiga binoan, Markazda asosiy ishdagi xodimlar

uchun o'rnatilgan ish hafta 5 kunlik ish haftasi hisoblanib, ish kuni 8 soatdan iborat. Soat 13 dan 14 gacha xodimlarga tushlik beriladi.

O'rindoshlik asosida ishga qabul qilingan xodim shtatlar jadvalida belgilangan ish haqining 50 foizi miqdorida (0,5 stavka) oylik maoshiga ishga qabul qilinadi va uning uchun ish vaqtining muddati normal muddatning 50 foizi etib, ya'ni haftasiga 20 soatlik ish vaqt o'rnatiladi. Shu asosda xodim bilan kelishilgan xolda ish jadvali tuziladi va xodimning hafta raobaynida ishga keladigan kunlari belgilanadi.

Ayrim toifadagi xodimlar uchun mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan ish vaqtinining qisqartirilgan muddati belgilanadi.

Bular:

- 7) 18 yoshga to'limgan xodimlar;
- 8) I- va II-guruh nogironi bo'lgan xodimlar;
- 9) noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar;
- 10) alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar;
- 11) 3 yoshga to'limgan bolalari bor, budjet hisobidan moliiyaviy jihatdan ta'minlanadigan korxonalarda ishlayotgan ayollar.

Bayram (ishlamaydigan) kunlari arafasida kundalik ish muddati barcha xodimlar uchun kamida 1 soatga qisqartiriladi.

Soat 22.00 dan to soat 6.00 gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt deb hisoblanadi.

Dam olish vaqt - xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo'lgan va bundan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtadir.

Xodimga ish kuni davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berilishi kerak, bu tanaffus ish vaqtiga kiritilmaydi.

Tanaffus berish vaqt va uning aniq muddati ichki mehnat tartibi qoidalarida yoki xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilab qo'yiladi.

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan ish kuni davomida boshqa tanaffuslar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Barcha xodimlarga dam olish kunlari (har haftalik uzlusiz dam olish) beriladi.

5 kunlik ish haftasida xodimlarga haftada 2 dam olish kuni, 6 kunlik ish haftasida esa 1 dam olish kuni beriladi.

Umumiy dam olish kuni yakshanbadir.

Dam olish kunlarida ishlatish taqiqlanadi. Ish beruvchining buyrug'i bo'yicha ayrim xodimlarni alohida hollardagina kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda, belgilangan tartibda dam olish kunlari ishga jalg etishga yo'l qo'yiladi.

Nogironlar, homilador ayollar, 14 yoshga to'lmagan bolasi (16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayollar, 3 yoshga to'lmaga bolasi bor ayollar tungi vaqtarda, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga ularning roziligi bilangina, basharti ular uchun bunday ishlar tibbiy tavsiyalarda ta'qiqlanmagan bo'lsa yoki ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

18 yoshga to'lmagan shaxslarni tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalg etish ta'qiqlanadi.

Markaz xodimlari uchun (bayram kunlaridan tashqari) shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari etib belgilangan.

Barcha xodimlarga, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga, dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta'tillari beriladi.

Xodimlarga 15 ish kunidan kam bo'lmagan muddat bilan yillik asosiy ta'til beriladi.

Yillik asosiy ta'til birinchi ish yili uchun 6 oy ishlagandan keyin beriladi.

Navbatdagi mehnat ta'tilini berish to'g'risidagi buyruq chiqarishda quyidagilarga e'tibor berish lozim.

Misol uchun, mas'ul xodim 2007-yil 1 aprelda ishga qabul qilindi. Mehnat kodeksining 143-moddasiga ko'ra birinchi ish yili uchun asosiy ta'tilga chiqish huquqiga xodim 6 oy ishlagandan keyin ega bo'ladi. Demak, bu xodim faqat 1-noyabrdan keyin

mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega. Agar u 2009-yil 1-fevralda ta'tilga chiqadigan bo'lsa (ya'ni 12 oy to'imasdan), buyruq matnida "2008 yilning 1-aprelidan 2009-yilning 31 martiga qadar ishslash davri uchun 2009 yil 10-dekabrdan 24 ish kunidan iborat navbatdagi mehnat ta'tili berilsin" deb yozilishi lozim. Keyingi yilda ham buyruqda "2009-yilning 1-aprelidan 2010-yilning 31-martiga qadar ishslash davri uchun..." deb rasmiylashtiriladi. Ya'ni, 12 oy davomida ishlagan davri uchungina 24 ish kunlik ta'til beriladi. Xuddi shunday 6 oy davomida ishlagan davri uchun 12 ish kunlik, 9 oy ishlagan davri uchun 18 ish kunlik ta'til beriladi.

Agarda har yili mehnat ta'tiliga ishga kirgan sanasidan ta'tilga chiqish sanasigacha bir yil o'tgan bo'lsa, unda "2008 yilning 1 aprelidan 2009 yilning 31 martiga qadar ishlagan davri uchun..." deb rasmiylashtiriladi.

Quyidagilarga ularning yoshi va sog'lig'i holatini hisobga olib, yillik uzaytirilgan asosiy ta'til beriladi:

- 12) 18 yoshga to'limgan shaxslarga – 30 kalendar kun;
- 13) ishlayotgan I- va II-guruh nogironlariga – 30 kalendar kun.

Ayrim toifadagi xodimlarga ularning mehnat vazifalarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini hamda boshqa holatlarni e'tiborga olib, qonun hujjatlariga muvofiq uzaytirilgan ta'tillar belgilanadi.

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangandan tashqari, mehnat shartnomasining shartlarida ham uzaytirilgan yillik ta'tillar berish nazarda tutilishi mumkin.

Qo'shimcha beriladigan ta'tillar:

- 14) mehnat sharoiti noqulay va alohida tusga ega bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarga – yillik;
- 15) og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga – eng kam muddati O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilab qo'yiladi va shuningdek, tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalarida ham xodimlarga yillik qo'shimcha ta'til berish nazarda tutilishi mumkin;

16) mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida, mehnat shartnomasining shartlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda beriladi.

Ta’tillarning muddati 6 kunlik ish haftasi yuzasidan tuzilgan kalendor bo‘yicha ish kunlari hisoblab chiqariladi.

Ta’til davriga to‘g‘ri kelib qolgan va Mehnat kodeksning 131-moddasiga muvofiq ishlanmaydigan kunlar deb hisoblanadigan bayram kunlari ta’til muddatini belgilashda hisobga olinmaydi.

Yillik ta’tilning umumiy muddatini hisoblab chiqarishda qo’shimcha ta’tillar yillik asosiy ta’tilga (shu jumladan uzaytirilgan ta’tilga ham) qo’shib jamlanadi.

Barcha hollarda qonun hujjatlari bilan belgilangan ta’tillarni jamlashda ularning umumiy muddati 48 ish kunidan oshib ketishi mumkin emas.

Ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish boshlangan kundan e’tiboran hisoblanadi.

Ta’til quydagi xodimlarga ularning xohishi bo‘yicha 6 oy o’tmasdan oldin beriladi:

17) ayollarga – xomiladorlik va tug‘ish ta’tili oldidan yoki undan keyin;

18) I- va II-guruh nogironlariga;

19) 18 yoshga to‘lmagan shaxslarga;

20) muddatli harbiy xizmatdan zahiraga bo‘shatilgan va ishga joylashgan harbiy xizmatchilarga;

21) o‘rindoshlik asosida ishlayotganlarga – asosiy ish joyida-gi ta’til bilan bir vaqtida, o‘rindoshlik asosida ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda haq to‘lagan holda;

22) ishlab chiqarishdan ajralmagan holda umumiy ta’lim maktablarida, hunar-texnika bilim yurtlarida, oliy va o‘ita-maxsus o‘quv yurtlarida, kadrlarning malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash institutlari va kurslarida o‘qiyotganlarga, agar ular o‘zlarining yillik ta’tillarini imtihonlar, sinovlar (zachyotlar) topshirish, diplom, kurs, laboratoriya va boshqa o‘quv ishlarini bajarish vaqtiga to‘g‘irlab olishni xohlasalar.

Ta'til har yili, ish yili tugagunga qadar berilishi lozim.

18 yoshga to'limgan xodimlarga yillik ta'tilni va yillik qo'shimcha ta'tillarni bermaslik taqiqlanadi.

Yillik asosiy ta'til ikkinchi va undan keyingi ish yillari uchun tuzilgan ta'tillar jadvaliga muvofiq ish yilining istalgan vaqtida beriladi.

Yillik ta'tillarni berish navbati kalendor yil boshlangunga qadar ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi.

Ta'til berish vaqtini haqida xodim ta'til boshlanishidan kamida 15 kun oldin xabardor qilinishi kerak.

Ta'tildan foydalanishning jadvalda belgilangan vaqtini xodim bilan ish beruvchining kelishuviga binoan o'zgartirilishi mumkin.

Xodimlar quyidagi hollarda ta'tilni uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga egadirlar:

- 1) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik dayrida;
- 2) homiladorlik va tug'ish ta'tili muddati boshlanganda;
- 3) yillik ta'til o'quv ta'tiliga to'g'ri kelib qolganda;

4) davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotganda, basharti qonun hujjatlarida bunday vazifalarni bajarish uchun xodim-ni ishdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa.

Xodimning xohishiga ko'ra uning yozma arizasi asosida ta'tilni qismlarga bo'lishga yo'1 qo'yiladi. Bunga ta'tilning bir qismi 12 ish kunidan kam bo'lmasligi lozim.

Ta'tildan chaqirib olishga faqat xodimning roziligi bilan yo'1 qo'yiladi. Shu munosabat bilan ta'tilning foydala-nilmay qolgan qismi xodimga mazkur ish yili davomida boshqa vaqtda berilishi yoki keyingi ish yilining ta'tiliga qo'shib berilishi kerak.

Yillik ta'tillar davri uchun xodimga o'rtacha ish haqidani kam bo'limgan miqdorda haq to'lash kafolatlanadi.

Ta'til uchun haq to'lash jamoa shartnomasida belgilangan muddatlarda, lekin ta'til boshlanmasdan oldingi oxirgi ish kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Shuningdek, xodimlar quyidagi ijtimoiy ta'tillar olish huquqidani foydalanadilar:

- 5) xomiladorlik va tug'ish ta'tillari;

- 6) bolani parvarishlash ta'tillari;
- 7) o'qish bilan bog'liq ta'tillar;
- 8) ijodiy ta'tillar.

Xodimning arizasiga binoan unga ish haqi saqlanmagan holda ta'til berilishi mumkin, uning muddati xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga foydalanilmagan barcha yillik asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiya to'lanadi.

Xodimlarga ish davrida, ularning xohishiga ko'ra, yillik ta'tilning Mehnat kodeksining 134-moddasida belgilangan eng oz muddatidan (15 ish kunidan) ortiqcha qismi uchun pullik kompensatsiya to'lanishi mumkin.

Ijtimoiy ta'tillarning barcha turlaridan, shuningdek qo'shimcha ta'tillardan asli holida foydalaniladi va ularni pullik kompensatsiya bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoa shartnomasida yoki xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimning xohishiga ko'ra yillik asosiy va qo'shimcha ta'tillarni berib, undan keyin mehnat munosabatlарini bekor qilish hollari nazarda tutilishi mumkin. Bu holda ta'til tugagan kun mehnat shartnomasi bekor qilingan kun deb hisoblanadi.

Bu ta'til davrida xodim mehnat shartnomasini uning tashabbusi bilan bekor qilish to'g'risidagi arizasini qaytarib olishga haqli emas.

Mehnat shartnomasi xodimning aybli harakatlari tufayli bekor qilinganda yillik asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tilidan asli holida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, ayollarning ta'tiliga quyidagi qo'shimcha imtiyozlar beriladi.

Xomiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini kamaytirish ta'qilqanadi. Xomilador ayolni yoki 3 yoshga to'limgan bolasi bor ayolni ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda ish beruvchi rad etishning sabablarini ularga yozma ravishda ma'lum qilishi shart. Mazkur shaxslarni ishga qabul qilishni rad etganlik ustidan sudga

shikoyat qilinishi mumkin.

Xomilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik ta'tillar, ularning xohishiga ko'ra, tegishlicha xomiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin yoxud bolani parvarishlash ta'tilidan keyin beriladi.

12 yoshga to'limgan ikki va undan ortiq bolasi yoki 16 yoshga to'limgan nogiron bolasi bor ayollarga har yili 3 ish kunidan kam bo'limgan muddat bilan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi.

12 yoshga to'limgan ikki va undan ortiq bolasi yoki 16 yoshga to'limgan nogiron bolasi bor ayollarga, ularning xohishiga ko'ra, har yili 14 kalender kundan kam bo'limgan muddat bilan ish haqi saqlanmagan holda ta'til beriladi. Bunday ta'til yillik ta'tilga qo'shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgi-lanadigan davrda undan alohida (to'liq yohud qismlarga bo'lib) foydalanishi mumkin.

Ayollarga tuqqanga qadar 70 kalender kun va tuqqandan keyin 56 kalender kun, jami 126 kalender kun, agar tug'ish qiyin kechgan yoki 2 va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda – 70 kalender kun, jami 140 kalender kun muddati bilan xomiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi.

Xomiladorlik va tug'ish ta'tili jamlangan holda hisoblab chiqilib, tug'ishga qadar amalda bunday ta'tilning necha kunidan foydalanilganidan qat'iy nazar ayolga to'liq beriladi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili tugagandan keyin, ayolning xohishiga ko'ra, unga bolasi 2 yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ta'til berilib, bu davrda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nafaqa to'lanadi.

Ayolga, uning xohishiga ko'ra, bolasi 3 yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ish haqi saqlanmaydigan qo'shimcha ta'til ham beriladi.

Bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'tillardan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham to'liq yoki uni qismlarga bo'lib foydalanishlari mumkin.

Ayol yoki yuqorida ko'rsatilgan shaxslar o'z xohishlariga ko'ra, bolani parvarishlash ta'tili davrida to'liq bo'lмаган ish vaqtı rejimida yoki ish beruvchi bilan kelishib, uyda ishslashlari mumkin. Bunda ularning nafaqa olish huquqlari saqlanib qoladi.

Bolani parvarishlash ta'tillari davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta'tillar mehnat stajiga, shu jumladan mutaxassisligi bo'yicha ish stajiga ham qo'shiladi.

Xomilador ayollar va 3 yoshga to'lмаган bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi (korxonaning butunlay tugatilish hollari bundan mustasno, bunday hollarda mehnat shartnomasi ularni albatta ishga joylashtirish shar-ti bilan bekor qilinadi).

Muddati tugaganligi sababli mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham ish beruvchi yuqorida qayd etilgan ayollarni ishga joylashtirishi shart. Ishga joylashtirish davrida bu ayollarning ish haqi saqlanib qoladi, biroq bu muhlat muddatli mehnat shartnomasi tugagan kundan boshlab 3 oydan oshmasligi kerak.

Markazda xozirgi kunda 14 ta ayol ishlar oqida. 3 ta ayol xodimga Mehnat kodeksida belgilangan muddatlarda homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, hozirgi kunda ular 2 yoshga to'lunga qadar bolalarini parvarishlash uchun beriladigan ta'tilga chiqqanlar.

Mehmat haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o'rta-sidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas va uning eng ko'p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi.

Mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar jamoa shartnomalarida, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa lokal hujjatlarda belgilanadi.

Budget hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan korxonalar va tashkilotlarning, shuningdek davlat korxonalarining xodimlari mehnatga haq to'lash shartlarining eng kam darajasi

qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tabiiy iqlim va turmush sharoitlari noqulay bo'lgan joylarda mehnat haqiga rayon koeffitsientlari va ustamalar belgilanadi.

Ish vaqtidan tashqari ishlari, dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlari uchun kamida 2 hissa miqdorida haq to'lanadi. To'lanadigan haqning aniq miqdori jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa – ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib belgilanadi.

Bayram yoki dam olish kunidagi ish xodimning xohishiga ko'ra, boshqa dam olish kuni berish bilan qoplanishi mumkin. Xodimning iltimosiga binoan ish vaqtidan tashqari ish uchun belgilangan ish vaqtidan tashqari bajarilgan ish soatlariga teng keladigan miqdorda otgul berilishi ham mumkin. Bayram yoki dam olish kunidagi ish yoxud ish vaqtidan tashqari bajarilgan ish uchun boshqa dam olish kuni berilgan taqdirda, bunday ishlari uchun kamida 1 hissa miqdorda mehnat haqi to'lanadi.

Bir necha kasbda (lavozimda) ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlari hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'limgan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun, shuningdek o'rindoshlik asosida ish bajarilganida (xodim o'zining asosiy ishini bajarishdan tashqari asosiy ishidan bo'sh vaqtida mehnat shartnomasi asosida boshqa haq to'lanadigan ishni bajarganda), xodimlarning mehnat haqi miqdori mehnat shartnomasining taraflari o'rtaсидаги kelishuvga binoan amalda bajarilgan ish yuzasidan belgilanadi.

Mehnatga haq to'lash muddatlari jamoa shartnomasi yoki boshqa lokal normativ hujjatda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarning ayrim toifalari uchun alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan ish haqi to'lashning boshqa muddatlari belgilab qo'yilishi mumkin.

Haq to'lanadigan kun dam olish kuni yoki bayram kuniga to'g'ri kelib qolsa, mehnat haqi shu kun arafasida to'lanadi.

Xodimlarga ish haqi, odatda, ular ishlayotgan joyda to'lanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, xodimning yozma roziligi bilan,

bunday rozilik bo‘lмаган тақдирда esa – сұннинг қарорига асосан мемлекеттің үшінші қолиниши мүмкін.

Quyidagi hollarda ходимнинг розилигидан қат'иý назар мемлекеттің үшінші қолинады:

1) О‘збекистон Республикасида белгилangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish uchun;

2) sudning қарорлари va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;

3) ish haqi hisobiga berilgan avansni ushlаб qolish uchun;

4) xo‘jalik ehtiyojlariiga, xizmat safarlariga yoki boshqa joydagи ishga o‘tganligi munosabati bilan berilgan bo‘lib, sarf qilinmay qolgan va o‘z vaqtida qaytarilmagan avansni ushlab qolish uchun hamda hisob-kitobdagи xatolar natijasida ortiqcha to‘langan summani qaytarib olish uchun;

5) xodim ta’til olib bo‘lgan ish yili tugamasdan turib мемлекеттің шартномасынан текелескендегі көмек көрсету; – ta’tilning ishlanmagan davriga tegishli kunlari uchun;

6) xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun, agar yetkazilgan zararning miqdori xodimning o‘rtacha oylik ish haqidан ortiq bo‘lmasa.

Ish haqining har gal to‘lash vaqtida ushlab qolnадиган haqning umumiý miqdori xodimga tegishli bo‘lgan мемлекеттің 50 foizidan ortib ketmasligi lozim.

Markazning ish zarurati bilan yoki yuqori tashkilot topshirig‘iga ko‘ra boshqa joylarga borib ishlash lozim bo‘lgan hollarda (quyi tashkilot faoliyatini o‘rganish, biron-bir tadbir o‘tkazish, shikoyat arizasini joyiga borib tekshirish va xokazolar) rahbariyat buyrug‘iga асосан xodim xizmat safariga yuboriladi. Xizmat safariga yuborilgan xodimga quyidagilar to‘lanishi lozim:

- yo‘l kira xarajatlari (yo‘l chiptasiga асосан);

- doimiy turar joyidan boshqa joyda yashash (mehmonxona),

shu jumladan uy-joy ijarasi bilan bog‘liq xarajatlar (kvitansiyalar асосида);

- xodim tomonidan ish beruvchining ruxsati yoki roziligi bilan qilingan boshqa xarajatlar.

Xizmat safariga yuborish тоғ‘risidagi buyruqqa асосан

xodimga "Xizmat safari guvohnomasi" beriladi va bu guvohnoma maxsus jurnalda qayd qilinadi va xodimga imzo qo'ydirib, unga beriladi. Guvohnomada safar manziliga ketgan va undan qaytgan kunlari belgilanadi hamda xodim tomonidan safarda qilingan ishlar natijalari to'g'risida ma'lumot yoziladi.

Yakka mehnat nizolari – bu ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo'llanish yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklardir. Bunday hollarda nizoning xodim manfaatini ifoda etuvchi tarafi bo'lib kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa xodimlarning vakillari organi ishtirok etishi mumkin.

Yakka mehnat nizolari:

- 7) mehnat nizolari komissiyalari tomonidan;
- 8) tuman (shahar) sndlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xodim mehnat nizosini hal qilish uchun o'z xohishiga ko'ra mehnat nizolari komissiyasiga yoki bevosita sudga murojaat etishga haqlidir.

Yakka mehnat nizolarini ko'rib chiqish tartibi Mehnat Kodeksi bilan tartibga solinadi, mehnat nizolariga doir ishlarni tuman (shahar) sndlarda ko'rib chiqish tartibi esa bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi bilan ham belgilanadi.

Mehnat intizomini buzganligi uchun Mehnat kodeksining 181-moddasiga asosan rahbariyat quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

1). hayfsan;

2). o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'limgan miqdorda jarima.

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'limgan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin.

Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish Mehnat kodeksining 164-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3). Mehnat shartnomasini bekor qilish.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va aholi dam olish markazi

faoliyatining samaradorligi va aholining keng qatlamini qamrab olishi bu o‘z navbatida kadrlarning ilmiy-ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, samarali mehnatni rag‘batlantirish mexanizmi ham muvofaqqiyatning kaliti bo‘la oladi. Bu o‘z navbatida madaniyat va aholi dam olish markazining rahbari va xodimlar bilar ishlovchi mas‘ul shaxs faoliyatida namoyon bo‘lishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

- 1. Madaniyat va aholi dam olish markazida kadrlar bilan qanday ish olib boriladi?*
- 2. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida mehnat munosabatlari nima bilan tartibga solinadi?*
- 3. Madaniyat va aholi dam olish markazida xodimlardan qanday me'yoriy hujjatlar talab etiladi?*
- 4. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida mehnat intizomi nima?*
- 5. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida mehnat intizomini buzganlik uchun qanday choralar qo‘llaniladi?*

MADANIYAT VA AHOI DAM OLİSH MARKAZLARINI BEZASH ISHLARI VA MADANIY-MA'RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH USLUBIYATI

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish uslubiyati
2. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari
3. Madaniyat va aholi dam olish markazlarini bezash ishlari

Tayanch so'z va iboralar: repertuar to 'plami, ko 'rgazma, panno, plakat, shior, chaqiriq, afisha, stend, targ 'ibot vositasi, peshtaxta, uslubiyat, tomosha zali, havaskorlik teatr jamoasi, bayramlar, Badiiy Kengash

Aholining o'sib borayotgan madaniy-ma'rifiy ehtiyojini qondirish, ularning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishni tashkil etish borasida olib borilayotgan bu islohotlar madaniyat xodimlari oldiga o'z ishiga yangicha yondashuvni talab etadi. Madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, tadbirlar o'tkazish kabi markazlarni badiiy bezatishga ham alohida e'tibor berish markaz ish faoliyatini belgilashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarini badiiy bezatar ekanmiz, u insonlarga nafaqat estetik zavq bag'ishlashi, ba'ki targ 'ibot vositasi ham ekanligini nazardan qochirmaslik kerak. Xonalarni badiiy bezatish orqali O'zbekistonning Mustaqillik davrida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda erishgan yutuqlarini keng targ 'ib qilish, yurtimiz tarixi, unda yetishib chiqqan mashhur kishilar, Shahar va tuman markazlarida I, II va III tipdagi markazlar, qishloq joylarda esa, faqat II va III tipdagи markazlar tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, tegishli vazirlik va tashkilotlarga Madaniyat va aholi dam olish markazlari rahbarlari va ijodiy hodimlarining lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish va tasdiqlash, to'garak ishlarning har bir turi bo'yicha yangi, zamонавиј о'кув дастурларини ishlab chiqish va amaliyotga joriy

etish, to'garaklar, studiyalar havaskorlik birlashmalari badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha yangi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, Madaniyat va aholi dam olish markazlari uchun yangi repertuar to'plamlari ishlab chiqish va ular bilan ta'minlash, zamонавиј axborot resurslari hamda davriy matbuot nashrlari bilan ta'minlash vazifalari belgilab qo'yilgan.

Aholining o'sib borayotgan madaniy-ma'rifiy ehtiyojini qondirish, ularning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishni tashkil etish borasida olib borilayotgan bu islohotlar madaniyat xodimlari oldiga o'z ishiga yangicha yondashuvni talab etadi. Madaniy- ma'rifiy ishlarni tashkil etish, tadbirlar o'tkazish kabi Markazlarni badiiy bezatishga ham alohida e'tibor berish markaz ish faoliyatini belgilashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarini badiiy bezatar ekanmiz, u insonlarga nafaqat estetik zavq bag'ishlashi, balki targ'ibot vositasi ham ekanligini nazardan qochirmaslik kerak. Xonalarni badiiy bezatish orqali O'zbekistonning

Mustaqillik davrida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda erishgan yutuqlarini keng targ'ib qilish, yurtimiz tarixi, unda yetishib chiqqan mashhur kishilar, joylashtiriladi. Joylashtirilayotgan ko'rgazma ikki yoki undan ortiq bo'lib, bir qatorga joylashsa, ko'rgazmalar orasidagi masofa devorgacha bo'lган masofaga nisbatan yaqinroq bo'ladi.

Ko'rgazmalar turli mavzu va hajmda bo'lsa, turlarga (bloklarga) bo'lib joylashtiriladi. Ya'ni bir mavzudagi ko'rgazmalar bilan boshqa mavzudagi ko'rgazmalar orasi sezilarli darajada ajratib joylashtiriladi.

Ko'rgazmalarning pastki qismi yerga nisbatan bir xil tekislikda bo'lishi talab etiladi. Lekin ko'rgazmalarimiz, yuqorida aytganimizdek, turli hajmda va ular orasidagi farq keskin ko'zga tashlanadigan bo'lsa, markazga nisbatan joylashtiriladi.

Ko'rgazmalar ikki yoki undan ortiq qator qilib joylashtiriladigan hollarda pastki va yuqori qavatdagi ko'rgazma vositalari bir xil hajmda bo'lib, ularning soni teng ikkiga bo'linadigan bo'lsa, pastki va yuqori qavatdagi ko'rgazma

vositalari o'zaro simmetrik joylashtiriladi. Shuningdek, ko'rgazma konsepsiyasidan kelib chiqib ko'rgazma vositalarini assemmitrik joylashtirish hollari xam uchrab turadi.

Ko'rgazma vositalarining hajmi turlicha bo'lsa, pastki qatorga hajmi katta ko'rgazma vositalarini joylashtirish lozim. Pastki va yuqori qavatdagi ko'rgazma vositalari soni teng ikkiga bo'linmasa, pastki qavatga yuqoridagidan ko'ra ko'proq ko'rgazma vositasi joylashtirish tavsiya etiladi. Ko'rgazma vositalarida insonlarning suratlaridan foydalanilsa, suratda aks etgan insonning nigohi markazga qaragan bo'lishiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Ko'rgazmaning o'ng tarafidagi tasvirlangan insonning nigohi chap tarafga, chap tarafda tasvirlangan insonning nigohi o'ng tarafga qaragan bo'lishi kerak.

Ko'rgazma tayyorlanayotganida unda foydalanadigan ranglarga ham e'tibor berish kerak. Barcha ranglar o'zining insonlarga ta'siri, his qilinishiga qarab og'ir va yengil hamda issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Og'ir ranglarga to'q va qora ranglar, yengil ranglarga esa, och va oq ranglar kiradi. Issiq va sovuq ranglarga keladigan bo'lsak, issiq ranglarga olovni, quyoshni eslatuvchi ranglar: qizil, sariq, jigarrang va ulardan hosil bo'ladigan ranglar kiradi. Sovuq ranglarga qorni, muzni eslatuvchi ranglar: ko'k, yashil, oq va ulardan hosil bo'ladigan ranglar kiradi. Issiq ranglar yaqinlashtirib, sovuq ranglar uzoqlashtirib ko'rsatish xususiyatiga ega. Xonaga tushayotgan yorug'lik va undagi ranglar insonlarning hissiyoti va kayfiyatini yaxshilash hamda tez charchashning oldini olish xususiyatiga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ko'rgazma vositalariga rang tanlanayotganida xonaga tabiiy yorug'lik tushish darajasiga ham e'tibor qaratish kerak. Derazasi shimol, shimoliy-sharq yoki shimoliy-g'arb tomonlarga qaragan binolarga quyosh nuri bevosita tushmaganligi sababli xonaning yorug'lik darajasi past bo'ladi.

Bunday xonaga iliq ranglar bilan ishlangan ko'rgazma vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Derazasi janub, janubiy-sharq va janubiy-g'arb tomonlarga qaragan binolarga quyosh nuri tushishi sababli, bunday xonalarga sovuq ranglar bilan ishlangan

ko'rgazma vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Badiiy bezatishda ko'rgazmali targ'ibot vositasining panno, plakat, shior, chaqiriq, afisha, stend, burchak, hurmat taxtasi, fotoalbom, foto - ko'rgazma, fotostend, fotovitrina kabi shakllari mavjud.

Panno – maxsus joyga mo'ljallab ishlangan mahobatli rangtasvir yoki bo'rtma tasvir tushunchasidagi panno bilan bir qatorda bu so'zdan bugungi kunda ko'rgazmali targ'ibot vositasi shakllari sifatida ham foydalanilmoqda. Pannolar, asosan, katta hajmlardagi bannerlarga ishlanib, markaziy ko'chalar, bozorlar, bekatlar va odamlar gavjum bo'ladigan hamda ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan sahna yoki maydonlarga o'rnatiladi. Unda hayotimizda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar, yurtimizda olib borilayotgan buniyodkorlik ishlari, yoshlarga berilayotgan e'tibor va uning natijasi o'laroq yoshlarimizning dunyo miqyosida erishayotgan yutuqlari, kabi ijobiy holatlар bilan bir qatorda odam savdosi, terrorizm, giyohvandlik kabi illatlarni qoralovchi targ'ibot ishlarini amalga oshiruvchi vosita sifatida foydalanilmoqda.

Mavzuni yoritishda foto, matn, jadval va diagrammalardan foydalaniladi.

Stend – ko'rgazmali targ'ibot vositasining bu turida mavsum va mazmun o'zgarishini hisobga olish imkoniyati keng. Stendlardagi ma'lumotlar tez-tez o'zgarib turishi uchun qulay qilib yasaladi. Stend uchun, asosan, fanerdan foydalaniladi. Hujjatlarni joylashtirish uchun maxsus oynavand katakchalar yasaladi. Madaniyat muassasalarida o'tkaziladigan tadbirlarga oid hujjatlar shu katakchalarga joylashtiriladi. Madaniyat xodimlari yoki tadbirga aloqador shaxslar lozim topganlarida ushbu stenddagи materiallardan foydalanadilar. Vaqt kelib boshqa tadbir o'tkaziladigan bo'lsa, stenddagи hujjatlar tadbir mavzusiga oid hujjatlarga almashtiriladi. "Mohir qo'llar", "Bizning yutuqlarimiz" deb nomlangan stendlar ham keng tarqalgan bo'lib, unda tikish-bichish, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi to'garagi a'zolari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar namoyish etiladi. Bunday stendlar reykalardan yasaladi.

Plakat – grafika turi; katta varaqqa ishlanadigan tasviriy san'at

asari. Qisqa matn ilova qilinadi. Tashviqot, reklama, informatsiya va o‘quv-ta’lim maqsadlariga xizmat qiladi. Zamонaviy plakatlar, odatda, rassom yaratgan asl nusxadan bosmaxonada ko‘paytiriladi. Ular olisdan ko‘zga yaqqol tashlanishi, o‘ta ta’sirchanligi, ommabopligi, tasvirning kinoyaga boyligi, hammabop ramzlar ishlatilishi, turli shakldagi hajmlarni qiyoslash, umumlashgan tasviriy shakllardan foydalanish kabi o‘ziga xos badiiy vositalari bilan boshqa axborot manbalaridan farq qiladi.

Bunda shrift va matnning joylashishi, shartli ranglar (yorqin bezaklar) qo‘llanishi muhim rol o‘ynaydi. Tasviriy vosita sifatida ba’zan fotografiya (mustaqil tarzda yoki rasm, rangtasvir bilan) ishlatiladi. Plakat mavzusi keng bo‘lib, kundalik turmush yangiliklarini, uning yutuq va kamchiliklari, xalqaro hayotda sodir bo‘layotgan muhim voqeя va hodisalarini aks ettiradi va ular maishiy, siyosiy yo‘nalishda, realistik yoki satirik uslubda ishlanishi mumkin. Plakat o‘z mazmuni va maqsad-vazifalariga qarab siyosiy, maishiy, hajviy plakatlarga, shuningdek, instruktiv plakatlarga ajraladi.

Shior – bosh g‘oya, masala yoki siyosiy talabni ifodalovchi qisqa shaklda bayon qilingan chaqiriq. Tadbirlarning mazmuni va unda qatnashadigan auditoriyadan kelib chiqib, shior tanlanadi. Shiorlar tadbirning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shiordan nafaqat tadbirlarda, balki bino foyesi, koridor va to‘garak xonalarida ham foydalaniladi. Shuningdek, bu maqsad uchun aforizmlardan (hikmatli so‘zlardan) foydalanish ham yuqori samara beradi.

Afisha – spektakl, konsert va boshqa adabiy tadbirlar, tomoshalar haqida maxsus e‘lon. Madaniyat va aholi dam olish markazi, ko‘chalar, maydonlardagi maxsus taxtalarga, tadbir mavzusiga qarab ijtimoiy obyektlarga yopishtiriladi. Afisha iborasi birinchi bor 1934 yilda Amerikada teatr va kino san’ati repertuarini reklamalariga nisbatan ishlatilgan.

Hurmat taxtasi-ishlab chiqarish ilg‘orlarining nomlari va suratlari namoyish qilinadigan maxsus taxta. U yerga hududdan yetishib chiqqan fan, san’at va adabiyot namoyandalarining hayoti

va faoliyati haqida ham ma'lumotlar berish maqsadga muvofiq. Hurmat taxtalarini hududdan yoki mazmunidan kelib chiqib nomlash hollari ham uchraydi.

Burchak – biror sohaga oid hujjatlar yig'indisi uchun ajratilgan joy (javon, stol yoki stend) bo'lib, unda sohaga oid buyruqlar, reja, dastur va hisobotlar, matbuotda yoritilgan materiallar aks etadi. "Axborot burchagi", "Kasaba uyushmasi burchagi", "Havaskorlik to'garaklari burchagi", "Yosh mutaxassislar uchun", "Madaniyat xodimlariga yordam", "Madaniyat yangiliklari" kabi mavzulardagi burchaklardan o'rinn olgan hujjatlar o'quvchiga atroflicha ma'lumot beradi. Xona ajratish imkonи bo'lmagan II-III tipdagi madaniyat va aholi dam olish markazlarida "Ma'naviyat-ma'rifat burchagi", "Uslubiyat burchagi" ma'lumotlaridan foydalaniladi. Shuningdek, yangi tashkil etilgan zamонавиј madaniyat va aholi dam olish markazlarida Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli qarori, 2010 yil 29 dekabrdagi "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 322-sonli hamda 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamонавиј madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 178-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar aks etgan burchaklar tashkil etish maqsadga muvofiq.

MADANIYAT VA AHOLI DAM OLİSH MARKAZINI BEZATISH

Markaz hovlisida tadbirlarda davlat bayrog'ini ko'tarish uchun flagshtok o'rnatiladi. Shuningdek, markazda faoliyat olib borayotgan to'garaklar haqidagi ma'lumotlar, tadbirlarning afishasi va e'lonlar ilib qo'yish uchun 1 dona 1,5 x 3 hajmdagi shior, hikmatli so'zlar va maqollar aks etgan banner va pannolar uchun bir nechta 1,5 x 1 metr hajmdagi moslama (shchit) bo'lishi

maqsadga muvofiq.

Bino peshtoqidagi bannerga “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asaridan olingan “Xalqimizning ma’naviy olamiga singib ketgan mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmatli bo‘lish – buyuk qadriyatlarimizning amaliy ifodasi”, “Tarix sinovlaridan o’tgan qadriyatlarimizga sodiq bo‘lsak, hayat tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo‘lgan qarashlar o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi”, “Ma’naviy mezonlar, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagan ajdodlarimiz hayoti biz uchun ibratdir” kabi qaydlar, e’lon qilingan yil nomi yozib qo‘yiladi. Markaz binosi eshigining o‘ng tarafiga muassasa peshtaxtasi, chap tarafiga ish vaqtি yoziladi.

Foye – binoning asosiy xonalaridan bo‘lib, tadbirga keluvchilar tomosha zaliga asosan shu yerdan o‘tadilar, tadbir boshlanguncha yoki tanaffus vaqtida shu yerda bo‘ladilar. Demak, markazga keluvchilarga axborot berish uchun eng qulay joy foye.

Foyeda davlat ramzlari, O‘zbekiston Respublikasining xaritasi va viloyatlar nomi ifodalangan banner, Markaz haqidagi ma’lumot, tuman ko‘rsatkichlari, markazning asosiy ko‘rsatkichlari aks etgan diagrammalar, madaniy-ma’rifiy hamda ijtimoiy obyektlar dislokatsiyasi va ularning tumanda joylashuv sxema-kartasi, markazda faoliyat olib borayotgan badiiy havaskorlik jamoalari, kasaba uyushmasi faoliyatiga oid pannolar, yong‘in yoki favqulodda vaziyatlarda odamlarni evakuatsiya qilish (“Xavfsizlikni ta’minalash va favqulodda vaziyatlarning oldini olish”) rejasи, markaz faoliyati haqida hikoya qiluvchi stendlar bo‘ladi. Davlatchiligimiz tarixining qaysi bir davrini olib qaramaylik, Vatan timsollari aziz va muqaddas sanalgan. Har bir davrda ham davlat ramzlari, timsollari shunchaki siyosatni amalga oshirish vositasi bo‘libgina qolmay, balki juda katta ijtimoiy-ma’naviy ahamiyat kasb etgan.

Xalqimizning mustaqil va mustahkam davlat barpo etish g‘oyasi, salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, eng avvalo, davlat ramzlari va timsollarida o‘z ifodasini topgan. Ajdodlarimiz ham ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayatida ramzlar va timsollar juda e’zozlangan. Xonalarni yoki binolarning ichki

qismida Davlat ramzlarini o'rnatayotganimizda har doim old qismida o'rnatish maqsadga muvofiq. Davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi bilan jihozlashda har doim ramziy tasnif bilan birga berish juda katta samara beradi. Shuningdek, foye devorlari rangini to'g'ri tanlash ham undagi shinamlikni ta'minlovchi eng asosiy omillardan biridir. Ayni paytda, foye tashqi muhit bilan bog'lanishini nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Uning intereridagi ayrim elementlar binodan tashqaridagi muhiqni bevosita ifodalab turishi mumkin. Foyeda joy yetarli bo'lsa, uning odamlar harakatiga xalaqit bermaydigan qismida yashil burchak yoki jonli burchak tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Foyeni dekorativ g'isht va toshlar bilan jihozlab, u yerda turli xildagi dekorativ o'simliklarni o'stirish, kataklarda qushlar, akvariumda baliqlarni parvarishlash mumkin.

Koridor – bu yo'lakda markaz ma'muriyat, uslubiyat, ma'naviyat va ma'rifat, hamda to'garak xonalari joylashgan bo'ladi. Markaz rahbari qabulxonasi eshigi oldida vazirlik, boshqarma va bo'lim rahbarlarining qabul kunlari yozilgan lavha o'rnatiladi. Uslubiyat, ma'naviyat va ma'rifat hamda to'garak xonalari qarshisiga markaz pasporti, buyruqlar va e'lonlar, axborotnama stendlari, to'garak va studiyalarning mashg'ulot o'tish jadvali, markazning tasdiqlangan shtatlar jadvali, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli qarori, 2010-yil 29-dekabrdagi "2011-2015-yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 322-sonli hamda 2013-yil 25-iyundagi "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 178-sonli qarorlari ijrosi aks etgan ko'rgazmali targ'ibot vositalari joylashtiriladi.

Uslubiyat xonasi – xonaning markaziy devoriga madaniy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari, klub ishining shakllari hamda vositalari yozilgan panno o'rnatiladi. "Metodik

qo'llanmalar”, “Klub muassasalarining ish tajribalari” mavzularidagi stendlar hamda madaniyat va aholi dam olish markazining xizmat ko'rsatish hududi (karta-sxema), tumandagi II va III tipdagи madaniyat va aholi dam olish markazlari dislokatsiyasi kiraverish tomonga o'rnatiladi. Xonadagi javonlardan biriga to'garaklarga amaliy yordam ko'rsatish burchagi, Madaniyat va dam olish markazining oylik, yillik ish rejali, tadbirlar ssenariylari, yozma va statistik hisobotlar papkalari joylashtiriladi. Yana bir javondan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis sessiyasi, Prezident va hukumatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, mafkura va madaniyat masalalariga oid chiqargan qonunlari, qarorlari va Farmonlari jildi, turli mavzularda ma'ruzalar, subbatlar va ma'ruza turkumlarining mavzular jildi, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, “Kitob dunyosi”, “Xalq so'zi” gazetalari, “Teatr”, “San'at”, “Guliston” va boshqa jurnallarda chop etilgan materiallar kartotekasi joy oladi. Javon yonidagi stolga madaniy-ma'rifiy ishlар, badiiy havaskorlik jamoalarining ish tajribalari yoritilgan adabiyotlar, teatr repertuarlari, konserт dasturlari, taklifnomalar, afishalar, tavsiyanomalar, axborotlar, badiiy havaskorlik to'garaklari va jamoalari faoliyatini yorituvchi fotoalbum va bukletlar, turli ko'rik-tanlov va konkurslarda qo'lga kiritilgan diplom va faxriy yorliqlar ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Xonaning ko'rinarli joyiga “E'lонlar taxtasi” o'rnatilib, unda jamoatchilik asosida tuzilgan Markaz Kengashi va Faollar guruhining ro'yxati, ularning navbatchilik jadvali, markaz faoliyatiga oid turli xabar va yangiliklar aks etib turadi.

Ma'naviyat va ma'rifat xonasi

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatlarini shakllantirish, yon atrofda yuz berayotgan voqeа larga daxldorlik hissini oshirish, ommani mamlakatimizda ro'y berayotgan kundalik voqealar bilan tanishtirib borish, yoshlarimizda

xalqimizning boy milliy, ma'naviy, tarixiy an'analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlaridan bahramand etish kabi vazifalar aynan "Ma'naviyat xonasi"ning doimiy ish rejasiga aylanmog'i zarur. Ma'naviyat xonasining old qismi eng yuqorisiga:

"Ma'naviyat – insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi", "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat", "Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi" kabi shiorlar yoziladi. Mazkur yozuvlarning yuqoridan chap qismida O'zbekiston davlatining rangli siyosiy xaritasi joylashtiriladi.

Xaritaning pastki qismida quyidagilar yoziladi:

Davlat tuzumi – Respublika

Qonun chiqaruvchi oliy organ – Oliy Majlis

Parlamentimiz – Senat va Qonunchilik palatasidan iborat

Ma'muriy va hududiy tuzilishi – Qoraqalpog'iston

Respublikasi, Toshkent shahri, 12 viloyatdan iborat

Hududi – 447,4 ming kv.km.

Poytaxti – Toshkent shahri

Xarita yonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining portreti hamda tarjimai holi beriladi.

"Ma'naviyat xona"sinи jihozlashda quyidagi mazmunda bo'limlarga bo'lish maqsadga muvofiq:

"Prezident asarlari – ma'naviyat durdonalari".

Bu bo'limdan Prezidentning mustaqillik, ma'naviy- ma'rifiy islohotlarga oid asarlari, maqolalari, nutqlari shior, chaqiriq, hikmatlar to'plamlari o'rinni oladi.

"Qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir". Bu bo'limdan O'zbekiston Respublikasi Davlat dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga oid farmonlar, farmoyishlar, Qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari o'rinni oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagи "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlар samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-451-sonli qarori

hamda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martdagи “Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparstlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 130-sonli qarori asosida tashkil etilgan ishlar haqida xikoya qiluvchi pannolar o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya faoliyatini takomillashtirish haqida”gi 360-sonli qarori doirasida o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik, huquqbazarlik, giyohvandlik, daydilik hamda yo'l-transport hodisalari kabi holatlarga qarshi kurash borasida olib borilayotgan tarbiyaviy-huquqiy-profilaktik ishlar ahvoli haqida stend, nashriyotlar tomonidan chop etilgan Mustaqillik davrida qad ko'targan inshootlar, madaniy-ma'rifiy binolarning tasviri aks etgan, qayta tiklangan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz va ma'naviy merosimizga oid hamda umumxalq bayramlarini ifodalovchi plakatlar bo'lishi maqsadga muvofiq.

“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” deb nomlangan pannoda “Mustaqil o'zbek davlati – xalqimizning tarixiy yutug' idir” mavzusidagi maqola, siyosiy-huquqiy qadriyatlarimiz, mamlakatimiz Konstitutsiyasini ifodalovchi lavhalar joy oladi.

“Tilga e'tibor-elga e'tibor” deb nomlangan stendga O'zbekiston Respublikasi “Davlat tili to'g'risida”gi Qonuni, Til bayrami tadbirlari ssenariylari, chiqarilgan maqolalar, risolalar, tadbirlardan olingan fotolavhalar joylashtiriladi.

Shuningdek, “Mustaqillik odimlari” (tarix solnomasi), “O'zbekiston va Hamdo'stlik davlatlari”, “O'zbekiston Qurolli Kuchlari”, “Mustaqillik davrida erishilgan yutuqlar, milliy mafkura, ma'naviyat, ekologiya, iqtisod, huquqiy tarbiya masalalari”, “Ogohlilik va hushyorlikka da'vat”, “Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik – asr vabosi” mavzularidagi ko'rgazmali targ'ibot vositalaridan foydalanish mumkin.

“Ajdodlar merosi” bo'limida buyuk muhaddis olimlar– Imom Buxoriy, Imom Termiziy hamda buyuk mutasavvuf shayxlar – Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband nomlari va ularning bebafo merosi

bitilgan bitiklarni yozish, "Vatanni sevmoq iymondandir", "Beshikdan qabrgacha ilm izla" kabi hadislardan namunalar, "Diling Ollohdha, qo'ling mehnatda bo'lsin" singari hikmatlar, buyuk ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan eng qadimiy yozma ma'naviy merosimiz bo'lган "Avesto" va uning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati ifodalangan stend, "Turkiy qavmlar ma'naviyati" rukni ostida Shiroq, To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdilarning Vatan ozodligi yo'lidagi qahramonliklaridan lavha va namunalar aks ettirilgan suratlardan foydalanish tavsiya etiladi.

"Qomusiy ma'rifat yog'dusi" bo'limida butun bashariyatga daxldor, O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalar Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning hayoti haqida hikoya qiluvchi plakatlar aks etadi. Shuningdek, ma'rifatparvar, milliy istiqlol g'oyalarini ilgari surgan, kuylagan ulug' allomalar, shoir va yozuvchilar portretlari, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Cho'lpon, Fitrat kabilarning asarlardan namunalar hamda zamonomiz qahramonlari portretlari va ularning vatanimiz taraqqiyotiga qo'shgan hissalari haqida qisqacha ma'lumotlar berish lozim.

Tomosha zali-Sahnaga Mustaqillik yillarda olib borilgan bunyodkorlik ishlari aks etgan banner, sahna peshtoqiga esa san'atning ahamiyati haqidagi shior o'rnatiladi. Tomosha zalining har ikkala tarafiga Respublika, viloyat hamda hududdagi havaskorlik san'ati rivoji aks ettirilgan pannolar o'rnatiladi. Shuningdek, tomosha zali devorlarini mahalliy rassomlar ijodlari mahsuli bo'lган tasviriy san'at asarlari bilan bezash ham tadbirga kelganlarning ruhini ko'tarishga xizmat qiladi.

To'garak xonalarini badiiy bezatish-to'garak xonalari gigienik talablarga javob beradigan, shinam, toza, ozoda, yorug', tarqatma va ko'rgazma qurollarni joylashtirish uchun qulay, bezash uchun imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi kerak. Shu bois, to'garak xonalarini bezash ma'lum talablar asosida amalga oshiriladi. Hukumatimizning qaror va hujjalarni muntazam

o'rganib borish va ish faoliyatiga tatbiq etish uchun "Islohotlar hayotga", "Uslubiyat burchagi" nomli stendlarning tashkil etilishi ham maqsadga muvofiq bo'ldi.

To'garak a'zolarida ona Vatanga, xalqiga bo'lgan sadoqatni shakkllantirish, milliy qadriyatlarni va an'analarimizga muhabbatni oshirish maqsadida xona devorida ma'naviyat-ma'rifatga doir hikmatli so'zlar, to'garak tarixi, "Usta-shogird" an'anasi haqida ma'lumot bo'lishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, barcha to'garaklar yo'nali shiga qarab shiorlar, da'vatlar, fotostendlar, to'garak a'zolarining faoliyati, yutuq va muvaffaqiyatlarini aks ettiruvchi fotolavhalar, to'garak ishlarini muvofiqlashtiruvchi ish hujjatlarini joylashtirish stendi, (to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish jadvali, to'garak a'zolarining ro'yxati, to'garak rahbarining o'tkazishi lozim bo'lgan tadbirdar ro'yxati, uslubiy qo'llanmalar, tavsiyalar, sohadagi yangiliklar) to'garak a'zolarining qo'nga kiritgan yutuqlari aks ettirilgan fotostendlar bo'lishi zarur.

To'garak xonasida to'garak a'zolarining o'z qo'llari bilan yaratgan qo'l mehnati namunalari, yaratgan ixtirochilik asarlari, yasagan eng yaxshi buyumlari namunalaridan tashkil topgan kichik ko'rgazma ham o'rin olishi mumkin.

Musiqa, Ashula va raqs, Xalq ijodiyoti hamda Milliy cholg'usablari to'garagi mashg'ulot xonalarini bezatish. "O'zbek bastakorlari" mavzusidagi plakat xonanining to'riga, doska tepasiga o'rnatiladi. Uning qarama-qarshi tomonidagi devorga to'garak a'zolarining konsert, konkurs va tadbirdardagi ishtiropki aks etgan fotostend, to'garak a'zolarining musiqa savodxonligini oshirish maqsadida ishlangan pannolar, to'garak faoliyati bilan bog'liq yangiliklar, metodik tavsiyalar, to'garak a'zolari ro'yxati va to'garak repertuar plani joylashtirilgan stend o'rnatiladi. Shuningdek, bu yerga faylasuf va mashhur insonlarning misiqani inson hayotida tutgan o'rni haqidagi bildirgan fikrlari ham yozib qo'yiladi.

Havaskorlik teatr jamoasi xonasi va Tomosha san'ati-mashg'ulot xonasini bezatishda Juhon va o'zbek teatri rivojiga hissa qo'shgan teatr aktyorlari hamda tomosha san'ati

namoyandalari fotolari aks etgan plakatlardan foydalaniladi. Bu xonalarda ham to‘garak a’zolarining konser, konkurs va tadbirlardagi ishtiroki aks etgan fotostend, to‘garak faoliyati bilan bog‘liq yangiliklar, metodik tavsiyalar, to‘garak a’zolari ro‘yxati ya to‘garak repertuar plani joylashtirilgan stend, to‘garak a’zolariga sahna harakati, aktyorlik mahorati haqida ma’lumot beruvchi ko‘rgazma vositalari o‘rnataladi.

Raqs to‘garagi-mashg‘ulot xonasini badiiy bezatar ekanmiz, bu xonani o‘zbek raqs san’ati rivojiga o‘zining katta hissasini qo‘shtigan Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboeva, Galiya Izmaylova, Usta Olim Komilov, Qunduz Mirkarimova, Isohor Oqilov, Yulduz Ismatova kabi ulug‘ san’atkorlar suratlari aks etgan plakatlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Shuningdek, bu xonada raqs harakatlari, Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent raqs maktablari haqida hikoya qiluvchi pannolar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Madaniy – ma’rifiy soha xodimlarining hozirgi kundagi vazifalari.

Madaniy – ma’rifiy soha xodimlari O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini izchil mustahkamlab borish yo‘lida shijoat va qat’iylik bilan o‘zlarining amaliy faoliyatlarini quyidagi yo‘nalishlarga qaratishsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasi, Prezidentimizning joriy yilda va kelgusi davrda oldimizda turgan muammolarni amaliy hal etishning muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib bergen dasturiy Farmon, Qaror, Qonunlari va yo‘riqnomalarini aholi o‘rtasida muttasil tushuntirib borish;

- Madaniy – ma’rifiy muassasalarni xo‘jalik yuritishning yangi sharoitlariga o‘tkazish va uning afzalligini targ‘ib qilish;

- Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning turli xil shakllarini har tomonlama rivojlantirish;

- Ommani demokratik ruhda tarbiyalash maqsadida Madaniyat va aholi dam olish markazi ishining rang – barang shakllari va usullarini takomillashtirib borish, yangilarini ijod

qilish va ularni hayotga tadbiq etish;

- Qadriyatlar va milliy madaniyatga xos bo'lgan ibratli insoniy fazilatlarni keng ommalashtirish;
- Madaniy – ma'rifiy muassasalarining ilg'or ish tajribalarini o'rganish va keng targ'ib etish;
- Yoshlarda o'z mustaqil Vataniga bo'lgan mehr – muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash;
- O'zbek milliy xalq ijodiyotining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini qayta tiklash va qaror toptirish;
- Milliy tariximiz, madaniyatimiz, madaniy va nomoddiy merosimizni rivojlantirish yo'lini chuqur o'rganish va uni keng targ'ib qilish maqsadida turli ommaviy tadbirlar tashkil etish;
- Aholining dam olish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni uyshtirish va takomillashtirish;
- Ommaviy xalq bayramlari va sayllarini muntazam ravishda tashkil etib borish, yangilarini hayotga tadbiq etish va ularning rang–barang bo'lishligini ta'minlash;
- Badiiy havaskorlik jamoalari, to'garaklar va xalq ijodiyotining barcha turlari, qiziquvchilar klubi va havaskorlar uyushmasining faoliyatini jonlashtirish, ularda olib boriladigan o'quv tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish;
- Unutilgan milliy urf – odatlar, udumlar va marosimlarni tiklash, ularni zamon ruhi bilan boyitib, istiqbol yo'lini belgilash;
- Madaniy – ma'rifiy muassasalarining ichki va tashqi tomonlarini zamon talabiga moslab ko'rgazmali quollar bilan bezashga e'tibor berish;
- Aholi turli guruhlarining madaniy talablari, istaklari va qiziqishlarini muntazam o'rganish, shu asosda tashkil etiladigan madaniy – tarbiyaviy ishlar mazmunini boyitib borish va h. o.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etishdan maqsad, aholiga madaniy–ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv, muloqot, ko'ngilochar kechalar tashkil etish orqali xalqimizning, asosan yoshlarning qalbida vatanparvarlik, insonparvarlik hissini tarbiyalash, jamiyatimizdagi siyosiy

barqarorlik, fuqarolar osoyishtaligi va umummilliy totuvlikni eng yuksak qadriyat sifatida e'zozlashga o'rgatishdan iborat.

Bu maqsadlar madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etiladigan turli mavzudagi tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Birlamchi vazifa – tadbiriga mavzu tanlash va tadbirni rejalashtirishdan boshlanadi.

1. Tadbirlarni rejalashtirish.

Ma'lumki, har qanday madaniyat va aholi dam olish markazlarining yillik ish rejalarini yanvar oyida tasdiqlanib, muassasa yil davomida shu reja asosida o'z faoliyatini olib boradi.

Markaz xodimlari ishlarni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berishlari kerak:

- O'tkaziladigan ommaviy tadbirlar.

Bunda madaniyat muassasasining 12 ta ish sohasi aks etadi.

I. Milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish.

II. Ommaviy – siyosiy ishlar

III. Mehnat tarbiyasi

IV. Axloq va huquq tarbiyasi.

V. Vatanparvarlik va baynalminal tarbiya

VI. Ilmiy – ma'rifiy targ'ibot.

VII. Ekologiya tarbiyasi

VIII. Nafosat tarbiyasi.

IX. Jismoniy tarbiya va sport ishlari.

X. Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish.

XI. Bolalar va o'smirlar bilan ishslash.

XII. Xotin – qizlar bilan ishslash.

- Muassasaning to'garak ishlari.

- Uslubiy ishlar.

- Tashkiliy va xo'jalik ishlari.

2. Tadbir uchun mavzu tanlash

Tadbir uchun mavzu yil davomida o'tkaziladigan xalq bayramlari, atoqli sanalar, madaniy va ma'rifiy bayramlarga bag'ishlanadi. Bular quyidagilar shaklida ifodalananadi.

1. Mavsumiy bayramlar.

2. Umumxalq bayramlari.

1. Sumalak sayli.

Mustaqillik bayrami.

2. Gul sayli.

Navro'z bayrami.

3. Tut sayli.	Konstitutsiya bayrami.
4. Suv sayli.	Yangi yil bayrami.
5. Qovun, uzum, anor, anjir sayllari.	Xotin – qizlar bayrami.
6. “Mehrjon” bayrami.	“Ustozlar va murabbiylar kuni”.
7. “Hosil bayrami”.	“Xotira va qadrlash kuni”.
3. Madaniy va ma’rifiy bayramlar.	4. Diniy bayramlar.
Xalqaro madaniy bayramlar.	Ro‘za ha’yiti
Buyuk siymolar tavalludlari.	Qurban ha’yiti
Qadimgi shaharlar va tarixiy qadriyatlar tantanaları.	Boshiqa diniy marosimlar.
Xalq ijodiyoti ko‘rik – tanlovlari.	
Til va kitob bayramlari.	
O‘quvchilar bayramlari.	
Talabalar bayramlari.	
5. Oilaviy marosimlar.	6. Mehnat va tabiat bayramlari.
Tug“ilgan kun	Qishloq xo‘jalik xodimlari bayramlari.
Beshik, sunnat, nikoh to‘ylari.	Sanoat xodimlari bayrami.
Birinchi qadam.	Kasb bayramlari.
Muchal yoshi.	Tabiatsevarlar ko‘rigi.
“Kumush”, “oltin”, “olmos” to‘ylar.	Qushlar bayrami.
7. Sport bayramlari.	
Xalq o‘yinlari bayrami.	
“Umid nihollari”	
“Barkamol avlod”	
“Universiada” musobaqalari.	
Tennis bayrami.	
Xalqaro sport musobaqalari.	

Markaz ishini rejalashtirishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida olib boriladigan barcha ommaviy – siyosiy va madaniy – ma'rifiy ishlar mustaqil Respublikamizning moddiy – texnika bazasini yaratishga, xalq moddiy farovonligini oshirishga, barcha mehnatkashlarni yuksak g'oyaviylik va Vatanga sadoqat ruhida, mehnatga va ijtimoiy xo'jalikka ongli munosabatda bo'lish ruhida, yangi kishini tarbiyalashga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

2. Reja tuzish chog'ida Respublikamiz va Prezidentimiz chiqargan Qaror va Farmonlar, Respublika Madaniyat vazirligi, viloyat Madaniyat boshqarmasi, shahar, tuman hokimliklarining ko'rsatma va talablariga amal qilinadi. Reja tuzishda ilg'or madaniyat muassasalarining tajribalaridan keng foydalanish ko'zda tutilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Markazlar o'zi xizmat qiladigan hudud oldida turgan muhim siyosiy va xo'jalik vazifalarni har tomonlama yaxshi bilishi kerak.

4. Ishni rejalashtirishda markazlar o'zi xizmat ko'rsatadigan aholining madaniy ehtiyojlari, talab – istagi, qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati, sifat tarkibi, ularning yoshi, millati va boshqa xususiyatlari albatta inobatga olinadi.

5. O'tkaziladigan tadbirlarning rang – barang va xilma – xil bo'lishiga, ularni tashkil etishda madaniy – ma'rifiy ishning turli shakl va usullaridan foydalanish, yangiliklarni ijod etish, texnika vositalarining keng ko'lamidan foydalanish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmog'i lozim.

Ko'rib turganimizdek, o'tkaziladigan tadbirning zamонавиј, davr talabiga mos keladigan, hozir kun kishisini, ayniqsa, kompyuter texnologiyalaridan boxabar yoshlar va bolalarni zeriktirmaydigan darajada sahnaga olib chiqish tadbir ishtirokchilaridan chuqur bilim, keng dunyoqarash va albatta, sahna madaniyati va qonun – qoidalarni bilishlikni talab etadi.

Shuning uchun ham markaz xodimlarining kamida madaniyat va san'at sohasidagi ma'lumoti o'rta – maxsus bo'lishi yoki ish staji 3 yildan kam bo'lmasligi talab etiladi.

Har qanday tadbirning qanday o'tkazilishi markazning Badiiy Kengashida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Badiiy Kengash tasdig'iga tadbirning ssenariysi, tadbirga tanlangan musiqali dastur, sahna liboslari va boshqa anjomlarning eskiz – loyihalari havola etiladi.

Eng avvalo, markaz direktorining topshirig'iga ko'ra, markazning badiiy rahbari tadbirni o'tkazish uchun ish taqsimotini tuzib chiqadi.

Ish taqsimoti markaz direktori tomonidan tasdiqlangandan so'ng, xodimlar o'rtasida o'qib eshittiriladi va tadbir yakunida berilgan vazifalar bo'yicha monitoring o'tkaziladi.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatida Vazirlar mahkamasining 178-sonli qaroridan so'ng shtatlar jadvalidagi "Uslubchi" vazifasi o'rniغا "Mutaxassis" shtati berildi. Lekin lavozim yo'riqnomasiga asosan, Mutaxassislar bevosita Uslubchining vazifasini bajaradi va "Uslubiyat xonasi"ni yangi ssenariy, tavsiya va qo'llanmalar bilan boyitib borishga ma'sul hisolanadi.

Shunday ekan, endi tadbirlargacha ssenariy yozish mutaxassislardan biriga yuklatilishi mumkin. Ssenariy ijod mahsuli ekan, uni dastavval muallif hayolan o'z tafakkurida jonlantiradi va qog'ozga tushiradi. Bu yo'ldagi birinchi qadam – tadbirning davomiylik vaqtini aniqlashdan boshlanadi.

Masalan:

TADBIRNING REJASI

1.	Tadbirning ochilishi	5 daqiqa
2.	Alisherning yoshligi (ma'ruza)	10 daqiqa
3.	A. Navoiy g'azaliga bastalangan qo'shiq	5 daqiqa
4.	A. Navoiy - buyuk sarkarda (ma'ruza)	10 daqiqa
5.	Shoir g'azaliga bastalangan qo'shiq	5 daqiqa
6.	"Xamsa" va "Hayrat – ul abror" asarlari haqida fikrlar	15 daqiqa
7.	A. Navoiy g'azaliga bastalangan qo'shiq	5 daqiqa

8.	A. Navoiy lirikasi. "Qaro ko'zini"ning izohli tarjimasи	10 daqiqa
9.	A. Navoiy g'azaliga bastalangan qo'shiq	5 daqiqa
10.	Kechada faol ishtirok etganlarni taqdirlash	5 daqiqa
11.	Xotima.	5 daqiqa
	Jami	80 daqiqa

Ko'rinish turibdiki, dastlabki hisob – kitoblar 1 soatu 20 daqiqani ko'rsatmoqda. Bunga boshlovchilarning mikrofon oldiga kelib - ketishlari, ma'ruzachilarning minbarga chiqishlari va tushishlarini qo'shadigan bo'lsak, tadbir roppa – rosa 1 soatu 30 daqiqa davom etadi.

Shundan so'ng muallif ssenariyda shoir ijodiga bag'ishlangan mavzuli kechanı o'tkazish tartibi, unda tadbir qatnashchilarining nimani gapirishi, qanday badiiy asarlar ijro etilishi, bularning hammasi qanday yoritilishini bayon qiladi.

Ammo, ssenariy muallifi ssenariyning kompozitsion tuzilishiga ya'ni, dasturdagi voqealarning ketma – ketligi va o'zaro bog'liqligini to'g'ri tuzishga alohida e'tibor bermog'i shart. Bunda voqealarning dinamik (o'sib boruvchi) qonuniyatga bo'ysunmog'i va tugal bir maqsadni ifodalamog'i shart.

Masalan, buyuk allomaning serqirra, salmoqli hayotini ifoda etishda eng avvalo, uning go'dakligi, bolaligi haqidagi hikoyalardan so'z boshlagan ma'qil. Undan so'ng qahramonning kuchga to'lgan navqiron pallasida erishgan yutuqlari, uning ustozlari bergen baholari haqida gapirish mumkin.

Xotima qismida bobokalonimizning bizga qoldirgan ulkan, bebaho merosining salmog'i haqida besh yuz yildan beri o'rganib kelinayotgan dalil – isbotlardan misollar keltirilsa, g'azal mulkinining sultoni tomoshabinlar ko'z o'ngida o'z qaddini bor bo'yil bilan namoyon etadi.

Bunday yo'nalishdagi har bir epizod (lavha, ko'rinish)ning harakatli bo'lishini ta'minlash birlamchi maqsadni qiyomiga yetkazib yoritilishini ta'kidlaydi. Bu esa kecha

mazmunini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ssenariyning epizodlarini ishlashda ularning sodda, qisqa, kishilarni zeriktirmaydigan chiqishiga erishish lozim. To'g'ri tuzilgan voqealar tizimi umumiy g'oyani ochib berishga, tadbir mazmun – mohiyatini ochib berishni kafolatlaydi.

Bunda voqealar bir yo'nalishda rivojlantirilib borilsa, har bir voqea va hodisalar o'zidan oldingisining mazmundorligi, ta'sirchanligini ta'minlaydi, tomoshabinlarning qiziqishlarini uzuksiz o'stradi.

Kechada faktlarning, badiiy ifodalarning o'mini almashtirish muhimdir.

Masalan: shoirning she'rlaridan namuna o'qish, g'azallariga bastalangan qo'shiqlar ijro etish, tadbir qahramonining hayotidan hikoya qiluvchi spektakl va kinolardan parcha ko'tsatish kabilar.

Muhimi, tadbirdagi asosiy g'oyani unutmagan holda, voqea larning ketma – ketligidagi o'rirlarni almashtirish mumkin. Masalan, A. Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirda mantiqan so'zni shoirning bolaligidan boshlash mumkin. Lekin avval shoirning keksalik chog'idagi falsafiy o'gitlaridan yaratilgan parchadan boshlab, so'ng bolalikka qaytish ham mumkin. Bu hammasi ssenarist va rejissyorning fantaziyasiga bog'liq.

Tadbirdagi ko'rinishli sahnalardan keyingi ko'rinishlarga o'tish vaqtida ko'pincha boshlovchilardan foydalanish, so'z bilan qo'shiqni uzziy bog'lab, birorta she'r o'qish yoki prolog(so'z boshi) va epilog(xulosa)lardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadbirning mazmunli bo'lishini, uning bayram tusini olishini inobatga olib, kecha tashkilotchilari keng jamoatchilik ishtirokida jihozlardan, ko'rgazmalardan, proyektorlardan, yoritish va ovoz berishda kompyuter xizmatidan unumli foydalangan holda, tayyorgarlik ko'rish ishlariga rahbarlik qilib, yuksak iste'dod va yuqori malaka bilan kechaning muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin.

Tadbirning qiziqarli, mazmunli, tomoshabinlarning xotirasida qoladigan, aholining estetik didini oshiradigan, maroqli bo'lishi

tadbir tashkilotchilarining eng asosiy vazifasi bo‘lmog‘i kerak.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va aholi dam olish markazida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ish uslubiyati aholining ma'naviy ehtiyojlariga mutanosib holda tashkil etilishi va ularning ijtimoiy faolligi oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu jarayonda esa madaniyat va aholi dam olish markazlarida olib boriladigan madaniy-ma'rifiy faoliyatning barcha subyektlaridan maqsadli foydalanish zarur.

Nazorat uchun savollar:

1. *Madaniyat va aholi dam olish markazida madaniy-ma'rifiy ishlari uslubiyoti qanday komponentlarni o'z ichiga oladi?*
2. *Madaniyat va aholi dam olish markazida madaniy-ma'rifiy ishlarda qanday targ'ibot vositalaridan foydalanish zarur?*
3. *Madaniyat va aholi dam olish markazlarida ko'rgazmalar qanday tashkil etiladi?*
4. *Madaniyat va aholi dam olish markazlarini bezash ishlari qanday amalga oshiriladi?*
5. *Madaniyat va aholi dam olish markazida ma'naviyat va ma'rifat xonasi qanday jihozlanadi?*

MADANIYAT VA AHOLOLISH MARKAZIDA TO'GARAK ISHI

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida to'garak mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar
2. To'garak rahbarining ish hujjatlari va faoliyatni belgilab beruvchi mezon va me'yorlar
3. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida o'quv rejani ishlab chiqish texnologiyasi

Tayanch so'z va iboralar: *to'garak mashg'uloti, mashg'ulot tipi va turi, intellektual mashg'ulot, jurnal, mashg'ulot ishlamnalari, o'quv reja, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, mashg'ulotlar jadvali*

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda ko'plab ijtimoiy sohalarning tubdan modernizatsiya qilinishi, ijtimoiy turmush darajasining o'sishi aholining ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarga bo'lgan talablarini oshirdi. XXI asr farzandlari zamонавиј мактаб ва коллеjlarda takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari asosida o'qib ta'lim olmoqdalar. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining kundan-kunga o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini o'rgangan holda, yurtimizda bunyod etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash bilan birga mazmunli dam olishiga e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda yangidan tashkil etilayotgan zamонавиј madaniyat va aholi dam olish markazlarida ham asosiy urg'u aholi uchun yangi xizmat turlari, to'garaklar, badiiy havaskorlik jamoalari, studiyalar, qiziquvchilar uyushmalarini tashkil etish nazarda tutilmoqda. Jumladan, markazlarda xalq havaskorlik ijodiyoti to'garaklar, milliy-amaliy san'at to'garaklar, nomoddiy madaniy meros durdonalarini o'rganish to'garaklar, studiyalar, qiziquvchilar uyushmalari, sport to'garaklar, xorijiy tillarni o'rganish kurslari va hakozolar tashkil etiladi.

Yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholi dam olish

markazlarida O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi ob'yektlarini saqlab qolish va ko'paytirish, zamonaviy studiyalar va to'garaklarni, shuningdek, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo'li bilan badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantirish maqsad qilib qo'yilmoqda. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga mo'ljallangan madaniy-ma'rifiy xizmatlarni keng yoyish, internet-studiyalar, elektron resurslar, shu jumladan, internet vositasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari tashkil etiladigan ko'p funksiyali zallarda qiziqarli va maroqli tomoshalar va boshqa tantanali tadbirlar, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o'yinlar bo'yicha musobaqalar o'tkazilishini tashkil etish talab etiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun "O'zbekiston iftixori" va "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" shiorlari ostida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar, milliy adabiyot va san'at namoyondlari, sportchilar bilan aholining, shu jumladan, yoshlarning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uchrashuvlarni tayyorlash va o'tkazish, ushbu faoliyatga professional ijodiy guruhlar va taniqli san'atkorlarni jalb etish markazlarning asosiy ish yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Tashkil etilajak to'garaklar, yig'inlar, uyushma va studiyalarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, shuningdek, ularni ma'naviy qo'llab-quvvatlash va ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ'ib qilish maqsadida foto va amaliy san'atning doimiy va vaqtinchalik ko'rgazmalari, tanlovlari, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining mini-festivallari, mahalliy urf-odatlar va an'analarni aks ettiruvchi ommaviy teatr lashtirilgan bayramlar va tomoshalar, xalq sayillari o'tkaziladi.

Tashkil etilayotgan to'garaklarda qatnashchilarga sohaning sir-asrорлари, ijodiy-badiiy did, ranglar bilan ishlash texnikasi o'rgatiladi. O'smir-yoshlari, yosh oilalar, umuman, markazga tashrif buyurishi mumkin bo'lgan 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholining o'qishdan va ishdan bo'sh vaqtlarini unumli, maroqli o'tishini ta'minlash borasida ular kompyuter saboqlari, internet bilan ishlash, ma'lumotlar izlab topish, internet orqali

inulogotga kirish, masalan, milliy kutubxonamizga kirish, mumtoz adabiyotlar, milliy g'oya, urf-odatlarga oid ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. To'garaklarning muntazam ravishda malakali mutaxassislar, o'z ishining ustalari tomonidan olib borilishi aholining bo'sh vaqtini mazmunli va munarali o'tkazishini ta'minlash bilan bir qatorda, to'garaklar qatnashchilari sonining ortishi imkoniyatini yaratadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari nafaqat madaniyat va san'at muassasasi sifatida, balki ma'rifat markazi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Markazlarda aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun ularning qiziqish va istaklarini inobatga olgan holda yangi xizmat turlari ham tashkil etiladi.

Jumladan, kompyuter savodxonligi – o'smir yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli, maroqli o'tishini tashkil etish va ularni kompyuter texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha bilim ko'nikmalarini oshirish;

- xorijiy tillarni o'rgatish kurslari – yoshlarning jahon tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi asosida, yurtimiz madaniyati va san'ati to'g'risidagi boy ma'lumotlarni xorijiy tillarda ham egallashlari hamda ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirish;

- to'y marosimlari va yubileylar o'tkazish – aholiga xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, mahallalarda to'y marosimlari o'tkazish tizimini takomillashtirish;

- qiziquvchilar uyushmalari – ayollar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli, maroqli, qiziqarli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida "Dugonajon", "Iqbol", "Nilufar", "Zakovat", "Oila - muhabbat qasri", "Quvnoqlar va zukkolar", "O'zbekim o'g'lonlari", "Qizlar davrasi" va "Qo'li gul ayollar" kabi qiziquvchilar uyushmalari tashkil etiladi.

Har bir markazda ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi davlat siyosati asosiy yo'nalishlarini bajarishga qaratilgan yillik kalender rejalari -tadbirlar ishlab chiqiladi. Demak, tashkil etilajak zamонавијат madaniyat va aholi dam olish markazlarida to'garaklar milliy va kasb bayramlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa kasb bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishga keng jalb etiladi.

Yillik kalendar reja asosida o'tkazilajak ko'riklar, ko'rgazmalar, festivallar va tanlovlardan aholining turli qatlamlarini jalb etgan holda tashkil etiladi. To'garaklarda o'tkazilayotgan tadbirlar to'g'risidagi materiallar ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmog'ida muntazam yoritib boriladi. Shuningdek, faoliyat yuritayotgan barcha to'garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalari, uyushmalar, klublar va kurslarning o'z yo'nalishlariga ko'ra hisobotlari (konsert, "Quvnoqlar va zukkolar", "Zakovat", mushoira, intellektual o'yinlar, ko'rgazmalar, musobaqalar, bellashuv, mini-festivallar, tomoshalar, tanlovlardan shaklida) tashkil etiladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida to'garak mashg'uloti: uning maqsadi, shakllari va unga qo'yiladigan talablar.

To'garak mashg'uloti – zamonaliviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida muayyan miqdordagi doimiy qatnashchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyuşhtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan, aholining bo'sh vaqtini unumli va mazmunli o'tkazish uchun tashkil etilgan tadbirdir. To'garak mashg'ulotlari ma'lum bir yo'nalishda insoniyat tomonidan uzoq yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni to'garak a'zolariga juda qisqa vaqtida o'rgatishning eng samarali usulidir.

Mashg'ulotning jamoa bo'lib amalga oshirilishi ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mashg'ulot to'garak a'zolariga yalpi o'rgatishni osonlashtiradi, ularni jamoa sifatida tarbiyalashga hissa qo'shadi, ishtirokchilarda ijtimoiy faollik va muomala madaniyatining shakllanishiga ko'maklashadi. To'garak mashg'uloti jamiyat tomonidan madaniyat va sport ishlari vazirligi oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Yangilanayotgan zamonaliviy madaniy-ma'naviy tafakkur talablariga ko'ra to'garak mashg'uloti madaniyat va aholi dam olish markazlarining mulkiy mansubligidan qat'iy nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi;
- qatnashchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- ilmiyligi va izchilligi;
- mashg'ulotlarning insonparvarlik yo'nalishiga egaligi;
- tizimliligi;
- bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilganligi;
- amaliy ahamiyatga ega ekanligi va h.k.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida bir mashg'ulot uchun belgilangan soat 45 daqiqani tashkil etishini nazorada tutish kerak bo'ladi.

To'garak mashg'uloti tiplari:

- a) yangi tushuncha, ma'lumot va bilimlarni shakllantiruvchi;
- b) umumlashtiruvchi;

v) o'rgangan bilim, ko'nikma va malakalarni tahlil va nazorat qiluvchi

(takrorlash);

g) kombinatsion (aralash).

To'garak mashg'uloti shakllari (turlari):

a) nazariy;

b) amaliy;

v) laboratoriya;

g) madaniy-ommaviy tadbir;

d) o'quv sayohati;

ye) ko'rgazma va namoyish;

yo) kinomashg'ulot;

j) aralash (kombinatsiyalangan) shakllardan iborat. Bularidan tashqari, boshqa

mashg'ulot turlari ham mavjud.

Mashg'ulot tipi va turi bir-biriga juda yaqin, biroq ular o'rtaida farq bor. Mashg'ulot tipi mavzuga juda bog'liq va mavzuga asoslanib belgilanadi.

Masalan, birinchi yil mashg'ulotni boshlagan barcha to'garaklarda 1, 2, 3 yoki 5-mavzularda mashg'ulotning takrorlash tipini qo'llab bo'lmaydi. Chunki, bu mavzular, asosan, yangi tushuncha, ma'lumot va bilimlarni shakllantiruvchi mashg'ulotlardir. Biroq, 1, 2, 3 yoki 5 mavzularda mashg'ulot shakllari (turi)ning barchasini qo'llash mumkin.

To'garak mashg'ulotining maqsadi – har bir mashg'ulotning

3 ta, ya'ni ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari bo'ldi. Bularning har biri o'tilayotgan mavzu bilan uzviy bog'liq bo'lmos'i lozim, har birining maqsadi o'ziga xos. Mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun to'garak rahbari mas'ul.

Mashg'ulotning noan'anaviy shakli deganda – yangi va ilg'or tajribalardan foydalangan holda, shuningdek, to'garak a'zosini hunar, shu orqali biror-bir kasbni tanlashga yo'naltirilgan holda mashg'ulot o'tish tushuniladi. Mashg'ulot jarayonini noan'anaviy tarzda tashkil etish bugungi kunda eng muhim talablardan biridir. Noan'anaviy ravishda tashkil etilgan mashg'ulotlar sirasiga sahnalashtirilgan mashg'ulot, o'quv sayohat mashg'uloti, elektron vositalar qo'llanilgan mashg'ulot, guruhlar o'rtaida bellashuv va h.k. kabilar kiradi. Mashg'ulotga qo'yiladigan didaktik talablar – mashg'ulot maqsadlarini aniq va ravon belgilash, mashg'ulot bosqichlarining ketma-ketligi, jarayonning rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarini ta'minlashdan iborat, chunonchi:

- mashg'ulot mazmunini optimal aniqlash, uni o'quv dasturlari, davlat talablariga moslash, to'garak a'zolari tayyorgarligining mashg'ulot jarayoniga mosligi;
- bilimlarni o'zlashtirib olishlarini kafolatlash orqali to'garak a'zolarini ko'nikma, malakalarni egallashga tayyorlash;
- mashg'ulot mazmuniga mos ravishda samarali metod, uslub va vositalarni tanlay olish, shu orqali to'garak a'zolarining qiziqishini oshirish, yakka va jamoa tartibida ishlashga muhit yaratish;
- mashg'ulot jarayonida turli ko'rgazmali vositalardan foydalanish;
- qatnashchining muvaffaqiyatli ishtiroki uchun muhit yaratish.

Intellektual mashg'ulot – unda to'garak rahbari qatnashchining mayjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, o'tkiz, zamonaviy g'oyalar bilan mashg'ulotni boyitib, yangi-yangi shakllar yaratishini rivojlantiradi. Mashg'ulotning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etiladigan to'garaklar Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-soni qarori bilan bilan tasdiqlangan "Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari to'g'risidagi Nizom" hamda markazlarda tashkil etiladigan to'garaklarning namunaviy Nizomiga asosan faoliyat yuritadi.

**Markazning to‘garaklari, studiyalari va jamoalari
yo‘nalishlari va nomlarining ro‘yxati**

No	To‘garaklar nomi	I - tip	II - tip	III - tip
I. Xalq havaskorlik ijodiyoti to‘garaklari				
1	Ashula va raqs ansambli to‘garagi	+	+	+
2	Folklor-etnografik ansambli to‘garagi	+	+	+
3	Xoreografiya to‘garagi	+	+	+
4	Teatr san'ati (qo‘g‘irchoq va drama) to‘garagi	+	+	+
5	Vokal-cholg‘u ansambli to‘garagi	+	+	
6	Rubob to‘garagi (pulli)	+	+	+
7	G‘ijjak to‘garagi (pulli)	+	+	+
8	yevropa zarbli cholg‘ulari (zarblilar majmuasi) to‘garagi	+	+	+
9	Urma zarbli cholg‘ular (doira, nog‘ora va boshqa) to‘garagi	+	+	+
10	Tanbur to‘garagi (pulli)	+	+	+
11	Dutorchilar to‘garagi	+	+	
12	Karnay va surnay to‘garagi	+	+	+
13	Xor va vokal to‘garagi	+	+	
14	Akkordeon to‘garagi (pulli)	+	+	
15	Klassik gitara (akustik gitara) to‘garagi (pulli)	+	+	
II. Milliy – amaliy san'at to‘garaklari				
1	Makrame va to‘qish to‘garagi (pulli)	+	+	+
2	Bichish va tikish (kashta) to‘garagi (pulli)	+	+	+
3	Pazandachilik to‘garagi (pulli)	+	+	+
4	Xalq cholg‘ulari ustaxonasi to‘garagi	+	+	
5	O‘ymakorlik (yog‘och va ganch o‘ymakorligi) to‘garagi	+	+	+

6	Zargarlik to'garagi	+	+	
7	Naqqoshlik to'garagi	+	+	
8	Kulolchilik to'garagi	+	+	

III. Nomoddiy madaniy meroş durdonalarini o'rganish to'garaklari

1	Lapar, alla, o'lan va aytishuv, "Baxshi va xalfa" ijrochiligi to'garagi	+	+	+
2	Maqomchilar to'garagi	+	+	
3	Ko'hna cholg'ular ijrochiligi to'garagi	+	+	+
4	Dutorchilar to'garagi	+	+	
5	Askiya to'garagi	+	+	
6	Folklor qo'shiqlari to'garagi	+	+	+
7	Katta ashula to'garagi	+	+	

IV. Nomoddiy madaniy meroş durdonalarini o'rganish to'garaklari

1	Dizayn studiyasi (pulli)	+	+	
2	Teatr studiyasi (badiiy o'qish, drama)	+		
3	"Zamonaviy raqs" studiyasi (pulli)	+	+	
4	Ovoz yozish studiyalari (pulli)	+		
5	Xalq amaliy san'ati studiyasi (pulli)	+	+	+
6	Tasviriy san'at studiyasi (pulli)	+	+	+
7	Qo'g'irchoqsozlik studiyasi (pulli)	+	+	
8	Internet va axborot almashuv texnologiyalari (pulli)	+	+	
9	Foto-video studiyasi (pulli)	+	+	
10	Notiqlik san'ati studiyasi (pulli)	+		
	Ilmiy-texnik studiya (pulli)	+	+	

V. Qiziquvchilar uyushmasi

1	"Quvnoqlar va zukkolar" uyushmasi	+	+	+
2	"Zakovat" klubi uyushmasi	+	+	+

3	“O‘zbegim o‘g‘lonlari” uyushmasi	+	+	+
4	“Qo‘li gul ayollar” uyushmasi	+	+	+
5	“Oila – muhabbat qasri” uyushmasi	+	+	+
6	Tarix-o‘lkashunoslik uyushmasi			
7	Tabiat-ekologik uyushmasi			
8	Kolleksiya to‘plashga qiziquvchilar uyushmasi			

VI. Sport to‘garaklari

1	Shaxmat – shashka	+	+	+
2	Stol tennisi	+		
3	Sog‘lomlashtirish gymnastikasi	+	+	+
4	Badiiy gymnastika (pulli)	+	+	

VII. Xorijiy tillarni o‘rganish kurslari (pulli)

1	Rus tili kursi	+	+	+
2	Ingliz tili kursi	+	+	+
3	Nemis tili kursi	+	+	+
4	Fransuz tili kursi	+	+	+
5	Koreys tili kursi	+	+	
	Jami:	55	51	30

Eslatma: Tavsiya etilayotgan xizmat turlari, to‘garaklar, studiyalar va klublar hududiy shart-sharoitlar, markazlarning moddiy- texnika bazasi va aholi ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etilishi mumkin.

To'garak rahbarining ish hujjatlari

To'garak rahbari Markazda asosiy ustoz sifatida mashg'ulot jarayonining bevosita tashkilotchisi va ishtirokchisi hisoblanadi. Uning kasbiy mahorati, malakasi va bilimi to'garakning gullab-yashnashida, rivojlanishida, shuningdek, qatnashchilarni markazga keng jalg qilishda katta ahamiyatga ega.

To'garak mashg'uloti jurnali – to'garak rahbarining o'quv rejasi, ommaviy ishlar rejasi, hisoboti, to'garak rahbari sifatida amalga oshirgan metodik ishlari, to'garak a'zolari bilan amalga oshirilgan ommaviy ishlar hisoboti, to'garak a'zolarining tadbirdlardagi ishtiroki kabi bir qator yozma hujjatlarni alohida hujjatlarda, daftarlarda, kitoblarda yoki yig'ma jildlarda emas, balki to'garak jurnalining o'zida mujassam qilgan holda olib borish lozimligini taqozo etadi. Demak, to'garak jurnali to'garak rahbarining eng asosiy, ya'ni birinchi darajali hujjatidir. Jurnal mashg'ulot paytida o'quv xonasida, mashg'ulot tugagandan so'ng esa Markazning uslubchilar xonasida saqlanishi shart.

To'garak rahbarining ikkinchi hujjati, bu mashg'ulot o'quv rejasi, mashg'ulot ishlanmalari (konspekt daftari) va nazorat ishlari yig'ma jildi hisoblanadi. Tajribalardan ma'lumki, har bir to'garak rahbari o'quv yili boshidan o'quv reja tuzadi. O'quv reja muhim hujjat bo'lib, unda o'tiladigan mavzular, o'tkaziladigan nazorat ishlari va ularga ajratilgan soatlar aniq qilib ko'rsatiladi. Shu jihatdan qaraganda, bitta yig'ma jildda o'quv reja, mashg'ulot ishlanmalari (konspekt daftari) va nazorat ishlari materiallari saqlanishi va to'plab borilishi maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib ketganligi, ularning hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelganligini inobatga olib, konspekt daftari tutmaslik mumkin. Konspekt daftari o'rniغا, har bir mashg'ulotga mo'ljallangan ishlanmalar jildini yuritish lozim. Buning uchun alohida papka ochiladi va o'tiladigan har bir mavzu bo'yicha ishlanma tayyorlanib, xuddi konspekt daftari singari mashg'ulotdan oldin Markaz badiiy rahbari yoki guruh rahbari tasdiqlashi lozim.

To'garak rahbarining uchinchi hujjati, bu ommaviy tadbirlar

yig'ma jildi hisoblanadi. Har bir to'garak rahbari o'zi rahbarlik qilayotgan to'garak a'zolari ishtirokida tadbirlar o'tkazadi. Markaz, tuman (shahar), viloyat va Respublika miqyosida tadbirlarda ishtirok etadi.

Ish yuritish mexanizmidan ma'lumki, bajarilgan har bir ish isbotlanishi va asoslanishi, o'z o'rnida muayyan bir papka (jild)da saqlanishi va to'planishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, to'garak jurnalida bayon etilgan hisobot, ommaviy ishlari va boshqa tadbirlarni isbotlash uchun hisobotlar, ma'lumotnomalar, bayonlar, ssenariylar, dasturlar, ochiq mashg'ulot bayoni, to'garak rahbari va a'zolari olgan maqtov yorliqlari va diplomlar nusxalari ushbu papka (jild)da saqlab boriladi va yil oxirida tegishli rahbarga taqdim etiladi.

To'rtinchı hujjat – to'garak rahbarining boshqa to'garak rahbarlari tomonidan olib borilgan mashg'ulotlarni kuzatishi va tahlil qilishi oqibatida tayyorlagan mashg'ulot tahlillari yig'ma jildi hisoblanadi.

Tahlil varaqasida mashg'ulotni olib borgan rahbarning va Markaz tomonidan tegishli shaxs (uslubchi, badiiy rahbar)ning tahlil bilan tanishganligi haqidagi imzo bo'lishi lozim.

Yuqoridaqilarga asoslanib xulosa qilganda, "Madaniyat va aholi dam olish" markazi to'garak rahbarining quyidagi 4 ta hujjatlarni yuritishi majburiydir.

1. To'garak jurnali.
2. O'quv reja, mashg'ulot ishlanmalari va nazorat ishlari yig'ma jildi.
3. Ommaviy tadbirlar yig'ma jildi.
4. Mashg'ulot tahlillari yig'ma jildi.

To'garak rahbarining faoliyatini belgilab beruvchi mezon va me'yorlar

To'garak rahbariga qo'yiladigan talablar

To'garak rahbarligiga madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati bilan tanish, xalq ijodiyoti yo'naliishlari xaqida tushunchaga ega, pedagogik bilimga ega bo'lgan, to'garak qatnashchilari bilan ishlay oladigan, ularning qiziqishlarini qondiradigan va o'z kasbi ustida muntazam ish olib boradigan

xodimlar muassasa ma'muriyati tomonidan shartnomaga asosida ishga tayinlanadi.

To'garak faoliyatini tashkil etish

To'garak qatnashchilarining qiziqishi, yoshi va xohishiga qarab to'garak tashkil etiladi. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etiladaigan to'garaklarga 7 yoshdan 70 va undan yuqori yoshdagagi qatnashchilar jalg etiladi. Havaskorlar bilan yozgi va mehnat ta'tillari davrida qisqa davrga mo'ljallangan to'garaklarda ularning qobiliyatları va iqtidorlari aniqlanadi hamda ularni yo'nalishlari bo'yicha to'garaklarga targ'ib qiladi. Qatnashchilar guruhlarga bo'linadi, muassasa qonun-qoidalari, to'garak faoliyati haqida, texnika va yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va boshqa to'garak yo'nalishiga mos tushadigan ma'lumotlar bilan tanishtirish ishlari olib boriladi.

To'garak qatnashchilar uchun bitta guruhgiga haftasiga ikki yoki 3 marotaba, 45 minutdan mashg'ulot o'tiladi;

To'garaklarining har bir guruhgiga 10 tadan kam bo'limgan qatnashchilar qabul qilinadi. Ularni guruhlarga bo'lishda yoshlari, qiziqishlari, yashash va o'qish va ish muassasalari joylashgan o'rinalar hisobga olinadi;

To'garaklarni muassasalarning o'zida, mакtablar, mahalla qo'mitalari qoshida va sharoiti yetarli, to'liq ta'lim-tarbiya berish talablariga javob bera oladigan joylarda ham tashkil etish mumkin;

Muassasa ishchilar, o'quvchilar, tarbiyalanuvchilar shu jamoaning a'zolari hisoblanishadi va bo'sh vaqtlarini to'garaklarda to'g'ri tashkil etishda bevosita ishtirot etishadi;

Har bir havaskor ixtiyoriy ravishda to'garakka qatnashish va xohishiga ko'ra, bir vaqtning o'zida bir nechta to'garakda ishtirot etish huquqiga ega;

Mashg'ulotlarda to'garak rahbarlarining ruxsati bilan to'garak a'zolarining ota-onalari ham ishtirot etishlari mumkin.

To'garak rahbarining vazifalari

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi to'garaklarga "Madaniyat va aholi dam olish markazlari to'g'risida" va "Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida

to‘garaklar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom”larga asosan, qatnashchilar yoshlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab jalb etildi. To‘garak rahbari Madaniyat vazirligi yo‘nalishi bo‘yicha Respublika xalq ijodiyoti va madniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan tavsiya etilgan qo‘llanma va tavsiyanomalarga asosan ish yuritadi. To‘garak yo‘nalishi bo‘yicha mavzular “Dastur”da bo‘lmasa, to‘garak rahbari o‘z ish tajribasiga tayangan holda mustaqil ravishda to‘garak rejasini tuzadi va tuzilgan ish rejasini tasdiqlatish uchun tuman madaniyat va aholi dam olish markazida tashkil etilgan ilmiy-uslubiy kengashga tavsiya etadi. Kengash ish rejani tavsiya etgach, madaniyat va aholi dam olish markazi direktori tomonidan ish reja tasdiqlangandan so‘nggina foydalanishga ruxsat etiladi.

To‘garak rahbari mashg‘ulotlarni yuqori saviyada o‘tish, mashg‘ulotlarga yaxshi tayyorgarlik ko‘rish maqsadida konsept yoki mashg‘ulot ishlanmasi yozadi, to‘garak a’zolari bilan turli ommaviy tadbirlar, musobaqalar, mushoiralar, kechalar, sayohatlar tashkil etishni rejalashtiradi va o‘tkazadi. To‘garak a’zolarining ona-Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, Mustaqilligimizga, ramzlarimizga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Har bir mashg‘ulotni noa’naviy usullardan foydalangan holda yuqori saviyada o‘tkazadi. To‘garak rahbari to‘garakdagi iqtidorli qatnashchilarni aniqlaydi, ular bilan qo‘srimcha mashg‘ulotlar o‘tkazadi, ularning iste’dodini turli ommaviy va boshqa tadbirlarda namoyon etadi. Zamon talabidan kelib chiqib, to‘garak rahbari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarga jamoatchilik asosida “Ma’naviyat soat”larini o‘tkazadi.

Muassasa tomonidan tashkillashtirilgan turli ommaviy tadbirlar va jamoat ishlarida faol ishtiroy etadi, taalluqli hujjatlar, kundalik matbuot yangiliklari bilan tanishish orqali o‘z bilim saviyasini muntazam oshirib boradi.

Tuman madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan to‘garak rahbari o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda, yo‘nalishi bo‘yicha yangiliklardan foydalanib yil davomida uslubiy xat, tavsiyanoma yoki Dastur tayyorlab ilmiy-uslubiy

Kengashga tavsiya etishi mumkin. Yil davomida o‘z ish uslubini targ‘ib etish, kamchiliklarini bilib olish maqsadida “Ochiq mashg‘ulotlar” o‘tkazadi.

To‘garak rahbari nimalarni bilishi kerak?

- Muassasaning ichki tartib-qoidalarini;

- “Madaniyat va aholi dam olish markazlari to‘g‘risida”gi va “Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida to‘garaklar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom”larni.

- To‘garak a’zolarining psixologiyasini;

- To‘garak ish hujjatlarini yuritilish tartib-qoidalarini;

- Madaniyat vazirligi tomonidan qabul qilingan xalq ijodiyotini rivojlantirishga tegishli meyoriy hujjatlarni;

- “Oila, mакtab va mahalla hamkorligi” “Konsepsiysi”ni;

- Hukumat Farmon va Qarorlarini;

- Davlat ramzları, Respublikamiz Mustaqillik odimlarini, bayram sanalari- mizni;

- Buyuk allomalarimizning hayoti va ijodlarini;

- Kundalik matbuot yangiliklarini;

To‘garak a’zolarining bilinmlari sifatini nazorat qilish

Bugungi kunda barcha markazlarda to‘garak a’zolari bilimlari sifatini nazorat qilish masalasi muammoli va ko‘p muhokamalarga sabab bo‘layotgan vazifalardan biridir. Bir guruh mutaxassislar nazorat qilish va baholash amaliyotini joriy qilish tegishli hujjatlar asosida belgilab qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri, degan fikrni olg‘a surmoqda. Bizningcha ham, to‘garak a’zolari bilimlari darajasini nazorat qilish amaliyoti zarur vazifalardan biridir.

Birinchidan, muammoga huquqiy-me'yoriy jihatdan yondashadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat uylari va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Madaniyat va aholi dam olish markazlari to‘g‘risida” va “Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida to‘garaklar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom” da markaz faoliyati ko‘rsatkichlarini aniqlash va nazorat

qilish uchun asos hisoblangan shakllarga muvofiq ish jurnali yuritilishi to‘g‘risida kiritilgan. Shuni nazarda tutib, rahbarlar va tegishli guruhlar tomonidan to‘garak rahbarining yuqorida qayd etilgan 4 ta hujjati nazorat qilinishi orqali to‘garak a‘zolarining mashg‘ulotlarda olgan bilimlariga baho berish maqsadga muvofiq.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida o‘quv rejani ishlab chiqish texnologiyasi

O‘quv reja – namunaviy o‘quv dastur asosida, hududning tabiiy geografik sharoiti hamda mahalliy aholining talablari, istaklari va milliy mentaliteti asosida ishlab chiqilgan mavzularning ro‘yxati va hajmi, ularni o‘tish ketma-ketligi hamda nazorat qilish shakllarini o‘zida mujassamlovchi asosiy hujjatdir.

O‘quv dasturlari asosida o‘quv rejani ishlab chiqish “Madaniyat va aholi dam olish markazlari”da o‘ziga xoslikni talab etadi. To‘garak o‘quv rejasi to‘garak rahbari va tegishli yo‘nalishdagagi to‘garak, jamoa va studiya rahbari hamkorligida tuziladi. O‘quv dasturlari asosida tuzilgan namunaviy o‘quv rejasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi hamkorligida tuziladi va vazirlikning tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Respublikamizdagagi yangi tashkil etilayotgan zamонавиy markazlar uchun yagona o‘quv rejani tuzishning imkoni yo‘q. Sababi, Respublikamizda mahalliy aholining talablari, istaklari va milliy mentalitet yagonalikni taqozo etmaydi. Misol uchun, “Kulolchilik” to‘garagini olaylik. Ma’lumki, O‘zbekistonda kulolchilik maktablari ko‘p bo‘lib, ularning ish uslublari va yo‘nalishlari bir-biridan farq qiladi. Jumladan, kulolchilikning Buxoro va Rishton maktablari ish uslublarida farq bor. Rishton tumanida Buxoro kulolchiligini qancha o‘qitmang, ular baribir Rishtoncha uslubda ishlashga o‘rgangan. Shu jihatdan olib qaraganda, yagona o‘quv rejani shakllantirish mumkin emas. Sababi, o‘quv rejadagi mavzular o‘sha hudud sharoitiga, mahalliy aholining talab va istaklariga mos holda ishlab chiqilishi lozim.

O'quv rejani tuzishdan oldin quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. To'garak o'quv dasturi yaxshilab o'rganib chiqiladi.
2. To'garakka oid o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma va h.k.) va internet ma'lumotlari to'planadi.
3. Hududdagi mahalliy aholining ko'proq qanday mavzudagi bilim, qaysi hunarni egallashga qiziqishlari, ko'nikma va malakalari, bududning o'ziga xosligi o'rganiladi.

Yuqoridagi ishlarni bajarish bilan birga, har bir to'garak rahbarining mutaxassisligiga oid bilimi, tajribasi va mahoratini ham hisobga olish kerak. Sababi, to'garak rahbari o'zining kasbiy bilimi, tajribasi va ma'lumot darajasiga mos bo'limgan mavzularni imkon qadar o'quv rejaga kiritmagani ma'qul.

O'quv reja to'garak mashg'ulot jurnalining jadvallariga mutlaqo mos kelishi kerak. Bunda "Bosh mavzular" va "O'tiladigan mashg'ulot mavzulari" degan ustunlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bosh mavzu, bu to'garak o'quv dasturidan kelib chiqadi. Bosh mavzuga 6, 9, 12, 15, 18, 21 hatto 30 soat ajratilishi mumkin. O'tiladigan mashg'ulot mayzulari ustuni esa, o'quv rejani bildiradi. O'quv reja soatlari to'garak o'tkaziladigan kunlarga bog'liq qili b ishlanadi. Masalan, qatnashchi haftada ikki marta to'garakka kelishi belgilansa, o'tiladigan mashg'ulot mavzulariga 3 soat ajratgan ma'qul. Agar to'garak mashg'uloti haftada uch marta o'tilishi belgilangan bo'lsa, mashg'ulot mavzulariga 2 soat ajratish yaxshi samara beradi.

Mashg'ulotlar jadvali: uni tuzishga qo'yiladigan talablar

Mashg'ulotlar jadvali "Madaniyat va aholi dam olish markazlari" faoliyatini, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishga mo'ljallangan muhim rasmiy hujjatdir. Mashg'ulotlar jadvali to'garak mashg'ulotlari samaradorligi yuqori bo'lishiga erishishda, shuningdek, to'garak rahbarlari hamda to'garak a'zolarining mehnat qilishi va dam olishini yaxshi yo'nga qo'yishda dolzarb ahamiyatga ega. Demak, markaz rahbari, badiiy rahbar va bosh uslubchi tomonidan mashg'ulotlar jadvalini to'g'ri va to'laqonli tuzish mehnat unumdorligi va

ta'lim-tarbiyaning samaradorligi yuqori bo'lishida, to'garak a'zolarining bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish va ishtirokchilarning yosh bilan bog'liq zararli va yomon odatlarga berilib qolmasligida, to'garaklarga keng jalg etish va to'garak yo'nalishiga oid qiziqishlarining rivojlanishiga xizmat qilishi lozim. Mutaxassis olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, inson aqliy qobiliyatining eng samarali vaqt kun davomida ikki marta kuzatilar ekan: soat 10:00 dan 12:00 gacha, ikkinchisi soat 16:00 dan 18:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'iga to'g'ri kelar ekan. Bu esa madaniyat va aholi dam olish markazlariga keluvchi turli yoshdagi kishilarining o'qishdan yoki ishdan bo'sh vaqtlariga to'g'ri kelishi kerak. Psixolog olimlarning tajribalari natijasiga ko'ra insonlarning aqliy ish qobiliyati hafta davomida turlicha bo'lishi kuzatilgan. Masalan, kuzatilgan ko'pchilik insonlarda hafta o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) yuqori bo'lib, hafta boshi va oxiri (dushanba, juma va shanba) kunlari pasayib ketadi.

Demak, to'garak mashg'ulotlarini imkon qadar haftaning seshanba, chorshanba, payshanba kunlari o'tkazish yaxshi samara bergenidek, dushanba, juma va shanba yoki dam olish kunlarida to'garak qatnashchilarining amaliy mashg'ulotlari, yoki sayohat, ko'rgazma va namoyish, yoki ommaviy-madaniy tadbirlariga taqsimlansa to'g'ri bo'ladi. Umuman olganda, inson organizmi charchashga moyildir. Ma'lumotlarga qaraganda, bosh miyaning po'stloq qismi hujayralari toliqqanda tormozlanadi va tabiiy o'z-o'zini himoya qilishga o'tadi. To'garak mashg'ulotlari soati noto'g'ri joylashtirilishi, qatnashchilar yoshiga to'g'ri kelmasligi, zerikarliligi, mashg'ulotxonaning gigienik talablarga javob bermasligi ishtirokchini toliqtirishi mumkin. Shuning uchun to'garak mashg'ulotlari to'g'ri tashkillashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, har bir guruhdha haftasiga kattalarga 3 marta 2 astronomik (60 minutdan), o'quvchilarga esa 2 akademik soat (45 minutdan) mashg'ulot olib borish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mashg'ulotlar oralig'ida 10-30-minutli tanaffuslar qo'yish lozim.

Mashg'ulotlar jadvali to'garak a'zolari kontingenti

o‘zgarganda, ya’ni qaysidir to‘garak faoliyati tugatilganda yoki yangi to‘garak faoliyat boshlaganda, to‘garak rahbari ta’tilga chiqqanda yoki malaka oshirish kurslariga ketganida qayta tasdiqlanishi lozim. Mashg‘ulotlar jadvalini Markaz rahbarining buyrug‘i yoki “Tasdiqlayman” ustxati orqali ham tasdiqlanishi mumkin.

Jadvalda zarur ma’lumot va ko‘rsatkichlar bo‘lishi shart:

1. To‘garak nomi.
2. To‘garak rahbarining f.i.sh.
3. Guruhlar tartibi.
4. Mashg‘ulot xonasining raqami.
5. Hafta kunlari.
6. Mashg‘ulot soatlari.

Yuqoridagi 6 ta zarur ko‘rsatkich va ma’lumotlardan tashqari to‘garak rahbarining telefon raqami haqidagi ma’lumot ham ko‘rsatilishi mumkin.

Mashg‘ulotlar jadvalini tuzishda shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, bu to‘garaklar ta’lim tizimidagi maktablardagi qat‘iy o‘quv rejalarini kabi emas, balki, eng avvalo, aholining turli yoshini hisobga olib ishtirokchilarning, ota-onalar va bolalarning xohish-istaklari asosida ishlab chiqiladi.

Mashg‘ulot ishlanma majmuasi – konspekt va uning tarkibiy qismlari

Konspekt termini lotincha conspectus so‘zidan olingan bo‘lib, nuqtai nazar va qarash degan ma’nolarni bildiradi. Konspekt ma’ruza, to‘garak mashg‘uloti mavzusiga oid bilimlarning qisqa yozib olingan mazmuni, bayoni hisoblanadi.

Har bir to‘garak rahbari konspekt daftari yoki mashg‘ulot ishlanmasi jildini yuritadi.

Mashg‘ulot ishlanmasini tayyorlashda to‘garak rahbari mashg‘ulotning har bir qismini e’tiborga olishi maqsadga muvofiq. Mashg‘ulot ishlanmasi (yoki konspekt daftari) jildi hamma to‘garak rahbarida bo‘lishi shart. Lekin, qanday mazmunda, hajmda va necha varaqdan iborat bo‘lishi to‘garak rahbarining mashg‘ulot o‘tishidagi o‘ziga xos yondashuvidan,

mashg'ulot turidan kelib chiqqani ma'qul. Bunda hamma to'garak rahbari uchun bir xil chegara, cheklow o'rnatib bo'lmaydi. Agar mashg'ulot 2 yoki 3 soatli mavzu bo'yicha o'tkazilsa, mashg'ulot ishlanmasi o'sha soatlarga mo'ljallanishi lozim.

Mashg'ulot ishlanmasi qo'lyozma yoki kompyuterda yozilishi mumkin. Ishlanmani tumanlarda Markaz direktori yoki badiiy rahbari tasdiqlaydi. Mashg'ulot ishlanmasiga qo'shimcha qilib mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar mavjudligi hamda zarur didaktik vosita (xona sharoiti, zarur o'quv qurollari, o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali va tarqatma material)lar bo'lishi lozim.

To'garak mashg'uloti ishlanmasi quyidagi tuzilishga ega bo'lishi mumkin:

1. To'garak nomi va guruh.
2. To'garak o'tish joyi va sanasi (yil, oy, kun)
3. To'garak rahbarining FISH.

4. Mashg'ulotning mavzusi (jurnaldagi o'quv reja asosida belgilanadi)

5. Mashg'ulot maqsadi (belgilangan daqiqa davomida bajariladigan, aniq, hayotiy va mashg'ulot yakunida baholanadigan bo'lishi maqsadga muvofiq)

I. Mashg'ulot tipi (aralash, umumlashtiruvchi)

1. Mashg'ulot turi, shakli (aralash, nazariy, amaliy, umumlashtiruvchi; madaniy-ommaviy tadbirlar, o'quv sayohati, ko'rgazma va namoyish)

2. Mashg'ulotda foydalilaniladigan usullar (an'anaviy, zamonaviy, interfaol usullar)

3. Mashg'ulotda foydalilaniladigan jihozlar (texnik vositalar, slaydlar, ko'rgazmali va didaktik materiallar)

II. Yangi mavzu bayoni

1. O'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash

2. Yangi mavzu bayoni

III. Amaliy ish

1. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish, ishtirok etish va o'quv sayohatlarga jalg etish

2. Ko'rgazma va namoyishlar tashkil etish

3. Mustaqil va o‘z ustida ishlash uchun uyga vazifa berish

4. Mashg‘ulotning borishi (tuzilishi, bosqichlari)

Lekin, masalaning yana bir jihatiga alohida e’tibor berish lozim.

Ishlanmaning yuqorida sanab o‘tilgan qismlarining barchasini bitta to‘garak

ishlanmasida aks ettirib bo‘lmaydi. Qismlardan qaysinisini ishlatish uchun

belgilashda mashg‘ulot mavzusi, maqsadi, unga ajratilgan vaqt, soatlar miqdori va shakliga alohida e’tibor berish kerak.

To‘garak mashg‘uloti xonalarining bezatilishi

Markazdagi har bir xonaning eshidiga xona raqami va nomi aks etgan tablo o‘rnatalgan bo‘lishi shart.

Markazdagi har bir mashg‘ulot xonasi texnik hujjalarning moslik sertifikati va sanitariya-gigiena sertifikati bo‘lgan, davlat me’yorlariga mos maxsus mebellar komplekti bilan jihozlangan bo‘lishi shart. Xonadagi barcha o‘quv jihozlari ta’limning texnikaviy vositalari va boshqalar, mehnat gigienasi, sanitariya-gigiena hamda xavfsizlik texnikasi talablariga javob berishi lozim.

Mashg‘ulot xonasi doskasi odatda xonaning old tomoni poldan 80 sm. balandlikda o‘rnataladi. Doskaning chap tomoni yuqorisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining portreti va qisqacha tarjimai holi yoritiladi.

Doskaning o‘ng tomoni yuqorisida Davlat ramzlari tartib bilan o‘rnataladi (Davlat bayrog‘i, Gerb, Madhiya).

Doskaning tepasida hikmatli so‘zlar yoki to‘garak mazmuniga mos qisqa va lo‘nda muhim yozuv bo‘lishi maqsadga muvofikdir. Bu yozuvlar doskaning eni bilan teng bo‘lishi, bo‘yi esa, 30-40 sm. atrofida bo‘lishi lozim.

Doskaning o‘ng va chap tomonlarida to‘garak faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma’lumot, chizma, jadval yoki rasmli, shuningdek, davriy stendlar bo‘lishi mumkin.

Mashg‘ulot xonasining devor tomonida (derazaga qarama-qarshi tomoni):

sohaga oid stand joylashtirilsa bo‘ladi. To‘garak rahbari yoki uslubchining ijodiy yondashuvi muhimdir. To‘qish to‘garagi

bo'lsa, masalan, to'qish san'ati- ning tarixi, rivojlanishi, to'qishning turlari va uslublari, ish qurollari, xom ashyo turlari, to'qish mahsulotlari aks etgan yozma, chizma va tasviriy ma'lumotlar stend yoki plakat qilingan holda osib qo'yilishi mumkin.

Mashg'ulot xonasining orqa tomonida (doskaning qaramaqarshi tomoni):

stellaj, javon va vitrinalar joylashtirilib, ularda to'garak a'zolari tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning doimiy yoki davriy ko'rgazmasini tashkil etish mumkin.

Mashg'ulot xonasining derazalariga: did bilan tikilgan pardal yoki jalyuzi o'rnatish maqsadga muvofiq. Deraza tokchasida bir xil hajmdagi va rangdagi tuvakda gullar qo'yish mumkin. Deraza oralig'idagi joylarga to'garak rivojlanishida hissa qo'shgan olimlar, tarixiy shaxslar portretlarini o'rnatish mumkin. To'garak a'zolari stolining qator oralig'i esa 70 sm dan kam bo'imasligi lozim.

Madaniyat va aholi dam olish markazida to'garaklarni muvofiqlashtiruvchi "Uslubiyat xonasi"ning bezatilishi

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat ko'rsatayotgan xalq havaskorlik ijodiyoti, milliy amaliy san'at, nomoddiy madaniy meros to'garaklari, studiyalar, qiziquvchilar klubi, sport to'garaklari kabi to'garaklar va jamoalari yo'nalishlarining har biriga alohida javon yoki burchak ajratish lozim. Shuningdek:

"Ochiq mashg'ulotlar jadvali" nomli stend;

"Namunaviy mashg'ulot ishlannmalari" nomli stend;

"Yangi uslubiy adabiyotlar" nomli stend;

"Iqtidor egalari" nomli stend.

To'garak mazmuni va samaradorligini aks ettiruvchi stendlar, shuningdek, to'garak a'zolarining markaz, tuman (shahar), viloyat va Respublika miqyosida o'tkazilgan tadbirdlardagi ishtiroti fotolavhalari, maqtov yorliqlari o'rnatilgan stendlar qo'yilishi mumkin. Shuningdek, markazlarda faoliyat yuritayotgan badiiy rahbar, huquqshunos, to'garak, jamoa va studiya rahbari, havaskorlik jamoalari va ijodiy to'garaklar faoliyatini tashkil etish

bo'yicha mutaxassis, yoshlar va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha mutaxassis, baletmeyster, drama, miniatyura, askiya, qo'g'irchoq teatrлari rejissyori, musiqa rahbari, havaskorlik sirk jamoasi rejissyori va musiqa rahbarlarining sohasi bo'yicha qo'llanmalari, tavsiyanomalar, buklet va ssenariylari, ommaviy axborot vositalarida chiqqan maqolalari ko'rgazmaga qo'yiladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazida to'garaklar

hisobotlarini namoyish etish uchun faollar zalining bezatilishi

Faollar zalining sahna devorida O'zbekiston Respublikasi bayrog'i katta hajmdagi matodan tikib o'rnatiladi.

Faollar zali derazasiga pardal yoki jalyuzi o'rnatish maqsadga muvofiq. Faollar zalining devorlari doimiy tarzda jihozlanmaydi, balki o'tkaziladigan bayram va turli tadbirlar mazmuniga qarab davriy ravishda bezatilishi mumkin. Faollar zalining bezatilishi juda muhim va dolzarb masala bo'lganligidan tuman ma'naviyat va targ'ibot bo'limi bilan kelishgan holda turli xildagi ma'naviy-ma'rifiy va madaniy mazmundagi shiorlar bilan bezatish maqsadga muvofiq.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat yuritayotgan barcha to'garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalari, uyushmalar, klublar va kurslarning o'z yo'nalishlariga ko'ra hisobotlari (konsert, QVZ, "Zakovat", "Mushoira", intellektual o'yinlar, ko'rgazmalar, musobaqalar, bellashuv, mini-festivallar, tomoshalar, badiiy kecha, tanlovlardan shaklida) tashkil etilishini inobatga oladigan bo'lsak, markazlardagi faollar zali to'garaklar hayotida muhim ahamiyatga egaligiga amin bo'lamiz.

To'garaklarning yillik va oylik ish rejalarini jadvali tasdiqlanib, ishtirokchilar va jamoatchilikka ma'lum qilingach, tayyorgarlik ishlari boshlanadi. Har bir to'garak ish jadvaliga muvofiq, zalda repetitsiya jarayonlarini boshlaydi. Shu bilan birgalikda o'z yo'nalishi bo'yicha hisobot konserti ("Quvnoqlar va zukkolar", "Zakovat", "Mushoira", intellektual o'yinlar, ko'rgazmalar, musobaqalar, bellashuv, mini-festivallar, tomoshalar, tanlovlardan shaklida)ga mos pannolar, shiorlar, ko'rgazmalar bilan zalni qo'shimcha bezatadi. Bu ishda Markaz badiiy rahbari, to'garak, jamoa va studiya rabbarining zimmasiga mas'uliyat yuklanadi.

Negaki, bezatilgan zal mazkur to'garak tayyorlagan dastur tomoshabinlar hamda mehmonlarda to'garaklar ishiga qiziqish, namoyish etilajak dasturga ishtiyooq uyg'otadi. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etiladigan to'garaklar, studiyalar, klublar va yangi xizmat turlari, to'garaklarning o'quv rejalar, dasturlari, repertuarlari va scenariylar bo'yicha turkum uslubiy tavsiyanomalar, qo'llanmalar tayyorlash, markazlarning bezatish uchun Respublika Ma'naviyat va targ'ibot markazi, Respublika "Tasviriy oyna" ijodiy uyushmasi mutaxassislari bilan ishlab chiqilgan tavsiyaviy xarakterdagi qo'llanma chop etilib, joylarga yetkazish rejalashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va aholi dam olish markazida tashkil etilgan to'garak ishlari jamiyat a'zolarining badiiy-estetik tarbiyasini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xisoblanadi. O'z navbatida bu jarayonda esa xar bir ishtirokchi o'z hayotiy pozitsiyasini tanlab olishi lozim bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Madaniyat va aholi dam olish markazida to'garak ishlari qanday tashkil etiladi?*
2. *Madaniyat va aholi dam olish markazida qanday to'garaklar faoliyat yuritadi?*
3. *Madaniyat va aholi dam olish markazida to'garak rahbariga qanday talablar qo'yiladi?*
4. *To'garak faoliyatini tashkil etishda qanday me'yoriy hujjatlar yuritiladi?*
5. *To'garak mashg'uloti ishlanmasi tarkibiy qismi nimalardan iborat bo'lgan?*

MADANIYAT VA AHOLO DAM OLİSH MARKAZIDA İSH YURİTİSH VA HUJJATLAR BİLAN İSHLASH

1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida ish yuritish asoslari
2. Madaniyat va aholi dam olish markazida hujjatlar bilan ishlash
3. Madaniyat va aholi dam olish markazida hujjatlar namunalari

Tayanch so'z va iboralar: *ish yuritish, sodda hujjatlar, murakkab hujjatlar, tashqi hujjatlar, ichki hujjatlar, hujjat matni, xizmat yozishmalari, ijro intizomi, rezolyutsiya, ijrochi xodim, xronologik tartib*

Ish yuritishning bevosa asosini hujjatlar tashkil qiladi. Biron-bir korxona, muassasa yoki tashkilotning faoliyatini bugungi kunda ana shu hujjatlarsiz mutlaqo tasavvur qilish mumkin emas. Mazmunan, xajman va shaklan xilma-xil bo'lgan hujjatlar umuman kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Hujjat so'zi lu'g'atda quyidagicha izohlanadi:

-kimsaning kimligini, mashg'ulotini, biror korxonaga tegishligini tasdiqllovchi ish qog'ozi (pasport, guvohnoma, a'zolik bileyti va shu kabilar);

-kimsaning biror narsaga haqi borligini, huquqini tasdiqllovchi ish qog'ozi;

-narsaning nimaligini, miqdori, sifati va shu kabini ko'rsatuvchi rasmiy lashtirilgan ish qog'ozi;

-ilmiy, ijtimoiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yozuvlar, suratlar, asar yoki adabiyotlar.

Yaqin o'tmishimizda juda kam hujjatlar o'zbek tilida yozilib, ko'pincha rus tilidan andoza olish yo'li bilan yozilar edi. To'g'ri, rus hujjatshunosligidagi juda ko'plab tartibotlarni o'zbek tilidagi hujjatlarga ham ta'tbiq etish mumkin, lekin bar-chasini emas.

Ma'lumki, hujjatlar xilma-xil va miqdoran juda ko'p.

Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatlari ham turlichadir. Ish yuritishdagi hujjatlar eng avvalo yaratilish maqsadiga ko'ra tasnif qilinadi va bu jihatdan ichki va tashqi hujjatlar farq qilinadi.

Ichki hujjatlar ayni korxonaning o'zida tuziladigan va shu korxona ichida foydalaniladigan hujjatlardir.

Tashqi hujjatlar muayyan korxonaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir.

Hujjatlar o'z mazmuniga ko'ra ikki turda bo'jadi:

- sodda hujjatlar – muayyan bir masalani o'z ichiga oladi;

- murakkab hujjatlar – ikki yoki undan ertiq masalani o'z ichiga oladi.

Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko'ra xizmat yoki rasimiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlarga ajratiladi. Xizmat hujjatları tayyorlanishiga ko'ra korxona yoki mansabdar shaxslarga tegishli bo'lsa, shaxsiy hujjatlar yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladi (shaxsiy ariza, shikoyat va h.k.).

Ma'muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat inavqyeiga ko'ra hujjatlar asosan tashkiliy hujjatlarga, farmoyish hujjatlariga, ma'lumotsimon-axborot hujjatlariga va xizmat yozishma-lariga bo'linadi.

Hujjatlar mazmunan tashkilotning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonining borishida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa korxonalar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks etiradi (nizomlar, yo'riqnomalar, shartnomalar).

Farmoyish hujjatlari guruhiga buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabilar kiradi.

Ma'lumotsimon-axborot hujjatlari ancha katta guruhnini tashkil qiladi, bunday hujjatlarning ish yuritish jarayonidagi ishtiroki ham juda faol (dalolatnama, ma'lumotnama, ariza, tushuntirish xati, hisobot, ishonchnoma, tavsifnama).

Xizmat yozishmalari mazmunan xilma-xil bo'ladi. Ularda korxona faoliyatining turli masalalari bilan bog'liq talab, iltimos,

taklif kafolat kabilar aks ettiriladi. Bu ma'noda xizmat yozishmalari hujjatlarning yuqorida ko'rsatilgan har uch guruhi bilan ham aloqadordir, ularning muayyan bir guruhiga xizmat hujjatlarini kiritish shuning uchun ham maqsadga muvofiq emas.

Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Markazda oxirgi yillar davomida yuqori tashkilotlardan kelgan hujjatlarni ro'yxatga olish tartibini, ijro intizomini talab darajasiga keltirib, yo'lga qo'yish bo'yicha ish olib borildi va bu sohada ma'lum bir tizim shakllantirildi.

Mazkur hujjatlarni ro'yxatga olish kompyuterda 3 nusxada ishlab chiqilgan maxsus nazorat varaqalarida (agarda hujjat nazoratga olingan bo'lsa) hamda hujjatlarni ro'yxatga olish jurnalida qayd etiladi Varaqalardan birinchisi hujjatning asliga, ikkinchisi hujjatning nusxasiga tikiladi (ijrochiga beriladi) va uchinchisi kartotekada ma'lumot uchun saqlanadi.

Shundan so'ng ish yurituvchi hujjatni rahbarga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi. Rahbar maxsus fishkaga rezolyusiya qo'yib, tegishli ijrochi xodimga yozma ravishda topshiriq beradi.

Agar rahbar tomonidan hujjat ijrosi bir nechta xodimlarga topshirilgan bo'lsa, familiyasi birinchi yozilgan xodim ijroni tashkil etishga mas'ul bo'ladi.

Rahbar fishkada aniq qilib:

- mas'ul ijrochini yoki ijrochilarni;
- hujjat ijrosi bo'yicha topshiriqni;
- ijro muddatini belgilab berishi lozim.

Ijro muddati ko'pincha hujjat matnida belgilangan bo'la-di yoki rahbarning fishkadagi topshirig'ida ko'rsatiladi.

Agar kelgan hujjat o'z mazmuniga ko'ra nazoratga olinmaydigan hujjatlar turiga kirsa, ya'ni masalan, hujjat matnida aniq muddatli topshiriq berilmagan yoki rahbar tomonidan "Ma'lumot uchun" deb ko'rsatilgan bo'lsa, bunday hujjat jurnalda ro'yxatga

olinadi, nazorat varaqasi ochilmaydi.

Ish yurituvchi hujjat nusxasini topshiriqda ko'rsatilgan ijrochi xodimga jurnalda va nazorat varaqasida qo'l qo'ydirib, ijsro uchun topshiradi.

Ijsro nazorati jurnalda va nazorat varaqasida qayd etilgan muddatli topshiriqlar asosida tashkil etiladi.

Ijrochi xodim hujjatni olgandan so'ng birinchi navbatda uni bajarish bo'yicha aniq reja tuzib, ishni boshlashi lozim. Ikkinchidan, ijrochi xodim nazorat yig'majildi olib, hujjat bilan ishslash jarayonida hosil bo'lgan barcha materiallarni shu papkaga tikib, uni shakllantirib boradi. Birinchi bo'lib mazkur hujjat tikiladi va uning ustiga xronologik tartibda tegishli hujjatlar (rejalar, har hil ma'lumotlar, chizmalar, rasmlar, fotosuratlar, yuqori korxonaga yuborilgan axborot yoki hisobot nusxalari va x.k.) taxlanib boriladi.

Hujjat ijsro etilgandan so'ng ijrochi xodim ushbu hujjatni nazoratdan chiqarishi lozim. Buning uchun:

- qilingan ishlar yuzasidan rahbariyat nomiga qisqacha yozma axborot beriladi va shu asosda rahbar nazorat varaqasi ustiga "Nazoratdan chiqarilsin" deb yozib, sanasin. ko'yib, imzo chekadi. Shu kundan e'tiboran hujjat ijsro etilgan va nazoratdan chiqarilgan hisoblanadi;

- agar hujjat yuborgan yuqori tashkilotga ijsro bo'yicha ma'lumot (axborot, hisobot) taqdim etilgan bo'lsa, uning asosida hujjat nazoratdan chiqarilishi mumkin va uning nusxasi nazorat yig'majildida eng ustungi, yakuniy bet qilib tikiladi.

Agar ba'zi obyektiv sabablarga ko'ra hujjatri o'z muddatida bajarishning iloji bo'lman Hollarda rahbariyat tomonidan uning muddati uzaytirilishi mumkin.

Ijsro etilgan hujjatning ijrosi bo'yicha shakllangan nazorat yig'majildi saqlanish uchun ish yurituvchiga topshiriladi. U esa jurnal va nazorat varaqasida buni rasmiylashtiradi. Kelgusida ijsro etilgan hujjatlar yig'majildlari o'z muddatlarida va o'rnatilgan tartibda Davlat arxiviga doimiy saqlanish uchun topshiriladi. Hujjatlar bilan ish yuritishda tahliliy ishlarning ahamiyati juda katta bo'lib, ijsro intizomini mustahkamlashda muhim rol

o'ynaydi. Bu ishni albatta amaliyotga joriy etish kerak, chunki har bir o'rnatilgan muddatlarda bajarilgan ishlar tahlil qilinib, o'rganilmasa, erishilgan natijalar e'tiborsiz qolsa, bunday hol korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Markaz amaliyotida hujjatlar bilan ishlash hamda ish rejalarini bajarilishi bo'yicha tahlillar har oy yakuni bilan qilinadi va yangi oyning birinchi dushanbasida xodimlar yig'ilishida muhokama qilinib, ko'rib chiqiladi va tegishli xulosalar qilinadi. Shuningdek, kelgusi oyda bajariladigan hujjatlar va ish rejasida belgilangan tadbirlar haqida bu tahillarda ko'rsatilib, xodimlarga eslatish maqsadida ma'lum qilinadi. Bundan tashqari markazga kelib tushgan hujjatlar har chorak va yil yakunlari bo'yicha nazoratga olingan hujjatlar ijrosi monitoring qilinadi. Chorak yoki yillik monitoring ishlari keyingi chorak yoki yil boshida amalgalashiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Madaniyat va aholi dam olish markazida qanday ish hujjatlari yuritiladi?*
2. *Ijro intizomi nima?*
3. *Xizmat yozishmalari deganda nimani tushunish mumkin?*
4. *Ish yuritishida xujjat matniga qanday talablar qo'yiladi?*
5. *Madaniyat va aholi dam olish markazida ish yuritish uchun asosan kim mas'ul xisoblanadi?*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.-Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrdagi "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 322-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamонавијада маданијат и ахоли дам олиш марказларини ташкил этиш чора-тадбирлари то'г'рисида"ги 178-сонли юрим.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni.
6. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.-Toshkent: O'zbekiston, 2010.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O'zbekiston, 2011.
9. Karimov I.A.Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
10. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash -yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
11. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya. –Toshkent: Fan, 2000.
13. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi.-

Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

14. Jabbarov.I. O'zbek xalq etnografiyasi - Toshkent: O'qituvchi, 1994.

15. Shamsutdinov R. va boshqalar. Vatan tarixi I,II,III-kitob- Toshkent: Sharq, 2013.

16. Normuxammedova M. O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy ishlar.-Toshkent: O'qituvchi, 1998.

17. Qorabayev U.X. O'zbek xalq bayramlari.-Toshkent: O'qituvchi, 2002

18. Qorabayev U.X. Soatov G'. O'zbekiston madaniyati.- Toshkent: Bo'ston, 2011

19. Jabbarov.I. O'zbek xalq etnografiyasi . Toshkent: O'qituvchi, 1994.

20. Muxtorov A. Shaxs tarbiyasida milliy g'oya, ehtiyoj va man'aatlar uyg'unligi.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003

21. Abdullayev M va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy- ommabop lug'at. -Toshkent: Sharq, 2000.

22. Alimova Sh. Madaniy-marifiy faoliyat asoslari.O'quv qo'llanma.Toshkent,2007.

23. Bekmurodov M. Umarov A. Qoraboyev U. Xaydarov Z. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi,nazariyasi va uslubiyati. - Toshkent: Ma'naviyat, 2016

24. www.ziyonet.uz

25. www.fikr.uz

26. www.lex.uz

M U N D A R I J A

So'zboshi	3
Madaniyat va istirohat bog'larining tarixiy taraqqiyoti	4
Zamonaviy madaniyat va istirohat bog'lari strukturalari	14
Madaniyat va istirohat bog'larida madaniy-ma'rifiy ishlar uslubiyati	22
Madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari	34
Madaniyat va aholi dam olish markazlarining tashkii topishi va uning huquqiy asoslari	41
Madaniyat va aholi dam olish markazlarida kadrlar bilan ishlash ..	47
Madaniyat va aholi dam olish markazlarini bezash ishlari va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish uslubiyati	75
Madaniyat va aholi dam olish markazida to'garak ishi	97
Madaniyat va aholi dam olish markazida ish yuritish va hujjatlar bilan ishlash.....	120
Foydalanilgan adabiyotlar	125

Bosishga ruhsat etildi: 28.11.2017 Ofset qog'oz.

Qog'oz bichimi 64x84 $\frac{1}{32}$ Time New Roman garniturasi.

Shartli bosma tabog'i 7.35. Nashr,hisob tabog'i 7,0. Adadi 40.

«Lesson press» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

«Zamon poligraf» OK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Tashkent shahri. Yunusobod tumani,

Bobodehqon mahallasi 45 - uy.

ISBN: 978-9043-513-08-8

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9043-513-08-8.

9789043513088